The most typical are myths, legends and folktales can be seen in the context of division oral prose or poetic story into three components that often overlap (e.g. Bascom 1965). Folktales are non-religious fictional stories they often teach practical lessons and draw morals, but they are intended to be entertaining. They are also non-historical, especially in that they are not tied to anything. We should not confuse folktales in the term "folklore", the latter is expression of folktales and other creative words (containing myths and legends) are learnt by folklorists' usage of literary and ethnographic folklore technique.

Geology and Mythology.

As we have known, mythological research is extremely difficult and multifaceted topic and we've put a lot of effort to understand it. Many authors, since ancient times, have recognized the probable historical merit of mythology. Most of Greek mythology today it is known as a political and religious story. The destruction of the Troy described in *Iliad*, it was finally recognized as a genuine history in 1870.



When Heinrich Schliemann dug the ruins Old Iliion. Moreover, among many other examples, The story of Theseus killing the Minotaur The palace of Knossos is generally considered to be one Cracked image of the last historic defeat Minoan civilization in the Aegean Sea (c. 1400 BC).

An example that can help explain the historical reality which is behind a mythical story called "Heracles and Lerna's Hydra". Analysis of because this famous story is noteworthy It can provide useful insights into the origin Factual evidence of mythology, and other mechanisms of myth formation (Piccardi 2004).

Killing Hydra is the most popular myths from ancient times which is based on a natural process. Always play Many hydra heads are interpreted as follows: symbols of many water sources that feed a big swamp which is located near Lerna, and the fight between Hercules and the monster, hence, image of drainage efforts. After the last chop their hero, the hero who stayed immortal, buried it forever and put a huge and heavy stone on it in addition. Kirk (1974), initially follows the interpretation proposed by Parai Pathos and claims this instead that this myth records a fairly old politics event. In a manner similar to the killing of the Minotaur at the Knossos Palace, Hydra's killing at Lerna and related myths Nemean lion killing, all of them contain memories of old political events in addition to references to fertility rites.

Myths were also created to explain unusual landscape features and natural landmarks, inspired by mountains, cliffs and rocks that often look out of place. An example of the latter is explained by Motta & Motta, and many similar cases are known elsewhere in the world. Ancient sacred folklore has many such mythical explanations of the amazing appearance of certain natural geological formations and structures.

In recent decades, there is growing awareness among geologists, some legends and myths are based on natural phenomena, and the possibility of using an interdisciplinary approach to identify records of past geological events in a particular story.

Among the more useful uses of geological myths are the ability to add a historical record to natural disasters, which helps to avoid from danger. Some of the most damaging geophysical disasters such as earthquakes, tsunamis, volcanic eruptions and meteorites were written in myths because of probably two mythical effects reason: first, they are very rare, and a mysterious phenomenon, and secondly, their impact on the community made them important to be remembered. Different examples of mythical explanation of such a catastrophic event can be presented in this work.

The most well-known example of volcanic eruptions can be seen in mythology of Atlantis destruction which is interpreted as broken image of super eruption of Thera volcano around 1625 BC (Friedrichetal. 2006; Manning et al. 2006). In the similar manner, the battle between giants' Olympic athletes and typhoon prisoners



under Etna volcano memory of the period of intense activity of Etna and other volcanoes in the Mediterranean (Wyatt 1996; Barber & Barber 2005).

Bible examples related to earthquakes, analyzed by Bentor (1989) and Nur (1991), are: Jordan intersection and aftermath famous destruction of the wall of Jericho (Joshua 3, 4 and 6). In this situation, the site location where the incidents happened and features reported in the text, allowed the recognition in this explanation of the strong earthquake that caused collapse of the almost vertical bank of the river, across large leaf stripes Jordan Valley Fault. The likely phenomenon reoccurred in the 1546 earthquake. The water of the river is blocked and the water stopped during two days, and the of earthquakes of 1906 and 1927. Jericho's destruction was listed as follows: Seismic events in the 15th century catalog earthquake (Manetti 1457) and earthquake with the depletion of Jordan the collapse of the Wall of Jericho, which was already recognized in ancient times (Psalm 114:3-8).

Conclusion. Myth offers us amazing opportunities extracted from the historical and cultural records of unprecedented view of many regions with the effects of geological and solar system processes events of the last few thousand years.

Most of the time, the process of extracting such records from myths, natural events and processes may not be easy. It requires an application a set of geological, astronomical, archaeological and additionally cognitive tools science, history, and the humanities. We are still forced to learn lots of things about theory and methods our new field of geological mythology. Not all myths are good for such analysis, but not so much of them gives enough information which is necessary for identification the actual geological process is less specific datable occurrences such as large earthquakes and volcanoes eruptions, floods, impacts on space. Anyway, that these defined events give us opportunity to understand the geological history of the region and the actual risks posed by certain natural specific phenomenon.

REFERENCES:

1. BARBER, E. W. & BARBER, P. T. 2005. When they Severed Earth from Sky: How the Human Mind Shapes Myth. Princeton University Press, Princeton
2. BASCOM, W. 1965. The forms of folklore: prose narratives. *Journal of American Folklore*, 78, 3– 20.
3. BECKWITH, M. W. 1972 (orig. 1951). *The Kumulipo: A Hawaiian Creation Chant*. University of Hawaii Press, Honolulu.
4. BENTOR, Y. K. 1989. Geological events in the Bible. *Terra Nova*, 1, 326 – 338.
5. BLONG, R. J. 1982. *The Time of Darkness: Local Legends and Volcanic Reality in Papua New Guinea*. University of Washington Press, Seattle.
6. BOBROWSKY, P. & RICKMAN, H. (eds) 2007. *Comet/ Asteroid Impacts and Human Society*. SpringerVerlag, London



7. KIRK, G. S. 1974. The Nature of Greek Myths. Penguin, London.
8. KLUG, C., CASHMAN, K. V. & BACAN, C. R. 2002. Structure and physical characteristics of pumice from the climactic eruption of Mount Mazama (Crater Lake), Oregon. Bulletin of Volcanology, 64, 486 – 501.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SINIF RAHBARINING PEDOGOGIK MAHORATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6554106>

Sayitkulova Shoira Ashurkulovna

Surxondaryo viloyati Termiz shahar 3-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda sinf rahbarining ish tartibi, pedagogik mahorati va o'quvchi bilan ishlash tartibi haqida yoritib berishga harakat qilindi.*

Kalit so'zlar: *Tarbiya, sinf, o'quvchi, ta'lim-tarbiya, metod*

So'nggi yillarda sinf rahbarining faoliyati turli shakl va metodlar bilan boyitildi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o'tkazishda o'quv yurti jamoat tashkilotlarining roli tobora oshirildi. Ushbu ishni tayyorlashdan maqsad o'quv yurtining sinf rahbariga hozirgi vaqtda mamlakatda uzluksiz ta'limning yagona tizimini yaratish borasidagi ish uslublarini har tomonlama keng joriy qilish va metodik yordam ko'rsatishdan iboratdir. Ideologik muassasalar sifatida o'quv yurti oldiga muhim tarbiyaviy vazifalar qo'yilgan, bu esa ayni vaqtda har bir sinf rahbarining asosiy vazifalarni xisoblanadi, shunday qilib. Alohida sinf birlashib o'quv yurtini tashkil etadilar. Alohida sinf jamoalari qo'lga kiritgan ta'lim va tarbiya borasidagi muvaffaqiyatlar butun o'quv yurti jamoasining muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining bundan keyingi rivojlanishi bevosita ta'lim-tarbiya natijasiga bog'liqligi barchaga ayon. Ta'lim-tarbiyani takomillashtirmay, ma'naviy boy barkamol insonni tarbiyalash mushkul. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilab berilgan ijtimoiy vazifalardan kelib chiqib yosh avlod ta'lim-tarbiyasini tashkil etishni kundalik hayotning o'zi talab qilmoqda.

Jamiyatda o'qituvchi, birinchidan, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ularga har tomonlama bilim berishdan iborat bo'lgan faxrli hamda ma'sul vazifalarni bajaradi. Yurtboshimiz ham ta'lim-tarbiyani dolzarb masala sifatida ko'tarmoqda.

Ya'ni, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy taffakurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat degan fikrlari yana bir bor boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga ma'suliyat yuklaydi va vazifalarni ado etish pedagogning alohida ijtimoiy roli va uning jamiyatdagi faxrli o'rnini belgilaydi. Jamiyatda o'qituvchi faoliyati yuksak baholanmoqda va uning obro'si yuksaltirilmoqda.

Sinf rahbarining muhim vazifalaridan biri-bu o'quvchining o'qishga bo'lgan havasi, e'tiqodi va bilim, qobilyatini rivojlantirish, kasb-hunarga bo'lgan layoqatini,



yosh va ruhiy xususiyatlar asosida rivojlantirish, har bir o'quvchining bo'lg'usi hayoti rejalarini amalga oshirish, o'quvchilarning salomatligini muhofaza qilishdan iborat. Faollarga ishonish, ularning sinf jamoasi orasida obro'sini ko'tarish, o'z vaqtida ularga tegishli yordam ko'rsatish sinf rahbarining bevosita asosiy vazifasidir.

Shuningdek, sinf rahbarining tashkilotchilik funksiyasi tarbiya jarayonida muhim vosita sanaladi. Chunki, tashkilotchilik tushunchasining o'zi keng ma'noga ega. Maxsus bir maqsadni ko'zlab u yoki bu ishni tadbiriy choralarni tashkil etish sinf rahbaridan katta malaka va maxsus mahoratni talab qiladi. Tashkilotchilik funksiyasi bir necha elementlarga bog'liqdir:

A. O'tgan ishlarni tashkil qilish, uning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi sabablarini belgilab olish.

B. Sinfda o'tkaziladigan barcha ishlar tarbiyaviy harakterga ega bo'lib, ma'lum maqsadni ko'zlab o'tkazilishi va sinf rahbari turli tarbiyaviy ishlarni o'tkazishda oldin shu ishning modelini tuza bilish lozim.

D. Sinf rahbari oldiga qo'yilgan maqsadga yetishish uchun o'z oldiga aniq vazifa qo'ya bilish lozim.

E. Sinf rahbari har bir tadbiriy choralarni amalga oshirishda o'qituvchi va o'quvchilarning qobiliyatlariga qarab, vazifalarni taqsimlash, ma'lum reja asosida tarbiyaviy tadbirlarning o'tazish o'rni, vaqti, soati, javobgar shaxslar va tizimligini aniqlash lozim.

F. Ma'lumki tarbiyaviy ish bajarishda bajaruvchi kishilarni to'g'ri taqsimlash, ishga boshqa o'qituvchilarni, ota-onalar, o'quvchilar, otalik tashkilotlari va ish obektini aniqlash lozim.

Tarbiyaning maqsadlari, vositalari va natijalari o'rtasida, shuningdek, tarbiyalanuvchi va tarbiyachi tafakkuri, motivlari o'rtasida g'oyat murakkab bog'liqlik bor. Kattalarning maqsadi, odatda, yoshlarning maqsadlari (hatto strategik maqsadlari) bor. O'quvchining rivojlanish mantiqi, uning tafakkuri, harakatlari bitta nuqtai nazarda, tarbiyachining mantiqi boshqa nuqtai nazarda turishi mumkin.

Bunday variantda hech qanday tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib bo'lmaydi.

Tarbiyaviy ishlarning sifat va samaradorligi, avvalo tarbiyachining g'oyaviy ishonchiga va siyosiy ongining darajasiga bog'liq.

Sinf rahbari o'zining g'oyaviy-siyosiy ongini oshiradi. Bu sinf rahbariga bolalarni onglilik ruhida tarbiyalashga, ular orasiga begona ideologiya va yomon xulqning kirib borishiga qarshi kurasha olish imkoniyatini bera oladi. Sinf rahbarining axloqiy obro'si g'oyat darajada yuqori bo'lishi ham bu o'rinda muhimdir. Sinf rahbari ana shundagina tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ma'naviy qiyofasi o'quvchilar ongining va xulqining shakllanishida katta ta'sir ko'rsatadi. Sinf rahbari uchun kasbiy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishning o'zi yetarli emas. O'z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi fuqarolik fazilatlari, intizomi va odamiyligi, axloqiy sifatleri bilan ham ta'sir o'tkazadi.



Tarbiyachilik texnikasi sinf rahbarining asosiy quolidir. Chunki tarbiyachilik talanti juda ko'p sifatlarni chuqur bilish, keng fikr doirasi, ishga jon dildan ko'ngil qo'yish bolalarga bo'lgan cheksiz muhabbat, muomalada nazokatlilik, qalb yoshligi, serzavq, temperament, aql va odoblilik namunasi, aloqada nazokat va sipolik, vazminlik va kamtarlik kabi fazilatlarining bo'lishini taqozo qiladi. Bunda yana tarbiyachilik texnikasi qo'shilsa ishda muvaffaqiyat ta'minlanishi tabiiydir.

Pedagogik faoliyatda vositalar, maqsadlar va natijalarning nisbatini doimo tashkil qilib borish zarur. Ular uzviy birlikni tashkil etadi, bir – biriga bog'liq bo'ladi va alohida tarzda amalga oshirilmaydi. Maqsadni amalga oshirish usuli – bo'lajak natijadir. Natija yangi vositalarni tanlash, yangi maqsadlarni qo'yish uchun amaliy asos hisoblanadi. Tajribada ma'lum darajada qo'llanilgan har qanday vosita natija beradi, hatto biror sababga ko'ra maqsad aniq ifodalanmagan bo'lsa ham natija bervermaydi.

Tajribada mavjud bo'lgan pedagogik vositalarning ikkitasini ko'rib chiqamiz.

Birinchisi: har qanday pedagogik vosita hamisha bir qator boshqa vositalar, usullar, shartlar bilan bog'liq bo'ladi, ular pedagogik jarayoning muayyan bosqichida ta'sir ko'rsatish natijasini belgilab beradi. Masalan rag'batlantirish bir xil jarayonlarni tezlashtirish va boshqarishga to'siqnlik qilish, turli salbiy va ijobiy hissiyotlarning turli – tuman ko'rinishlarini vujudga keltirishi mumkin.

Ikkinchi: ayrim vositalarni qo'llanish pedagogning ular ta'sirini, mumkin bo'lgan o'zgarishini anglash qobiliyatlariga butunlay bog'liq bo'ladi. jamoa muomala sharoitida vositalarni qo'llash minut sayin o'zgarib turadigan vaziyatni hisobga olish zarurligini taqozo qiladi.

Pedagoglarda biz albatta oliyjanoblik hissini tarbiyalashimiz shart. Oliyjanoblik qalbning o'ziga xos holatidir. Bu holat insonda sokinlik, hurmat, mehr, g'urur hislarining qo'shilishidan hosil bo'ladi.

Pedagogning o'quvchilarga bo'lgan munosabati mehr, hayrihohlikdan iborat bo'lishi kerak. Ma'lumki rivojlanish uchun yordam berish murakkab jarayon bo'lib, o'quvchilar oldiga qo'yib o'zi chetda qarab turishi va faqat shu talablar qanday bajarilayotganligini kuzatib borishi yetarli degan xulosaga kelgan pedagoglar katta xatoga yo'l qo'yadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahkamov M. «Bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqat madaniyatini shakllantirish» nomzodlik dissertatsiyasi. T., 2005.
2. Karimov I. A. “Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori”. T.: “O'zbekiston”. 1998 – yil.
3. Mavlonova R., B. Normurodova, N. Rahmonqulova, Tarbiyaviy ishlar metodikasi.- T.: "Tib-kitob", 2010.
4. Ochilov M. “Muallim – qalb me'mori” T.: “O'qituvchi” 2001

TA'LIM MUASSASASIDA SIFATLI O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH TALABLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6567328>

Tosheva Gulnora Sunnatovna

*Navoiy viloyati yuridik texnikumi
ta'lim sifatini nazorat qilishbo'limi mutaxasisi*

Аннотация: *ushbu maqolada yurtimizda ta'lim sifatini oshirish maqsadida o'quv jarayoniga tashkil etilish talab etiladigan shart-sharoitlar va ularning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan*

Калит со'злар: *pedagogik jarayon, ta'lim texnologiyalari, motivatsiya, moddiy-texnik baza, globallashuv, ta'lim, tarbiya, akseleratsiya.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация об условиях, необходимых для организации образовательного процесса в целях повышения качества образования в нашей стране и их значении.*

Ключевые слова: *педагогический процесс, образовательные технологии, мотивация, материально-техническая база, глобализация, образование, воспитание, акселерация.*

Yurtimizda mavjud ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda o'quvchi-yoshlarga sifatli ta'lim berish va kelajakda yetuk, mustaqil fikrli, ongi va dunyoqarashi keng insonlarni shakllantirish maqsadida ta'lim muassasalarining eng quyi qismi maktabgacha ta'lim tashkilotidan tortib, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimigacha sifatli ta'lim tashkil etishning bir qancha talablari mavjud:

- O'qituvchining bilim sifatini oshirishga qaratilgan faoliyati ;
- Bilim sifatini oshirish vositasi sifatida maktab o'quvchilarining tarbiyaviy ishini oqilona tashkil etish;
- Axborot va yangi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish;
- Zamonaviy o'qitish usullari va usullaridan foydalanish;
- Motivatsiyani shakllantirish;
- Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv;
- O'qituvchining yuqori professionallik darajasi;
- O'qish uchun qulay muhit yaratish;
- Moddiy -texnik bazani ta'minlash;
- O'qituvchining ishini rag'batlantirish;
- O'qituvchining mehnatini hurmat qilish maqsadida jamiyatda ish olib borish va hokazolar.



O'qituvchining o'z kasbiy sohasida bilim ko'nikma va malakasini muntazam oshirib borish nima uchun muhim? Globallashuv jarayonlari shiddatli kechayotgan bugungi kunda axborotlar tez eskirmoqda, o'quvchi yoshlarni aniq, ishonchli bilimlarga yo'naltira olish uchun avvalo pedagogning o'zi ulardan ildam qadam tashlamog'i zamon yangiliklari, o'zgarishlari va yangi bilim manbaalariga ega bo'lishi darkor. Shu sababdan har bir ta'lim muassasa pedagog –xodimlari muddatli malaka oshirish va qayta tayyorgarlik ko'rish uchun jalb etiladi. Bundan tashqari o'z mustaqil seminar –treninglarda amaliy darslarda o'qib o'rganib kelishni ongli ravishda o'z hayotida yo'lga qo'yishi lozim.

Bilim sifatini oshirish vositasi sifatida maktab o'quvchilarining tarbiyaviy ishini oqilona tashkil etish. Atoqli arbob Abdulla Avloniy bejizga- “ Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat... ” aytmagan, sifatli ta'lim a'lo darajadagi shart-sharoitlar yaratilishiga qaramasdan ilm ahli tarbiyasida oqsash bo'lsa, natija ko'rinmaydi. Tarbiya-pedagogika, ya'ni bola tarbiyasining fani demakdir. Bolaning salomat va saodati uchun yaxshi tarbiya, tanni pok tutmoq, yosh vaqtida maslakni tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o'rgatmoq tabiblardek kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilg'oni kabi tarbiyachi bolaning vujudidagi jahl markaziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berib katta qilmog'i lozimdir⁴

Ta'lim sifatini oshirish uchun axborot va yangi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish hamda o'quvchi yoshlarni turli axboriy hujumlarga qarshi mustahkam ong-madaniyatni o'rgatish lozim. Akseleratsiya jarayoni tezlashuvi natijasida bolalar ongi murakkab ma'lumotlarni tanqidiy, mantiqiy tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradigan ta'lim texnologiyalarni talab etmoqda. Buning uchun zamonaviy o'qitish usullari va uslubaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunga misol qilib noan'anaviy usulda darsni tashkil etish, eng zamonaviy pedagogik vositalardan foydalanish, kichik guruhlarda, sayr, ekskursiyalar tashkil etish, amaliyot bilan bog'lagan tarzda dars mashg'ulotlarini olib borish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjayev. “Sano-standart”nashriyoti.Toshkent-2017
2. Abdulla Avloniy.- “Turkiy Gulistin yohud axloq” ziyouz.com.dan

⁴ Abdulla Avloniy.- - Turkiy Gulistin yohud axloq asaridan



INSON ORGANIZMINING KO'P TERLASH SABABLARI, TERLASHNING OLDINI OLISH VA TIBBIYOTDA TERLASHNI DAVOLASH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6557114>

**Turayev Adhamjon Abdulfayiz o'g'li,
To'rayev Islom Ibragimovich,
Ergashev Hasan Baxrom o'g'li,
Yormatov Shukrullo Xolmurot o'g'li**

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali Davolash fakulteti talabalari

Annotatsiya: *Hozirgi zamon kasalliklarini avj olishida tashqi muhit omillari juda muhim rol o'ynaydi. Atrof-muhit harorati yuqori bo'lganda, ter ajralishining kuchayishi bu fiziologik holatdir. Aqarda butun tananing ko'p terlashi ko'pincha salomatlik bilan bog'liq muammolarning belgisi hisoblanadi. Ko'p terlash bilan birga kechadigan kasalliklar organizmdagi fiziologik jarayonlarning buzilganidan dalolat beradi.*

Kalit so'zlar: *Terlash, fiziologik, tashqi muhit, stress, harorat, gipergidroz.*

KIRISH

Kun isiy boshlashi bilan ba'zilar ko'p terlashdan aziyat chekadi. Terlash tananing ma'lum qismlarida ro'y bersa, gohida butun jismda kuzatiladi. Tananing ayrim a'zolari terlashi tabiiy holat deb qaralsa, butun jism terlashi ayrim kasalliklar belgisi hisoblanadi. Ayni hotat tibbiyotda gipergidroz deb nomlanib asosan balog'at va o'rta yoshdagi yoshdagi odamlar orasida ko'p uchraydi. Ko'plab kuzatuvlar natijasida terlash erkakkarga nisbatan ayollarda ko'p uchrashi aniqlangan. Ba'zan ter ajralib chiqishi odatdagidan o'n martagacha ortishi mumkin. Haddan tashqari ko'p terlash bu birlamchi terlash deb atalib, bu terlashdan asosan aholining 3 foizi aziyat chekadi. Ko'pincha bolalik va o'smirlik davrida o'tib ketishi mumkin, bu holatni kasallik deb atash noto'g'ri bu vaqtinchalik holat hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Terlash- bu tananing standard sovuq tizimi. Har bir inson terlaydi bu funktsiya tana termoregulyatsiyasi uchun zarurdir. Miya buning signallarini tanadan chiqib ketadigan 3 milliondan ortiq ter bezlariga yuboradi. U teridan bug'lanadi va shu bilan tana harorati pasayadi. Odamni terilashga olib keladigan ko'plab omillar mavjud ular orasida atrof muhit harorati, stress jismoniy faollik, dori-darmonlarni qabul qilishdan keyingi nojo'ya ta'sirlar, sovuqqonlik va boshqalar.

Ko'p terlash sabablarini aniqlash uchun bir necha mutaxassis shifokorlar ko'rigidan o'tish kerak, chunki ko'p terilashga sabab bo'layotgan kasallikni aniqlash lozim.



Tibbiyotda gipergidroz deb ataluvchi ko'p terlash, aslida bir qator kasalliklar sababli yuzaga kelishi mumkin:

- garmonal muvozanatning buzilishi;
- qattiq asabiylashish, stress, hayajon, xavotir;
- og'ir jismoniy mashqlar, mushaklar zo'riqishi;
- noto'g'ri teri parvarishi;
- noto'g'ri ovqatlanish (alkogol, yog'li va achchiq ovqatlar iste'mol qilish);
- yuqumli kasalliklar;
- endokrin kasalliklar, zararli shishlar;
- markaziy nerv sistemasining har qanday patologiyasi;
- qandli diabet;
- tomirlarning varikoz kengayishi;
- qalqonsimon bez kasalliklari gipergidroz sababchilari bo'lishi mumkin.

Kasalliklardan ma'lum bo'ladiki kasallikni davosi uchun endokrinolog, nevrolog, terapevt va dermatolog kabi mutahasislarning ko'rigidan o'tish va ularning tavsiyasi bilan boshqa mutaxassis shifokorlarga murojaat etish lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda ko'p terlashni oldini olish uchun quyida keltirilgan tavsiyalarga amal qilish lozim:

1. Antiperspirantdan foydalanish. Birjadan tashqari antiperspirantlar tarkibida alyuminiy asosli birikmalar mavjud bo'lib ular vaqtincha terni to'sib, ko'p terlashni yengishga yordam beradi.
2. Keng tabiiy matolardan foydalanish erkin havo aylanishiga yordam beradigan pasta, ipak va boshqalar.
3. Konstrastli dush qabul qilish. Hosil bo'lgan terni yo'q qilish maqsadida. Bundan tashqari, muntazam ravishda cho'milish teridagi bakteriyalarni nazorat qilishga yordam beradi.
4. Yetarlicha suv ichish. Bu tavsiyalarga amal qilgan holda organizmning ko'p terlashidan halos bo'lish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. „Endokrinologiya“. Tom 1 D.l. Shustov kitobi.
2. Zarifboy Ibodullayev „Nevrologiya“.
3. <https://dermounter.uz>
4. David Veyner, Karol Tuman va Jeyn Maksvel
5. „Hammabop tibbiyot qo'llanmasi“.
6. <https://uz.healthy-food-near-me.com/sweating/>
7. Williams Textbook of endocrinology E-book 2003.
8. The endocrine system at a glance. Ben Greenstein,
9. 2006.



O'SMIR YOSHDAGI BOLALARDA KECHADIGAN JARAYONLAR, O'SMIRLIK DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI, O'SMIRNING DAVRDAGI MUAMMOLARI VA SHAXS SIFATIDA SHAKILLANISHI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6557773>

**Turayev Adxam Abdulfayiz o'g'li,
Ibragimov Farxod Bozor o'gli,
Hakimaliyeva Muharrama Jamshedovna,
Xolmamatov Dilshod Amir o'g'li,
Turayev Islom Ibragimovich.**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Davolash ishi yo'nalishi talabalari.

Annotatsiya: *Bu ilmiy maqoladan maqsad o'smirlik davridagi jismoniy va psixik rivojlanishining umumiy xususiyatlari, jinsiy yetilish jarayoni, uning psixik rivojlanishiga ta'siri, o'smirlik davri inqirozi va uning psixik sabablari, o'smirlik davrida intellektual va shaxs rivojlanish xususiyatlari bo'yicha maqolani yangicha talqinda ochib berish. O'smirlik davrida o'z-o'ziga baho berish tizimining rivojlanish xususiyatlari, ular ong va dunyo qarashining shakllanishini tushuntirish orqali o'smir yoshlarni, o'z-o'zini anglashga, tahlil qilishga va tarbiyalashga o'rgatish.*

Kalit so'zlar: *psixologik, jinsiy balog'at, ruhiy, yetuklik, o'smir yoshlar, o'zgarishlar, akseleratsiya, individual, inqiroz.*

KIRISH

Inson umrining o'smirlik bosqichida asosan ikkita xarakterli jihati farqlanadi. Uning bittasi- kattalarga taqlid qilish, ikkinchisi-o'smirning oilada va maktabda e'tibordan chetda qolishi, shu ikki jihat katta yoshdagi odamlarning e'tiboridan tashqari, o'z oqimida, maqsadga muvofiq tarzda kechadigan bo'lsa, oqibatda tarbiyasi qiyin deb ataluvchi yoshlar paydo bo'lishiga olib keladi.

5-8- sinf o'quvchilari o'smir yoshdagi shaxs deb yuritiladi. Bu davr 2 ga ajratiladi.

- 11-12 yosh davri;
- 14-15 yosh davri;
- „O'tish davri”, „Inqiroz davri”, „Pubertat davri”, „Tarbiyasi qiyin davri”, „Murakkab davri” deb nomlanadi.
- Akseleratsiya ham katta ahamiyat kasb etadi.
- Psixologik, psixofiziologik va ijtimoiy omillarga bog'liq.

O'smirilar asta-sekin o'zini katta odam deb his qila boshlaydi, lekin ko'p odat va xususiyatlari bolalarcha bo'lib qoladi. Bu hissiyot kattalik hissi deb ataladi va



o'smirlikdagi asosiy psixologik yangilikdir. Bu his o'smirlarda o'ziga, atrof muhitga, odamlarga nisbatan yangi hissiy pozitsiyasi yuzaga keltiradi. U bolalar xulq-atvorini kattalar xulqi va qadriyatlariga qayta moslashtira boshlaydi. O'smir o'z xuquq doirasini kengaytiradi, kattalarni esa cheklashni xohlaydi.

O'smir yosh davridagi o'zgarishlar quyidagi nomlar bilan farqlanadi:

1. Tarbiyasi qiyin, xotirasi past, diqqatining ko'lami tor, beqaror, agressiv;
2. Deviant xulqli bolalar borliq, nizoli oilalarda shakillanadi;
3. Asotsiallik ko'chaga yo'nalgan bolalar;
4. Delikvent xulqli bola-oilasida mahkum qilgan shaxslar bilan munosabatlar

asosida yuzaga keladi;

5. Nuqsonli bolalar- jismoniy nuqsonlarga ega.

Anatomo-fiziologik xususiyatlari. Butun endokrin sistemasining, xususan gipofizning aktivlashishi tufayli o'smir organizmida sifat jihatidan o'zgarishlar yuz beradi. Bu holat qizlarda 11-13, o'g'il bolalarda 13-15 yoshda bo'lib, ikkilamchi jinsiy belgilar paydo bo'ladi, o'smirning tashqi ko'rinishi o'zgaradi, muskullar massasi va muskul kuchi o'sadi, bu holat jinsiy yetilishning oxriga borib jadallashadi. Ichki organlar xususan yurak, ba'zan yurak qon tomir sistemasida patologik o'zgarishlar yuz beradi. Tashqi olat, urug'don va urug' hujayralari, qin tuxumdon va tuxum hujayralariga bir qadar rivojlanishida jadalliklar yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'smirlar muammosiga e'tiborni kuchaytirib tarbiyasiga befarq bo'lmaslik kerak. O'smirlar muammosiga e'tiborni kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- 1) Fan va texnika rivojlanishi natijasida, madaniyat, san'at va adabiyot, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitning o'zgarayotganligi;
- 2) Ommaviy axborot ko'laminin g'engayishi tufayli o'smirlar ongliligi darajasining ko'tarilganligi;
- 3) O'g'il va qizlarning dunyo voqealaridan, tabiat va jamiyat, fan va texnika rivojlanishi natijasida ijtimoiy qonunlaridan, tarixdan yetarlicha xabardorligi;
- 4) Akseleratsiya (jismoniy va aqliy kamoloti jadallashagani);
- 5) O'smirlar bilan ishlashda g'oyaviy siyosiy, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik tarbiyasiga alohida yondashish zarurligi;
- 6) Oshkoralik, ijtimoiy adolat, demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur kirib borayotgani;
- 7) O'quvchilar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o'zini-o'zi boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgani.

Bularning barchasi yoshlarning keng imkoniyatlardan foydalanish yo'riqnomasi desak mubolag'a bo'lmaydi.

ASOSIY QISM: MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'smirlik davri-- Insonni bolalikdan yoshlikka o'tuvchi, o'z navbatida boshqa davrlardan o'zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib



turuvchi omildir. Shu bilan birgalikda o‘smirlik faoliyati natijasi haqida bir necha olimlar fikr bildirishgan, xususan:

Biogenetik yo‘nalish vakillari S. Call va Z. Freyd bu inqiroz biologik shartlanganligi tufayli muqarrardir deb hisoblaydi. Amerikalik antropologlar M. Mid va R. Benedikt o‘smirlik inqiroziy ijtimoiy munosabatlarning natijasi deb qarashadi.

Xarakter asentuatsiyasi- K. Leonhard tomonidan kiritilgan tushuncha bo‘lib, xarakter ba’zi sifatlarning yorqin ifodalanganligining namunasidir. Xarakter aksentuatsiyasini bilish o‘smirlarga individual yondashish, kasbga yo‘naltirish kabilarda zarurdir. O‘z-o‘zini baholash- shaxsning boshqalar bilan taqqoslash va refleksiya natijasida o‘z-o‘zini baholash murakkab va o‘zgaruvchan bo‘lib, shaxs strukturasi katta o‘rin tutadi.

Venalik psixolog Z. Freyd va uning shogirdlari o‘smirlik davrini baholashda insonga azaldan berigan qandaydir ilk mayl nishonasi sifatida vujudga keladigan o‘z mavqeyini belgilashga ongsiz intilishni eng muhim asos deb hisoblaydilar. Bu intilish go‘yoki hudbinlik, boshqa kishilarni mensimaslik, paydo bo‘lishga, atrof muhit bilan kelisha olmaslikka, hatto nizolarga olib kelar, ongsizlik ehtiyojlari mayllari shaxsning faolligini belgilar emish. Rus psixologlari Z. Freyd nazariyasini mutlaqo asossiz hisoblab, o‘smirda imkoniyat bilan talabchanlik o‘rtasidagi kelishmovchilik, o‘zini ko‘rsatishga moyillik va o‘z ichki dunyosiga qiziqishning namoyon bo‘lishi bilan xarakterlanishini asoslab berdilar. Amerikalik K. Kulon o‘smirlik davri haqidagi biogenetik nazariyani qattiq tanqid qilib, o‘smirlik davri ijtimoiy-axloqiy kategoriyadir, degnilgari suradi. Uning fikricha o‘smirlik davrida uchta asosiy ijtimoiy-axloqiy kategoriya mavjud bo‘lib, ular:

1. Emansipatsiya (kattalar ta'siridan qutilish);
2. Mustaqillikka erishish;
3. Hayotiy yo‘li va kasb- hunar tanlashda jiddiy munosabatda bo‘lish zarur ijtimoiy-axloqiy normalarni o‘zlashtirishdan iboratdir.

Bola yuqoridagi muammolarga e‘tibor bermas ekan, o‘smirlik davri qancha bo‘lishidan qat’iy nazar, u bolaligicha qolaveradi. O‘smir o‘zini nazorat qilmas ekan bu borada trio yo‘ldan adashishi muqarrar bo‘lib qoladi.

XULOSA

O‘smir yoshi dunyo qarash , e‘tiqod, prinsip, o‘zlikni anglash, baholash kabi shaxs xususiyatlari shakillanadigan davr hisoblanadi. O‘smir ilayotgan sari unda „Ideal Men“, „Axloqiy Men“, va „Haqiqiy Men“ singari shaxsga oid tizim, dunyoqarash, e‘tiqod va boshqalar shakillana boradi, undagi o‘zi to‘g‘risidagi tasavvurlar ancha aniq va barqaror bo‘lib qoladi. O‘smir o‘z faoliyatini muayyan prinsip va shaxsiy nuqtai- nazari asosida tashkil qila boshlaydi. O‘smir shaxsini tarkib toptirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. O‘smirlarning ko‘pchiligi qat’iyatlilik, kamtarlik, mag‘rurlik, samimiylik, dilkashlik kabi ma’naviy, axloqiy tushunchalarni to‘g‘ri anglaydilar. Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallash natijasida barqaror ilmiy qarash



tarkib topadi, shular zaminida axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda bir soʻz bilan aytganda oʻsmirlik katta hayotga qoʻyilgan birinchi qadam hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik texnologiya. T. 2004.
2. Yartsev D.V. Zamonaviy oʻsmirlarni ijtimoiylashtirishning xususiyatlari, 1999- yil.
3. Gipheneiv Yu. B. Bola bilan suhbat. Qanday?-3- tuzatilgan va toʻldirilgan- X drayveri :.Chero, 2002.
4. Jumanazarov Yo. Youth and pedagogical psychology. Methodical complex Namangan 2009. 72-80-153-160.b
5. Maklakov A.G. Obshaya psychology: uchebnik dlya vuzov SPb: Peter, 2008.-283p.



ОИЛАДА ЗЎРАВОНЛИК БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ БЎЙИЧА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИНИНГ ТАҲЛИЛИ

Комилжонов Шохрухмирзо Қодиржон ўғли

ИИВ Академияси 317-гуруҳ курсанти

Аннотация: Ушбу мақолада хорижий давлатлар, жумладан, АҚШ, Канада, Буюк Британия, Францияларнинг оилада зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича тажрибаси илмий таҳлил этилган.

Таянч тушунчалар: Оиладаги зўравонлик, мурожаатлар линияси, жисмоний зарар, руҳий зарар, декларация, полиция.

Дунёдаги барча давлатларнинг миллий қонунчилигида инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини таъминлаш, хусусан шахснинг ҳаёти, соғлиғи, шаъни ва кадр-қимматини турли тажовузлардан, шу жумладан оиладаги зўравонлик билан боғлиқ ижтимоий хавфли қилмишлардан ҳимоя қилиш бўйича жиноят қонунчилигида алоҳида бобларда нормалар мавжуд. Испания ЖКнинг 12-боби эса бевосита “Оилага қарши жиноятлар”га оид бўлган нормаларини ўз ичига олган [1; С.53-55].

Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексида инсоннинг ҳаёти, соғлиғи, шаъни, кадр-қиммати, жинсий эркинлиги ва дахлсизлигини ҳимоя қилишга қаратилган махсус олтита боб мавжуд бўлиб, оиладаги зўравонлик билан боғлиқ ҳолда содир этилган қилмишларга жинсий жавобгарликнинг муқаррарлиги қатъий белгилаб қўйилган. Шунингдек, амалдаги Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексида ҳам шундай қилмишлар учун жазо чоралари назарда тутилган.

Оиладаги зўравонликнинг олдини олиш бўйича кўпгина ривожланган давлатлар, хусусан АҚШ, Канада, Буюк Британия, Франция каби давлатларнинг тажрибалари ўзига хос жиҳатлари билан ажралиб туради. Ҳозирда дунёнинг 100дан ортиқ давлатларида оиладаги зўравонликнинг олдини олиш бўйича махсус қонунлар қабул қилинган бўлиб, улар доирасида оиладаги низоларни ҳал қилиш, ундан жабрланган шахсларга тиббий, руҳий, ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш бўйича махсус бошпаналар ҳамда унинг барвақт профилактикаси бўйича самарали фаолиятни ташкил этиш механизмлари яратилган.

АҚШда 1994 йилда “Аёлларга нисбатан зўравонликка қарши кураш ҳақида”ги [2] қонун (the Violence Against Women Act) аёлларга қарши зўравонлик ҳолатларини олдини олишга қаратилган. АҚШда 1999 йилда оиладаги зўравонлик жабрланувчилари учун мўлжалланган алоҳида турар жойлар очишни молиялаштириш 3 бараварга оширилган ҳамда оилада зўравонлик ишлатган шахсларни тарбиялашга қаратилган юзлаб дастурлар



ишлаб чиқилган. АҚШда адлия ҳамда соғлиқни сақлаш вазирлиги ўзаро ҳамкорликда оиладаги зўравонликка қарши қаратилган дастурларни ишлаб чиқиб, адлия вазирлиги таркибида “Аёлларга нисбатан содир этиладиган зўравонликларга қарши курашиш бўлими” ташкил этилган. Ушбу давлатда 1994 йилда қабул қилинган “Аёлларга нисбатан зўравонликка қарши кураш ҳақида”ги қонунга асосан “Мурожаатлар линияси” ташкил қилинган бўлиб, унинг фаолияти кечаю-кундуз мутахассис операторлар томонидан оиладаги зўравонликдан азият чекаётган ва ундан жабрланган шахсларга бепул ёрдам кўрсатиш мақсадида ташкил этилган. Зарур ҳолларда оператор кўнғирокни жабрланувчи яшаш ҳудудида жойлашган вақтинчалик яшаш марказларига улардан тиббий, ҳуқуқий ва психологик маслаҳатлар олишлари учун бепул улаб бериши мумкин.

Жабрланувчи шахслар миллий тармоқда ташкил этилган қуйидаги йўналишлардаги ишонч телефонларига кўнғироқ қилишлари мумкин:

- а) жинсий зўравонлик жабрланиш ҳавфи вужудга келганда;
- б) зўрлаш, номусга тегиш ҳолатлари ҳақида хабар бериш учун;
- в) болаларга нисбатан кўрсатилаётган шафқатсиз муносабатларга доир муаммолар бўйича;

г) зўравонликдан жабрланган шахсларга қандай хатти-ҳаракатларни амалга оширишлари бўйича [3].

Бугунги кунда АҚШда оилада зўрлик ишлатишнинг олдини олишга қаратилган чоралар натижасида оиладаги зўравонлик жиноятлари сони 21%га, ўз турмуш ўртоғи томонидан ўлдирилиш ҳолатлари эса 60%га камайган [4].

АҚШда оиладаги зўравонлик жабрланувчилари учун 1,5 минг марказлар, алоҳида уйлар ташкил қилинган бўлиб, ушбу марказларга оиладаги зўравонликдан жабрланган шахслар мурожаат этишади. Ушбу марказларга уйда оила аъзолари томонидан калтакланган, хўрланган, жабр-зулмга дучор бўлаётган аёллар, қариялар, вояга етмаганлар мурожаат қилади.

Статистик маълумотларга кўра, ҳар учтадан битта америкалик хотин-қизлар жинсий зўравонликка дучор бўлишган. Шунингдек, АҚШда 12 ёшдан 16 ёшгача бўлган қизларнинг 83% турли зўравонликларга дучор бўлишади. Канада давлати оиладаги зўравонликни бартараф этиш бўйича етакчи давлат сифатида эътироф этилган. Мазкур мамлакатнинг Жиноят кодексига 1994 йилда аёллар ва болаларни зўравонликдан ҳимоя қилишга қаратилган чоралар тизимини назарда тутадиган қўшимчалар киритилган. С-127 қонун лойиҳаси Жиноят кодексининг бир қисмига айланиб, унда номусга тегиш жиноятини “Жинсий ҳуқуқбузарликлар, ижтимоий ахлоқ ва жамоат тартибига қарши ҳуқуқбузарликлар” қисмидан олиб “Шахс ва унинг шаънига қарши ҳуқуқбузарликлар” қисмига ўтказиш назарда тутилган.

Канада давлатида аёлларга зўрлик ишлатишга қарши қаратилган ва тегишли тезкор чораларни кўриш бўйича Коалиция тузилган. Унга асосан,



Канадада 6 декабрь аёлларга нисбатан зўрлик ишлатишга қарши кураш куни деб эълон қилинган. Чунки, оиладаги зўравонликнинг ижтимоий хавфи бир ёки бир неча шахсга жисмоний ва руҳий зарар етказишда намоён бўлади [5; С.9].

Канада давлатида оиладаги зўравонликни олдини олиш бўйича қуйидаги тажрибалар мавжуд:

а) кризис марказлари ташкил этилиб, уларнинг сони эҳтиёждан келиб чиқиб кўпайтирилган;

б) соғлиқни сақлаш вазирлигида оиладаги зўравонлик ҳолатларини таҳлил қиладиган ва умумлаштирадиган марказ очилган;

в) оиладаги зўравонликнинг салбий жиҳатларини кўрсатувчи 50 дан ортиқ фильмлар тайёрланган ва намойиш қилинган;

г) “юзма-юз” деб номланган оиладаги зўравонлик ҳолатларини ёритиб боровчи ижтимоий нашр жорий қилинган.

Канадада ҳар бир зўрлик аломати алоҳида эътиборга олинishi ва ҳар томонлама чуқур кўриб чиқилишини таъминланиши белгиланган. Гап шундаки, оиладаги зўрликлардан жабрланган ёки шикоят қилган шахсларнинг оилавий турмуш шароити, аҳволи, оиладаги низоларнинг сабаб шароитлари ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар эътиборидан четда қолмаслиги учун қатъий назорат ўрнатилган. Ушбу вазифаларни федерал даражадаги органлар маҳаллий органлар билан, давлат органлари эса нодавлат органлари билан мазкур йўналишда ҳамкорликни олиб бориши йўлга қўйилган.

Буюк Британияда ҳар йили 85 минг одам жинсий зўравонликка дучор бўлади. Шундан, 73 минг нафари хотин-қизлар ва 12 минг нафари ўғил болаларни ташкил этади. Ҳар куни 230 та жинсий зўравонлик содир этилиб, 16 ёшдан юқори бўлган ҳар бешта хотин-қиздан биттаси турли хилдаги жинсий зўравонликка дучор бўлишган. Англия ва Уэльсда умумий жиноятлар тушиб бораётган бир пайтда айнан жинсий зўравонлик билан боғлиқ бўлган жиноятлар 29%га кўпайган [6].

Бундай ҳолатларни олдини олиш мақсадида, Буюк Британияда 2017 йил 22 февралда “Оиладаги зўравонлик: Британия кўзгусида” номли қонун қабул қилган. Мазкур қонун қабул қилинишидан олдин Британияда оиладаги зўравонлик масалалари таҳлил этилиб, зўравонликдан биринчи марта жабр кўрган кўпгина аёллар камдан-кам ҳолатларда полицияга бориб мурожаат қилишлари аниқланган. Шунинг учун ҳам, бутун дунёда оиладаги зўравонлик жиноятларининг латентлиги юқори ҳисобланади.

Айрим мамлакатларда оиладаги зўравонлик олдини олиш борасида ушбу масалалар бўйича иш олиб бориш учун полициячи аёллар ва фуқаролардан ташкил топган хизматчилар махсус тайинланган. Бундай полициячи аёллар ва махсус гуруҳлар аҳоли ўртасида зўравонлик масалалари юзасидан сўровлар ўтказиб боради. Мисол учун, Аргентина, Бразилия, Перуда аёллар ишловчи полиция участкалари ташкил этилган бўлиб, уларнинг вазифаси оилада



зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларнинг содир этилишини олдини олишдан иборат.

Мазкур давлатларда оиладаги зўравонликни олдини олиш бўйича қуйидаги амалиёт мавжуд:

- аҳоли ўртасида оиладаги зўравонлик юзасидан сўровлар ўтказиш ва уларни таҳлил қилиб бориш;

- оиладаги зўравонликдан жабрланганлар рўйхатлари тузилиб, улар билан психологлар мунтазам равишда ишларни ташкил этиш;

- зўравонликдан азият чекаётган ва зўравонликка дучор бўлаётган шахслар учун вақтинчалик бошпана-манзилгоҳлар фаолиятини ташкил этиш;

- оилада юзага келган муаммони ижобий ҳал этишга кўмаклашувчи ишонч телефонлари мавжуд [7; Б. 49].

Австралияда полицияга оилада содир этилган зўравонлик бўйича хабар тушгач мутахассисларни ва оиладаги зўравонликка қарши курашувчи махсус хизмат ходимларини чақиради. Хизмат доимий фаолият кўрсатадиган алоҳида мустақил орган ҳисобланади. Унинг мутахассислари полициячилар билан бирга воқеа юз берган жойга келади. Улар жабрланувчига ёрдам кўрсатади ҳамда оиладаги воқеаларнинг кейинги вазиятини кузатиб боради ва ахборот хизматларини кўрсатади. Бундай амалиёт полициянинг ҳуқуқбузарликка эътиборини қаратиш ва бошқа муаммоларни ечишга куч сарфламаслик имконини беради [8; Б. 274-281].

Биз хорижий давлатлар тажрибасини таҳлил этарканмиз кўпгина давлатларда “Оилада зўрлик ишлатилишининг олдини олиш тўғрисида”ги махсус қонунлар қабул қилинганини кўришимиз мумкин. Бундай қонунлар ривожланган давлатларнинг аксариятида узоқ йиллардан бери самарали амал қилиб, уларда оиладаги зўравонликни олдини олиш ва ундан жабрланган шахсларни ҳимоя қилиш тартиб-қоидалари ва механизмлари белгилаб берилган. Бундай қонун лойиҳасининг янада кенг концептуал асоси 1993 йил 20 декабрда БМТ Бош Ассамблеясининг 48/104-сонли резолюцияси билан қабул қилинган “Хотин-қизларга нисбатан зўрлик ишлатилишига барҳам бериш тўғрисида”ги БМТ Декларациясида мустаҳкамланган [9; С. 107-114].

Юқорида қайд этилган хорижий давлатларнинг қонунчилигини ўрганиш асосида Ўзбекистон Республикасида ҳам “Оиладаги зўравонликларни олдини олиш тўғрисида”ги қонунни қабул қилишни даврнинг ўзи тақозо этмоқда. Қолаверса, хорижий тажриба таҳлиллари асосида, ички ишлар органларига жабрланувчини ҳимоя қилишга қаратилган “Ҳимоя ордери”ни бериш ваколатини қонун билан мустаҳкамлаб қўйилиши мақсадга мувофиқдир. Негаки, оилавий низолар туфайли кўпгина аёллар шундан азият чекса-да айбдорнинг унга тан жароҳати етказиши ёки бошқа ҳуқуқий оқибатлар келиб чиқишидан қўрқиб, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга ёрдам сўраб мурожаат этмаслик каби ҳолатлар мавжуд. Агар, ички ишлар органлари



томонидан жабрланувчига химоя ордери берилиб, уларни зўравонликлардан химоя қилиш чоралари кўрилса, ушбу турдаги жинойтларнинг латентлиги анча камайиши мумкин.

Таъкидлаш керакки, кўпгина ривожланган давлатларда нотинч оилаларни яраштириш институтлари, яраштирув судлари мавжуд бўлиб, бу ўз номи билан “Оилавий медиация” деб юритилади. Масалан, Франция давлатида 1980 йилда оилавий медиация институти шаклланиб, бу институтда оилавий низолар ҳал этила бошланган. Медиацияда никоҳ ва ажралиш, мулкни бўлиш каби масалалар ҳал этилган. Бугунги кунда медиация институти дунёнинг кўпгина мамлакатларида, хусусан АҚШ, Германия, Буюк Британия, Австрия, Япония, Хитой, Гонконг, Корея Республикаси, Ҳиндистонда ташкил этилган бўлиб, ҳозирда самарали фаолият кўрсатмоқда.

Ўзбекистонда 2018 йил 3 июлда “медиация тўғрисида”ги қонуннинг қабул қилинганлиги ҳам бу борадаги илғор хорижий тажрибаларни амалиётга жорий этилаётганлигидан далолат беради. Бундан ташқари, никоҳдан ажратиш тўғрисидаги ишларни таҳлил қилиш асосида фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари қошида тузилган “яраштириш комиссиялари” фаолиятини ҳам юқори баҳолаш лозим. Чунки, ушбу комиссия аралашуви билан ҳар йили 20 мингдан ортиқ оилавий ажримларнинг олди олинмоқда. Бизнингча, яраштириш комиссиялари фаолиятини қонун билан тартибга солиш, яъни Ўзбекистон Республикасининг “Яраштирув комиссиялари фаолияти тўғрисида”ги қонунни қабул қилиш лозим. Мазкур қонун билан яраштириш комиссияларига низоли оилаларни яраштириш бўйича кенгроқ ваколатлар бериш, уларнинг жамиятдаги обрў ва нуфузини янада ошириш, комиссияга таъсирчан жазо чораларини қўллашга доир ваколатлар бериш ҳамда уларда кўриб чиқиладиган масалаларни ижобий ҳал қилиш бўйича механизмларни ишлаб чиқиш лозим.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Оила кодексининг “Никоҳдан суд тартибида ажратиш” деб номланган 40-моддасига қўшимча “Яраштириш комиссияси ишни кўриб чиқишда эр-хотинга ярашишлари учун олти ойдан бир йилгача муҳлат тайинлашга ҳақли” деган нормани киритиш мақсадга мувофиқдир. Чунки, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2013 йил 7 октябрдаги “Фуқаролар йиғинининг яраштириш комиссияси тўғрисида”ги 274-сонли **намунавий низомда** яраштириш комиссияси томонидан эр-хотин, қайнона ва келин, яқин қариндошлар, кўни-қўшнилар ўртасидаги низоларни бартараф этиш, бузилган муносабатларни тиклаш ва ҳал этиш юзасидан қарор қабул қилишда эр-хотинни ярашиб олишлари учун муайян муддат бериш ваколати кўрсатиб ўтилмаган. Шу боисдан, ишни кўриб чиқишда эр ва хотинга ярашиб олишлари учун олти ойдан бир йилгача муҳлат бериш ваколатини қонун билан мустаҳкамлаш мақсадга мувофиқдир.

Шу билан бирга, унинг фаолияти кечаю-кундуз мутахассис операторлар



томонидан оиладаги зўравонликдан азият чекаётган ва ундан жабрланган шахсларга бепул ёрдам кўрсатиш мақсадида “Мурожаатлар линияси” ташкил ташкил этиб, зарур ҳолларда оператор кўнғироқни жабрланувчи яшаш худудида жойлашган вақтинчалик яшаш марказларига улардан тиббий, ҳуқуқий ва психологик маслаҳатлар олишлари учун бепул улаб бериш амалиётини жорий этиш мақсадга мувофиқдир.

Таъкидлаш лозимки, оилавий ажримларнинг олдини олиш ва оилаларни сақлаб қолишда авваламбор профилактика инспекторлари, яраштириш комиссиялари ёки суд, балки, фуқаролик ҳолати далолатномаларини ёзиш бўлими ходимлари масъулиятини янада ошириш лозим. Бу эса, давлат ва жамиятнинг асосий бўғини ҳисобланган оилалар барбод бўлишининг олдини олишга, оилада зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикасини самарали таъминлашга хизмат қилади

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Уголовный кодекс Испании / под ред. с предисловием д.ю.н., проф. Н.Ф. Кузнецовой, д.ю.н. проф. Ф.М. Решетникова. – М., 1998. – С. 53-55.
2. (VAWA). Violence Against Women Act.
3. https://travel.state.gov/content/dam/visas/IMBRA/IMBRA_uzb.pdf.
4. <http://constitution.uz/uz/pages/humanrights>.
5. Исаков А.А. Криминологическая характеристика и предупреждение насильственных преступлений, совершаемых в семье: автореф. дисс. кан. юрид. наук. – М., 2004. – С. 9
6. <http://www.info.islom.uz/jamiyat/item/96-zhinsij-zoravonlik-avzh-olgan-mamlakatlar-10-taligi.html>.
7. Астанов И. Оиладаги зўравонликнинг сабаб ва шароитлари, профилактикаси ҳамда хорижий тажриба //Оилалардаги зўравонликларнинг сабаб ва шароитлари, профилактикаси ҳамда хорижий тажриба: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. –Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2017. –Б. 51.
8. Огай Д. Международно-правовые аспекты защиты прав детей // Болаларни ижтимоий ҳимоялаш: кураторлик функцияларини такомиллаштириш истиқболлари: Илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2007. – Б. 274-281.
9. Как создать кризисный центр для женщин. – М., 1995. – С. 107-114.



ИЗУЧЕНИЕ РОМАНА А.С.ПУШКИНА «ДУБРОВСКИЙ» В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Ережепова Р.Ж

*учительница русского языка и литературы общеобразовательной школы №12
г.Нукуса, Республика Каракалпакстан*

Аннотация: *В статье рассматриваются современные педагогические технологии в изучении художественных произведениях на примере романа А.С.Пушкина «Дубровский».*

Ключевые слова: *современные педагогические технологии, методы и приемы, путешествие*

Современное образование требует от педагогов подготовки конкурентоспособных выпускников, которые будут готовы решать различные жизненные проблемы. Именно для этого требуется применение на уроках интерактивных методов, что позволяют учащимся решать различные проблемы, которые создадут условия для совместной работы учащихся.

Для изучения романа А.С.Пушкина «Дубровский» предлагаем урок - путешествие, перед которыми ставятся следующие цели:

Образовательная: формировать у учащихся внимательное отношение к детали в художественном произведении, к её роли и идейно-образной структуре; проверить знание художественного произведения, степень овладения литературоведческим аппаратом;

Воспитательные: развитие системы ценностных отношений к русской литературе; воспитание бережного отношения к слову автора, ответственного отношения к собственному слову.

Развивающие: развивать мыслительно-речевую деятельность учащихся, умение обобщать, логически верно излагать свои мысли; продолжать работу по раскрытию творческих способностей; создавать условия для развития коммуникативных навыков.

В форме урока-путешествия предлагаем выполнить следующие задания:

Первая станция – «Пушкинская». (4 мин.)



• Итак, наше путешествие началось! И на 1 станции нас встречают знатоки романа «Дубровский». Послушаем их доклады.

• Из истории создания романа «Дубровский»

Роман не был завершён автором. А.С. Пушкин работал над ним с 21 октября 1832 по 6 февраля 1833 года. Незаконченный роман он не опубликовал. Уже после смерти писателя издатели выпустили роман в свет, дав название по фамилии главного героя – «Дубровский».



Вопрос учителя: В чем вы видите причины написания романа «Дубровский»?


Ответы учащихся: Пушкина интересовала историческая тема; - не переставала волновать антикрепостническая тема, судьба русского крестьянина; - автор романа тревожился за будущее своей Родины.

There is a need for drug discoveries from natural sources to result in a more diversified medicine portfolio for human use. Furthermore, natural products are more likely to resemble endogenous metabolites and biosynthetic intermediates compared to synthetic compounds which can be recognized as substrate by active transporters. Despite the changes in discovery strategies and most notably the emergence of medicines derived from molecular biology, there remains a need to develop natural product-based medicines which has shown great success as a strategy. Alkaloids play an essential role in both human medicine and in an organism's natural defence. Alkaloids make up approximately 20% of the known secondary metabolites found in plants. In plants, alkaloids protect plants from predators and regulate their growth. Therapeutically, alkaloids are particularly well known as anaesthetics, cardioprotective, and anti-inflammatory agents. Well-known alkaloids used in clinical settings include morphine, strychnine, quinine, ephedrine, and nicotine. Recently, there is a resurgence of interest in bioactive natural products, driven both by a very proactive development in the field of traditional medicines (ethnopharmacology) as well as their potential in drug discovery. As of 25 October 2020, 27,683 alkaloids were included in the Dictionary of Natural Products (DNP) with 990 hits of newly reported or reinvestigated alkaloids from nature between 2014 to 2020.

In recent years, scientists have been conducting research on the pharmacological advantages of caracolin alkaloid and its derivatives in order to create new and high-quality medicines. For example, the alkaloid caracolin and its derivatives have been studied for potential use in the treatment of Alzheimer's disease due to their cognitive abilities. In addition, their anti-inflammatory and antioxidant properties have potential therapeutic effects for a number of diseases and disorders, including cancer, Parkinson's disease, and stroke. Despite the promising results of preclinical studies, further research is needed to fully understand the potential clinical applications of caracolin alkaloid and its derivatives. There are also difficulties in the development of drugs based on these compounds, such as their low bioavailability and the possibility of toxic effects with the use of high doses.



Caracolone alkaloid and its derivatives have shown promising biological activity that may motivate the development of new pharmacological drugs. However, more research is needed to fully understand their therapeutic potential and overcome the problems associated with their use. Caracolin alkaloid and its derivatives have been found to have several potential pharmacological applications due to their cognitive enhancing, anti-inflammatory, neuroprotective, antioxidant and anticancer properties. These compounds have been extensively studied for their potential use in the development of new and more effective drugs. For example, studies have shown that the alkaloid caracolin and its derivatives may have beneficial effects in the treatment of Alzheimer's disease by improving cognitive function. In addition, their anti-inflammatory and antioxidant properties help in the treatment of a number of diseases such as Parkinson's disease and cancer.

Conclusion. However, the development of drugs based on caracolin alkaloid and its derivatives may cause problems such as low bioavailability and the risk of toxic effects at high doses. Therefore, further research is needed to better understand the potential clinical applications and to overcome the problems associated with their use. Caracolin alkaloid and its derivatives have great potential as pharmacological agents for various health conditions. However, more research is needed to fully explore their therapeutic effects and optimize their use in drug development.

REFERENCE:

1. Doak B.C., Over B., Giordanetto F., Kihlberg J. Oral druggable space beyond the rule of 5: Insights from drugs and clinical candidates. *Chem. Biol.* 2014;21:1115–1142. doi: 10.1016/j.chembiol.2014.08.013.
2. Lipinski C.A. Drug-like properties and the causes of poor solubility and poor permeability. *J. Pharmacol. Toxicol. Methods.* 2000;44:235–249. doi: 10.1016/S1056-8719(00)00107-6.
3. Hopkins A.L., Groom C.R., Alex A. Ligand efficiency: A useful metric for lead selection. *Drug Discov. Today.* 2004;9 doi: 10.1016/S1359-6446(04)03069-7.
4. Veber D.F., Johnson S.R., Cheng H.Y., Smith B.R., Ward K.W., Kopple K.D. Molecular properties that influence the oral bioavailability of drug candidates. *J. Med. Chem.* 2002;45:2615–2623. doi: 10.1021/jm020017n.
5. Hajar R. History of Medicine Timeline. *Heart Views.* 2015;16:43–45. doi: 10.4103/1995-705X.153008.
6. Heinrich M. *Comprehensive Natural Products II.* Elsevier; Amsterdam, The Netherlands: 2010. *Ethnopharmacology and Drug Discovery*; pp. 351–381.
7. Verpoorte R. *Encyclopedia of Analytical Science.* Elsevier; Amsterdam, The Netherlands: 2005. *ALKALOIDS*; pp. 56–61.



8. Mirzaolimov M. M., Abdullaev G. R., Abdullayev S. S. ROLE OF A CALORIE-RESTRICTED DIET IN PROLONGING THE LIFESPAN OF AN ORGANISM AND ITS MITOCHONDRIAL MECHANISMS //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 10. – С. 106-112.

9. Soliev N., Mirzaolimov M. ACTION OF CALCIUM ON THE CONTENT OF PHOSPHOTYDYLCHOLIN, PHOSPHATYL ETHANOLAMINE AND THEIR LYSOFORMS IN THE RAT LIVER MITOCHONDRIA //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 3. – С. 69-71.

10. Mirzaolimov M. M. et al. THE METHOD OF SEPARATION OF MITOCHONDRIAS AND DETERMINATION OF PHYSIOLOGICAL AND BIOCHEMICAL CHANGES IN ORGANISMS IN ONTOGENESIS //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Т. 2. – №. 3. – С. 175-178.

11. Бохонова Н. С., Мирзаолимов М. М. ВЛИЯНИЕ КАЛОРИЙНО-ОГРАНИЧЕННОЙ ДИЕТЫ НА ПРОДОЛЖИТЕЛЬНОСТЬ ЖИЗНИ ЖИВОТНЫХ //TA'LIM VA RIVOJLANISH TANLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 139-142.

12. Анваров Ф. Р., Мирзаолимов М. М. ГЕРИАТРИЯ (ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПОНЯТИЙ; ЗАДАЧИ, СТОЯЩИЕ ПЕРЕД ЭТИМ НАУКАМ; РАЗДЕЛЫ И ДОСТИЖЕНИЯ) //TA'LIM VA RIVOJLANISH TANLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 326-332.

13. Мирзаолимов М. М. и др. ГЕРИАТРИЯ (ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПОНЯТИЙ; ЗАДАЧИ, СТОЯЩИЕ ПЕРЕД ЭТИМ НАУКАМ; РАЗДЕЛЫ И ДОСТИЖЕНИЯ) //TA'LIM VA RIVOJLANISH TANLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 143-149.

14. Таджибаева Г. И., Мирзаолимов М. М. КАЛАМУШЛАРДА СУРУНКАЛИ ЭМОЦИОНАЛ СТРЕСС МОДЕЛИНИ ЯРАТИШ ВА ОРГАНИЗМДАГИ БИОКИМЁВИЙ ЎЗГАРИШЛАРНИ АНИҚЛАШ //BARQARORLIK VA YETAKSHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 166-170.

15. Mirzavaliyevich M. M., Adashaliyevich N. Q. Soy Protein, Isoflavones, and Cardiovascular Health //International Journal of Scientific Trends. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 10-18.

16. Мирзаолимов М. М. и др. ГЕРИАТРИЯ (ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПОНЯТИЙ; ЗАДАЧИ, СТОЯЩИЕ ПЕРЕД ЭТИМ НАУКАМ; РАЗДЕЛЫ И ДОСТИЖЕНИЯ) //TA'LIM VA RIVOJLANISH TANLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 143-149.

17. Мирзаолимов М. М. и др. КИСЛОРОД ВА АЗОТ ФАОЛ ШАКЛЛАРИ СИНТЕЗИ //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 7. – №. 1. – С. 394-400.



VAQT KONSEPTINING AYRIM JIHATLARI TAHLILI

Shorasulova Arofat Ibroxim qizi

ÒzMU òqituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi vaqt tushunchasiga doir turli qarashlar, lingvofalsafiy yondashuvlar hamda lingvomadaniy xususiyatlar analiz qilingan. Shuningdek vaqt konsepti doirasida shakllangan freymlar o'zaro komparativ tahlil qilingan

Kalit so'zlar: Ontogenetik, entropik, konseptosfera, konvensial, konseptual, konseptual kontrast, freym, konseptual freym, kognitiv freym, ideallashgan kognitiv model, primitivlar, vaqt kechimi, nutq momenti, etnosemantik.

KIRISH

Olamda sodir etilayotgan o'zgarishlarni "vaqt" tushunchasi belgilaydi. Voqea-hodislalar fizik olam xususidagi inson tajribalari nuqtayi nazaridan yuzaga kelgan konseptual kontrast sifatida baholanadi. Til esa mazkur konvensial konseptuallashuvga asoslanilgan holda ma'lum konseptual freymlar shaklida ifodalaydi. Konseptual freymlar esa ma'lum leksik predikatlarda o'z aksini topadi. Vaqt borasidagi bilimlar inson tajribalari asosida shakllangan tushuncha bo'lib, kognitiv lingvistika doirasida vaqt konsepti har tomonlama tahlilga uchraydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Vaqt tushunchasining konseptuallashuvi har bir tilda mavjud bo'lgan leksik, stilistik, paremiologik, grammatik va shu kabi lisoniy ifoda vositalari, temporallikni ifoda etuvchi til vositalari bilan bir qatorda lingvomadaniy birliklarda o'z ifodasini topadi. Jorj Lakof⁵ va Mark Jonsonlar vaqt konsepti doirasida shakllanadigan kognitiv freymnlarni tuzish barobarida ingliz tilidagi a week (bir hafta) "ideallashgan kognitiv model" ("idealized cognitive model") sifatida talqin etishadi. Gers esa Boliy saka kalendari va Georgiy kalendarini qarama-qarshi quyish orqali vaqtni ommaviylashgan refrensiya freymi deb ataydi⁶. Boliy kalendari Indoneziyada ommalashgan bo'lib, hafta, oy osmondagi oyni chiqishi bilan o'lchanadi. Boliy saka kalendarida oyning yer o'qi bo'ylab aylanishiga asoslanadi va har to'qqiz haftada ikki kun bir sutka sifatida qabul qilinadi. Biz vaqt o'lchami sifatida baholaydigan sutka, hafta va yil ideallashgan vaqt modeli sifatida talqin etish mumkin. Jumladan mazkur uch modeldan kichigi sutka sanaladi. Sutka tugallangan doira sifatida kichik tugun bo'lsa, hafta keyingi kattaroq bo'lgan bir butun ideallashgan freymdir. Hafta ketmaktlikda keladigan yetti qismdan iborat linar kechimdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

⁵ Lakoff, G. (1987). Cognitive models and prototype theory. In U. Neisser (Ed.), Emory symposia in cognition, 1. Concepts and conceptual development: Ecological and intellectual factors in categorization p. 68 Cambridge University Press

⁶ Geertz Clifford - The interpretation of cultures New York 1973: 392



Tafakkurimizda yoz, kuz, qish, bahor kabi vaqt bilan bog‘liq tushunchalar mavjud bo‘lib, ular ma‘lum davrlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, vaqt konseptasferasini tashkil etadigan davrlarga tun, kun, qisqa davriy kechinmalar lahza, on, soniya kabi tushunchalarda o‘z ifodasini topadi. Davrlar inson tafakkurida umr kechimi bilan bog‘liq tarzda shakllanishi esa bolalik, yoshlik, o‘spirinlik, o‘smirlik, yigitlik, qarilik va shu kabi ideallashtirilgan freymlarda o‘z ifodasini topadi. Mazkur tushunchalar, o‘z navbatida, milliy madaniy xususiyatga ega sanaladi va turli madaniyatlarda konseptual nuqtayi nazardan turlicha shakllangan. Misol uchun ingliz asarlarida vaqtning berilishini tahlil qiladigan bo‘lsak, unda tabiatning kuz faslidagi ko‘rinishini juda chiroyli tasvir etganini ko‘rishimiz mumkin. The Copper Beech Naiads were the most beautiful creatures any of them had ever seen. They were exquisite, rather fearless-looking creatures with manes of flowing red gold hair and skin the colour of an autumn sunset, long narrow eyes and slender, graceful arms and feet. As Snizort and the Court sat, barely moving, the Trees seemed to become aware of the watchers and, one by one, ceased to move and turned to regard them. (source: G1L);⁷ Xuddi shu kabi vaqt konseptasferasini tashkil etadigan davrlarga mos bo‘lgan iboralarini o‘zbek yozuvchisi Tog‘ay Murodning asarlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Xuftonda ayollar davra qurib gulxan yoqdi (Tog‘ay Murod, 8); Bo‘riqul, chang‘oroqni yop-e, o‘ftob tushib qoldi! (Tog‘ay Murod, 21); -Bo‘ri, men gaplaringni oqizmaytomizmay aytdim. Bo‘ri oshnamga sensiz kunduz ham qorong‘i, dedim (Tog‘ay Murod, 25); Bo‘ri bilan Nasim kechasi uyqulari kelguncha bir-birini qitiqlab o‘ynadi (Tog‘ay Murod, 21);⁸ Har bir madaniyatda vaqtning konseptuallasuvi liturgik tartibga ega. Liturgik tartib davrlarni bir-biridan farqlaydigan yoki ma‘no va mazmun nuqtayi nazaridan kogerent davrga birlashadigan hodisa sanaladi. Mazkur davrlar milliy madaniy xususiyat kasb etadi. Misol uchun ingliz tilida shildhood, teenager, youth, manhood, womanhood va old age kabi davrlarga bo‘linsa, o‘zbek lingvomadaniyatida bolalik, yoshlik, o‘smirlik, o‘spirinlik, qarilik lisoniy ifoda vositalariga ega. Rayonim Nurota tog‘lar orasi, Otim Ergash Jumanbulbul bolasi. Qaridimmi desam ko‘nglim qolasi, Tobora oshadi yoshdan havasi...⁹ Ko‘rinib turibdiki, ingliz lingvomadaniyatida o‘rta yosh manhood, womanhood alohida gender tushunchalarida davr sifatida qaraladi. O‘zbek lingvomadaniyatida ushbu davr alohida davr sifatida qalamaydi. O‘zbek tilidagi erkaklik yoki ayollik tushunchalaridagi -lik qo‘shimchasi bolalik yoki qarilik tushunchalaridagi -lik qo‘shimchasiga mos kelmaydi, balki erkak yoki ayolga nisbat beruvchi sifatiy xususiyat sanaladi. Shuningdek, har bir liturgik davr ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatlarida o‘ziga xos konseptual va lingvomadaniy asosga ega. Shu bilan birga mazkur tushunchalar gender ifodasi nuqtayi nazaridan ham farqlanadi. Bunga ingliz tilidagi manhood, womanhood tushunchalari misol bo‘la oladi. Vaqt

⁷ «Rebel angel. Wood, Bridget. London: Headline Book Pub. plc, 1993, pp. 162-252. 2543 s-units.»

⁸ Тоғай Мурод «Юлдузлар мангу ёнади» 1980 йил Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёт

⁹ Эргаш Жуманбулбул ўғли 1936 йил Тошкентда ўтказилган анжуманда таништирув чоғида айтилган мисра



konseptining qiyosiy tahlili ahamiyati lingvistikadan tashqari psixologiya, sotsiolingvistika, biologiya kabi sohalarda tan olingan. Vaqtning sotsiologiyadagi ahamiyatini britaniyalik olim Barbara Adams tahlil qilar ekan, vaqt aniq ijtimoiy nazariyani yurguzuvchi asosiy vositadir degan mulohaza yuritadi.¹⁰

XULOSA VA MUNOZARA

Mazkur semantik tarkib ingliz va o'zbek tillari qiyosidagi o'xshashliklar asosida tuzib chiqildi. Albatta, bu kabi semantik tarkib jahonning ko'plab tillarida uchraydi va shuning uchun ham konseptning universal birliklari sifatida qayd etishimiz mumkin. Umuman, falsafiy nuqtayi nazardan "VAQT" atamasi bizni o'rab turgan olam to'g'risidagi tasavvurlarimiz asosida shakllangan hamda makon bilan uzviy aloqador bo'lgan moddiy tushuncha sifatida tahlil qilinadi. Ingliz tilidagi "time" atamasi qadimgi german tilidagi "timon" so'zidan o'zlashgan va qadimgi ingliz tilida "tima" tarzida fe'l bilan ifodalangan bo'lib, "cho'zmoq", "o'tkazmoq" ma'nosini anglatgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Lakoff, G. (1987). Cognitive models and prototype theory. In U. Neisser (Ed.), *Emory symposia in cognition*, 1. Concepts and conceptual development: Ecological and intellectual factors in categorization p. 68 Cambridge University Press
2. Geertz Clifford - *The interpretation of cultures* New York 1973: 392
3. «Rebel angel. Wood, Bridget. London: Headline Book Pub. plc, 1993, pp. 162-252. 2543 s-units.»
4. Tog'ay Murod «Yulduzlar mangu yonadi» 1980 yil G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyot
5. Ergash Jumanbulbul o'g'li 1936 yil Toshkentda o'tkazilgan anjumanda tanishtiruv chog'ida aytilgan misra
6. Barbara Adam "Time and Social Theory" Blackwell publishers, Oxford 1991:
7. Jackendoff R. *Semantics and Cognition*. Cambridge (Mass.), –Berlin: Mouton de Gruyter. 1993. – 16s.
8. Рахматов, З. Н., & Рашидов, Д. Н. (2023). Пути совершенствования механизма разработки маркетинговой стратегии ао «Ўзтемирйўлйўловчи». *Innovative achievements in science 2022*, 2(17), 55-60.
9. Schiffer S, Steele S (1988) *Cognition and Representation*. Westview Press, Boulder

¹⁰ Barbara Adam "Time and Social Theory" Blackwell publishers, Oxford 1991:



ISLOM DINI VA UNING ASOSLARI

Samatov Xurshid O'lmasjonovich

TATU Samarqand filiali dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Nematov Nazar Farrux o'g'li

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filiali "Kompyuter injinering"
"yo'nalishi KI 22-01 –guruh talabasi.*

Safarboyev Doston Zarif o'g'li

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filiali "Kompyuter injinering"
"yo'nalishi KI 22-01 –guruh talabasi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Islom dinining vujudga kelishi, ta'limotlari, payg'ambar Muhammad s.a.v, uning haq dinligi va tarixi haqida so'z yuritiladi.*

Kirish so'zlar: *Islom dini, Muhammad sallolohu alayhi vasallam, hadis, Qur'on, farz, sunnat.*

KIRISH

Islom dini dunyoda keng tarqalgan monoteistik dinlardan biridir. Afrika qit'asidagi Marokash, Jazoir, Tunis, Liviya, Misr, Somali mamlakatlarining xalqlari, Habashiston, g'arbiy Sudanda yashovchilarning bir qismi, Osiyo qit'asidagi Arabiston yarim oroli, Iordaniya, Suriya, Iroq, Eron, Turkiya, Afg'oniston, Pokiston, Malayziya, Indoneziya xalqlari, Livan, Hindiston, Xitoy, hamda Fillipin aholisining bir qismi, Evropa qismida esa Bolqon yarim orolida yashaydigan xalqlarning bir qismi islom diniga e'tiqod qiladi.

Aholisining ko'pchiligi mutloq musulmonlardan iborat bo'lgan 39 mamlakat, hatto aholisining yarmini musulmonlar tashkil etadigan ba'zilar ham (Misr, Malayziya 49) o'zlarini musulmon mamlakatlari deb ataydilar.

Ularning ba'zilarida (Mavritaniya Eron, Pokiston, Kanar orollari) mamlakatlarining nomiga islom so'zi qo'shib aytiladi. Rasmiy statistika bo'yicha, bir necha mamlakatlarda aholining deyarli barchasi musulmonlardan iborat. 28 mamlakatda islom rasman davlat dini sifatida tan olingan. Jahonda 1,77 milliard (2017y.) kishi Islomga e'tiqod qiladi. Musulmonlarning uchdan ikki qismining ko'prog'i Osiyoda yashaydi va bu qit'a aholisining 20 foizdan ortiqrog'ini tashkil etadi. Qariyb 30 foiz musulmonlar Afrikaga to'g'ri keladi (qit'a aholisining deyarli yarmi). Dunyoda musulmon jamoalari mavjud bo'lgan 120 dan ortiq mamlakatdan 35 tasida aholining aksariyat qismi musulmonlardan iborat. Shimoliy Afrika, G'arbiy Osiyoning barcha mamlakatlari (Kipr, Livan, Isroil mustasno), Senegal, Gambia, Niger, Somali, Afg'oniston, Pokiston, Bangladesh, Indoneziya va boshqalar)da aholining 80 foizdan ortig'i musulmonlardir. Bir qancha mamlakatlarda musulmonlar aholining 80 foizigachani tashkil qiladi (Gvineya, Mali, Livan, CHad, Sudan). Malayziya va Nigeriyada qariyb yarmi, ba'zi bir mamlakatlarda musulmonlar



ozchilik bo'lsa ham, ta'sir doirasi kuchli (Gvineya-Bisau, Kamerun, Burkina Faso, S'era-Leone va boshqalar). Musulmonlar soni jihatidan eng yirik davlatlar – Indoneziya, Hindiston, Pokiston va Bangladesh. Musulmonlarning anchasi Xitoy, Tailand, Efiopiya, Tanzaniya, Kiprda, Evropaning ayrim mamlakatlari (Albaniya, Buyuk Britaniya, Gemaniya, Frantsiya va boshqalar). Shimoliy va Janubiy Amerika qit'asi mamlakatlari (AQSH, Kanada, Afg'oniston, Braziliya, Gayana, Surinam, Trinidad va Tobago)da, Avstraliyada, Fidji orollarida yashaydi. Islomning paydo bo'lishi VI asr oxiri va VII asr boshlarida Arabiston yarimorolida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy ahvol bilan bevosita bog'liqdir. Bu ijtimoiy-iqtisodiy ahvol: Birinchidan arablarning katta-kichik qabila va urug'larga bo'linib ketishi ular o'rtasidagi doimiy o'zaro urushlarning asosiy omiliga aylanganligi tufayli faqatgina vayronalik keltirmoqda edi.

Ikkinchidan, qo'shni davlatlar – Vizantiya imperiyasi, Sosoniy Eroni va Habashiston Arabiston yarimorolida siyosiy birlikning yo'qligidan foydalanib doimiy ravishda bu o'lkaga hujum qilardilar.

ISLOM FALSAFASINING SHAKLLANISHI

Islom dinining ilk shakllanish davrida aqida, ibodat, din va huquq, diniy jamoa va davlat, ruhoniyy va dunyoviy hokimiyat masalalarida bahslar ko'tarilmagan. Muhammad (s.a.v.) barcha hukmlarni vahiy orqali olar va ularni so'zsiz bajarish barcha musulmonlar uchun vojib sanalar edi. Musulmonlar Payg'ambarning shaxsi, hayot tarzi, axloq-odobiga fidoyilarcha taqlid qilishar, ayniqsa, qalb osudaligi va xotijamligiga, ruhiytaskin topishga intilgan odamlar uchun u ibrat namunasi edi. Uning o'g'itlari mantiqiy-aqliy muhokama va falsafiy mushohadalarga o'rin qoldirmas, undan taralayotgan iymon nuri ishonch va e'tiqodni mustahkamlar edi. Turgan gapki, vahiy bor ekan, haqiqatning boshqa manbasi haqida o'ylashning zarurati yo'q edi. Muhimi vahiy orqali nozil bo'lgan so'zlarni yodda saqlash, tushunish va ularni hayotga tatbiq etish edi. Bu esa Qur'onni yod bilish va uning hukmlarini bajarish, Payg'ambar sunnati va u belgilab bergan tafakkur tarzidan og'ishmaslikni taqozo etardi. Payg'ambarning o'limi musulmonlar jamiyati oldiga ikki muhim muammoni qo'ydi. Biri, ilohiy vahiyning to'xtashi e'tiqod bilan bog'liq masalalarni yechishda mantiqqa suyanishni talab qilishi bo'lsa, ikkinchisi, payg'ambar sunnatini davom ettirishga burchli bo'lgan din arboblarning din rivojini ta'minlashdagi mahorat va qobiliyati, shuningdek, xalifalarning payg'ambar fazilatlarini va xislatlarini, uning ummatni boshqarishdagi odilligini qay darajada o'zlashtirganliklari shubha ostiga olinib boshlandi. Musulmonlar o'rtasida dastlabki kelishmovchiliklarga, aslida, ana shu keyingi muammo sabab bo'ldi. Xalifalik davom etgan 30 yil davomida ixtiloflar asta-sekin keskinlasha bordi. Islom jamiyatida birinchi fuqarolik urushi to'rtinchi xalifa saylanishi arafasida yuz berdi. 656-yilda xalifa Usmon o'ldirilgach, mojarolar yanada avj oldi. Musulmonlar orasidagi bo'linish sunniylar, shialar, xorijiyalar kabi oqimlarni tarix sahnasiga chiqardi. Ko'rinib turganidek, oqimlar o'rtasidagi ixtiloflarning, turli siyosiy va ijtimoiy



ko'tarilishlar negizini, aslida, hokimiyat uchun kurash tashkil etgan. Mojaro va bahslar, asosansaylanadiganxalifalarning ushbu vazifaga munosibligi, ularning oldinga surayotgan siyosatlarini atrofida ko'tarilgan. Har uchala o'qim o'ziddaolarida Qur'oni karim va Payg'ambar hadislaridan kelib chiqib fikr yuritar edilar. Bahslar, dastlab, faqat harbiylar orasida chiqqan bo'lsa, endi ulam olar orasida ham avj oldi. Ixtiloflar siyosiy masalalardan diniy masalalarga ham o'tdi.

Turli guruhlariga birikkan ulamolar va ularning tarafdorlari orasida murosasiz bahslar kuchaydi. Shu o'rinda o'zaro kelishmovchiliklar u yoki bu darajada siyosiy tizimdagi qonunchilik tangligini chuqurlashtirganini aytib o'tish kerak. Hukumat va xalq orasidagi ziddiyatni nazariy jihatdan ajrim qilish zarurati paydo bo'ldi. Bu esa fiqhni ishlab chiqishga sharoit yaratdi. Ulamolar jamoa orasida katta ta'sir kuchiga ega edilar. Islom VII asrda qaror topgan davrda fiqhiy-huquqiy normalar ibtidoiy ko'rinishda bo'lgan bo'lsa, keyingi asrda Qur'oni karim va hadislariga asoslanib, bir muncha

murakkab qonunlar ishlab chiqila boshlandi. Ulamolarning fatvolari shariat qoidalariga aylanib, aholining hayot tarzini belgilay boshladi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, zamon va davr o'ziga sharoit o'zgartirdi. Islom davlati yirik imperiyaga aylangach, Madinada asossolingan ilk islom davlatidagi kambag'al fuqarolar jamiyatida tabaqalashuv sodir boldi. Aholining boyigan tabaqasi hayotida dunyoviy turmush tarzi ustuvorlik qila boshladi. Qur'on matnlarini zohiriy talqin qilish kundalik turmush tarziga to'g'ri kelmay qoldi. Masalan, Qur'oni karimning "Tavba" surasi, 34-oyatida aytilgan, kim oltin-kumushni to'plasa va uni Xudo yo'rida sarf qilmasa, "alamli azoblar" olajagi haqidagi hukmni to'g'ridan-to'g'ri tushunish IX asr islom jamiyati hayotining umumiy tendensiyasiga to'g'ri kelmas va ko'p munozaralarni keltirib chiqarishi tabiiy edi. Yoki, deylik, olingan daromadning qirقدan birini to'lash haqidagi diniy hukmda tilla nazarda tutilganmi yoki kumush? Yoki har ikkalasidan ham shunchadan to'lash kerakmi? Bu hukm qimmatbaho toshlarga ham tegishlimi yoki yo'qmi, degan savollar paydo botdi. Shu yerda huquqiy tizimda mantiqiy yechimlarga ehtiyoj tug'ildi. Faqihlar ichidan xalifa va amirlarning homiyligi ostida kun kechiradigan va ularning manfaati yolida xizmat qilishni o'z vazifasi deb biluvchi guruh ajralib chiqqa boshladi.

Islom ta'limoti: Islom ta'limoti uning muqaddas kitobi – Qur'oni karimda bayon etilgan. Islom ta'limoticha, Qur'on Alloh tomonidan farishta Jabroil orqali Muhammad payg'ambarga vahiy (xudo tomonidan yuborilgan) qilingan.

Islom ta'limotining asoslari: iymon, islom va ehson

1. Iymon (e'tiqod, ichki ishonch) va uning shartlari 7 aqidaga asoslanadi (Imom A'zam yo'nalishi bo'yicha) ular:

1) Allohga (u yakka, barcha mavjudotlarni yaratgan, u nuqsonsiz) ishonish.

2) Farishtalarga (u yemaydi, ichmaydi, uxlamaydi: Jabroil, Mikoil, Isrofil, Azroil) ishonish.

3) Muqaddas kitoblarga (Tavrot, Zabur, Injil, Qur'oni karim) ishonish.



- 4) Paygambarlarga (25 ta, 2 xilga bolinadi: a) Rasullar; b) Nabiylar) ishonish
- 5) Oxirat kuniga (gorda Munkar va Nakir farishtalari soroq qiladi) ishonish.
- 6) Taqdir (ilohiyligi)ga ishonish.
- 7) Olgandan keyin tirilishga ishonishdir.
2. Islom talablarida ibodatga kiradigan 5 ta asosiy farz rukni mavjud:
 - 1) Kalima keltirish. Kalima 2 xil boladi:
 - 2) Namoz oqish (5 mahal).
 - 3) Roza tutish.
 - 4) Zakot berish.
 - 5) Haj qilish (imkoniyat bo'lsa).
1. “Ashhadu alla ilaha illallohu va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rasuluh”
2. La ilaha illalloh, Muhammadur Rasulluloh
– Bu musulmon ekanligiga o'ziga-o'zi guvohlik berish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. X.U.Samatov, H.H.Muhammadiyev, “Dinshunoslik” fanidan o'quv-uslubiy majmua, Samarqand-2022.
2. Sh.Sirojiddinov, Islom falsafasiga kirish: “Kalom ilmi”, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA” 2008.
4. I.Saifnazarov, T.Sultonov, L.Ilhomjonov, R.Xalimmetova, “Dinshunoslik” o'quv qo'llanma Toshkent -2019.



DINNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI VA DUNYO DINLARI

Samatov Xurshid O'lmasjonovich

TATU Samarqand filiali dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Jurayev Husan Mamasharip o'g'li

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filiali "Kompyuter injinering" yo'nalishi KI 22-01 –guruh talabasi.

Muttaharov Azam Hayot o'g'li

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filiali "Kompyuter injinering" yo'nalishi KI 22-01 –guruh talabasi

Annotatsiya: *Maqolada dinning yuzaga kelish tarixi, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va xalqlarni birlashtiruvchi vosita sifatidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Din –inson hayotining ajralmas bo'lagi va insonlar hayotini tartibga soluvchi hodisadir. Shuningdek, dunyo dinlari sifatida o'z o'rniga ega dinlar: islom dini, xristian dini, budda dini jahon xalqlarining hayotidagi o'rni ham beqiyosdir.*

Kalit so'zlari: *Din, diniy bag'rikenglik, animizm, totemizm, fetishizm, islom dini, xristian dini, budda dini, diplomatik aloqalar.*

Kirish

Din- hayotning axloqiy-ma'naviy, madaniy-ma'rifiy, tarixiy-iqtisodiy jihatlarini, odamlarning munosabatlarini tartibga solib turadi. Dunyoda hech bir xalq dinsiz, e'tiqodsiz va biror bir narsaga ishonchsiz yashay olmaydi. Din xalqlarning, insonlarning yashashdan maqsad va mazmunini anglatuvchi vositadir. Shuningdek shaxs tarbiyasida ham milliy va diniy qadriyatlarining o'rni beqiyosdir. Qolaversa din davlatlar orasida diplomatik aloqa yo'li hamdir.

Adabiyotlar tahlili va natija

Din insoniyat taraqqiyotiga qadimdan ta'sir o'tkazib kelmoqda va ko'p qirrali va teran hodisa sanaladi. Xalqlarning ma'naviy yuksalishida ham dinlarning o'rni beqiyosdir. Chunki insonlarning ma'naviy yuksalishida jahon, milliy va ibtidoiy dinlardagi insonparvarlik g'oyalari, diniy-axloqiy tamoyillari muhim ahamiyatga ega.¹¹ Diniy bag'rikenglik-tinchlik va barqarorlik garovi hisoblanadi. Bu turli madaniyatga mansub aholi vakillari o'zaro ahil va inoq yashab kelayotgan bizning vatanimiz O'zbekistonda hukm surmoqda. Biz buni har jabhada ko'rishimiz mumkin. Har bir xalqning dinlarga bo'lgan hurmati ularning hamjihatlikda yashashini mustahkamlamoqda. Diniy dunyoqarash dastlabki dinlarning vujudga kelishiga turtki bo'lgan. dunyoqarashning tarixiy turlaridan biri bo'lib, uning asosiy belgisi ilohiy, g'ayritabiiy kuchlarga ishonish va ularga sig'inish, butun olam, barcha mavjudot, insoniyat dunyosini xudo yaratganini va boshqarishini e'tirof etish, xudoga, ruhlarga e'tiqoddan iboratdir. Diniy dunyoqarash quldorlik tuzumidan boshlab rivojlantirib



borilgan. Dastlabki dinlar ijtimoiy jamiyat davrida yuzaga kelgan va turli tip, shakllarda rivojlangan, turli hodisalar negizida g'ayritabiiy kuchlar yashiringan deb o'ylashlari natijasida yuzaga kelgan. Chunki bu davrda inson tabiatni, atrofdagi olamni anglashga urungan.

Totemizim- insonlarni o'simliklarga va yovvoyi hayvonlarga qarindoshligi borligi haqidagi qarashlardan biridir. Bu ham turli urug'larda turlicha rivojlanib borgan.

Animizm-odamni o'rab turgan muhitda jonlar va ruhlarning mavjudligiga bo'lgan e'tiqod sanaladi va insonlarning o'sha davrdagi hayotida tashqi dunyo bilan aloqasida katta ahamiyat kasb etgan.

Fetishizm-Qadimgi odamlar u yoki bu buyumlar omad keltirishiga yoxud balo-qazolarni bartaraf etishiga bo'lgan e'tiqoddir. Bu qarashlarni qisman hozirgi hayotda ham uchratamiz.

Bulardan tashqari avlodlar ruhiga sig'inish, jodu va duoxonlik ham o'sha davrga xos holat sanalgan. Davrlarning rivojlanishi, inson ongining takomillashib borishi, aholining hayoti yaxshilanishi, davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning natijasida dunyoda 3 yirik din yuzaga keladi va hozirga qadar insoniyat taraqqiyotida ularni birlashtiruvchi omil bo'lib kelmoqda.

Islom dini- VII- asrda Arabiston yarimorolida paydo bo'lgan jahon dinlaridan biri. Islom dinida xalqning majburiyatlari va ular oldida turgan bir qator tarixiy vazifalar keltirib o'tilgan. Islom dini tartib-qoidlari muqaddas kitob "Qur'oni Karimda" yozib qoldirilgan. Islom dini qabilaviy xudolar va ma'budalarga sig'inish davrida yuzaga kelgan. Ammo bu dinda yakka xudo Allohgagina iymon keltirish aytib o'tilgan. Islom dinining yuzaga kelishidagi mashaqqatlar uning dunyo bo'ylab tarqalishida ham yuz berdi, hamda arablar bu ishning uddasidan chiqadilar. Hozirda manbalarga ko'ra 1,8 milliarddan ortiq kishi Islom diniga e'tiqod qiladi va dunyoning 125 mamlakatiga tarqalgan.

Buddizm dini- qadimgi jahon dinlaridan biridir. Miloddan avvvalgi VI-V-asrlarda Hindistonda paydo bo'lgan. Diniy e'tiqodlar bilan boy bo'lgan san'at shakllari rivojlanishi buddizmning paydo bo'lishi uchun sharoit yaratgan. Buddizm dinida o'simliklarga, hayvonlarga va atrofdagi jamiyki jonzodlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish belgilab berilgan. Buddha dini dunyoda aholi soni bo'yicha birinchi o'rinda turuvchi davlati Hindistonning davlat dinidir. Buddha dini orqali unga e'tiqod qiluvchi xalqlarning san'atini, yashash tarzini ko'rishimiz mumkin.

Xristian dini- Milodning I-asrida Rim imperiyasining sharqiy qismida yashovchi yahudiylar o'rtasida paydo bo'lgan. Jahonda 2,5 milliard kishi e'tiqod qiladi. Xristian dini shaxs manfaatidan ko'ra umumiy manfaatlarni afzalroq ko'rishni talab etishi, tenglik g'oyalari tufayli aholining turli qatlamlari orasida keng tarqalgan. Tarixda Xristian dinining paydo bo'lishi antik davr sivilizatsiyasining inqirozini boshlab bergan. Xristian dinining provaslavlik, protestantlik, katolik oqimlari mavjud va dunyoning turli burchaklariga tarqalgan.



Diplomatik aloqalarning natijasida “diniy bag’rikenglik” g’oyasining ilgari surilishi bir davlatda boshqa din vakillarining tich-totuv, erkin va an’analariga sodiq tarzda yashashiga imkon yaratmoqda. O’zbekiston Respublikasining 37 mln bo’lgan aholisi 130 dan ortiq millat va 16 ta diniy konfessiyaga mansubdir. Virtual olamdagi yod g’oyalardan saqlanish uchun davlatlar o’rtasida qilinayotgan o’zaro hamkorliklarning barchasi davlatlar aholisining xavfsizligi uchundir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda dunyoqarash sifatida yuzaga kelgan din jahon dinlari tarzida shakllangunga qadar bir necha asr va bir necha davrlarni boshdan kechirgan. Shuningdek xalqlar o’rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, yirik imperiyalarning paydo bo’lishi dinlarning davlat va elat doirasidan chiqib jahon dinlari sifatida vujudga kelishiga sabab bo’lgan. Chunki din qadimdan inson va jamiyat hayotining ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-axloqiy asosidir. Dinning va Diniy ongning asosida azaldan “yaxshilik va yomonlik”, “ezgulik va yovuzlik” kabi axloqiy tartiblar mavjud bo’lgan. Hozirgi kunda jahon miqyosida din ijtimoiy hayotning muhim omiliga aylangan. Dinga yondashishning falsafiy va ilmiy yo’nalishlari atrofda voqealarga tanqidiy yondashishni ifoda etmoqda. Jamiyatning hayotida muhim hisoblangan din uning ijtimoiy hayotiga ham ta’sit o’kazib tartibga solib kelmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T., O’zbekiston, 2016.
2. G.T.Tulemetova, N.X.Oblomurodov, O’.M.Hasanboyev. Dinshunoslik (darslik) - T., Iqtisod-Moliya, 2019
3. A.Abdusamedov, B.Jalilov, A.Tashanov. Dinlar falsafasi (o’quv qo’llanma) - T., Innovatsiya-Ziyo, 2020
4. A.V.Narbekov. Dinshunoslik asoslari (o’quv qo’llanma) - T., 2007
5. Q.O.Mahkamov. Dinshunoslik - Namangan, 2020
6. Internet materiallari, veb-saytlar, onlayn kutubxonalar



COURAGEOUS AND ROLE OF AMIR TEMUR IN OUR HISTORY

Qodirova Dilnoza Xoliq qizi

Student of Media and Communication faculty, UzSWLU

Abstract: *This scholarly article attempted to cover the activities of Sahibkiran Amir Temur as follows: Great politician and skillful commander based on historical sources. The most important military campaigns of Amir Temur. And this article also gives information about the culture of the state of Amir Temur.*

Key words: *Amir Temur, Amir Husain, "Battle of the Mud", Sahibkiran, Tokhtamysh, Bayezid Yildirim, army.*

Аннотация: *В данной научной статье предпринята попытка на основе исторических источников осветить деятельность Сахибкирана Амира Темура следующим образом: великого политика и умелого полководца. Важнейшие военные кампании Амира Темура. И в этой статье также дается информация о культуре государства Амира Темура.*

Ключевые слова: *Амир Темура, Амир Хусейн, Сахибкиран, Тохтамыш, Баязид Йылдырым, армия.*

Amir Temur was a great medieval statesman, famous general and founder of a powerful military organization. He is a central government, a promoter of science and culture. As a great statesman and skillful general, he occupied a fitting place in world history. Amir Temur sang the glory of his homeland and nation. he extols the centralized state he founded to a higher level, both materially and culturally.

Amir Temur was adept at science at an early age and began attending madrasa at the age of seven, and at that time he was well aware of the alphabet. In addition, Amir Temur as early as childhood, he was a fan of riding and hunting, shooting at targets from a bow, running horses and doing some military games. Amir Temur was a great scholar of the history of the Turkic, Arab, Persian peoples, well mastered to the most complex religious, secular and philosophical knowledge.¹²

The most important military campaigns of Amir Temur:

One of the first campaigns of Amir Temur is the "Mud Battle". On May 22, 1365, Amir Husain, allied with Amir Temur, fought against Ilyas hoja, one of the Mongol khans. On that day, it rained heavily and the battlefield turned into a swamp, and even the horses were covered in mud, so this battle went down in history under the name "Battle of the Mud". When Amir Temur made a victorious move by attacking the right flank of the enemy, Amir Husain, who was supposed to attack the left flank, left the battlefield and fled with his army, as a result of which Amir Temur, who was isolated, had to retreat. will be

1. ¹² O. Buo'riyev. Temuriylar davri yozma manbaalarida markaziy Osiyo, - T, 1997



No historian records that he ever suffered defeat except at the Battle of Lio, and he was never defeated again.

Another fierce battle of Amir Temur took place on April 15, 1395 in the North Caucasus on the banks of the Tarak River. In the battle, Amir Temur's army used the method of dismounting and shooting him with a bow. Tokhtamysh's army, which could not withstand the blows of arrows and swords, broke down, retreated and dispersed. Amir Temur's victory over Tokhtamysh was the reason for the unification of not only Central Asia, but also the whole of Eastern Europe, as well as the Russian principalities.

As a result of Amir Temur's massive campaigns, his state border clashed with the Ottoman Turks, which meant that a battle between the two was inevitable.

Amir Temur was in favor of better relations with Sultan Bayezid Yildirim of the Ottoman Turks, but Sultan Bayezid supported the forces against Amir Temur. As a result, on July 20, 1402, a long and fierce battle took place near Ankara. hisarmy defeated the Turkish army. Sultan Bayazid was captured.¹³

He became the savior of the whole of Europe by defeating the Ottoman Turks, who were threatening the whole of Europe.

The culture of the state of Amir Temur

The unification of Central Asia into an independent state under Amir Timur will affect the country's cultural development.

Science, literature and art, crafts and architecture long ago.

He gathered scientists, artists, artisans and architects from present and foreign countries for the sake of the country and Samarkandabad.

One of the buildings built by Amir Temur is the madrasa in Samarkand, known as Bibikhanim or Saraymulkhanim, built in 1404. This structure was one of the most luxurious buildings of that time, and it still retains its importance at a high level. Nowadays, I think that we should not go without seeing and studying this building.¹⁴

Bibikhanim madrasa is made of seven different mineral alloys.

Timur paid special attention to the decoration of Samarkand, the capital of the kingdom. In the city, the "Hisori" fortress, a majestic factor, and goldsmith's palaces were built. In addition, Timur built a new huge building - Ahmed Yassavi Mausoleum in Turkestan. This mausoleum is not the best among the architectural monuments of the Muslim East.

Through these tall buildings, we can see the high level of architecture in the reign of Amir Temur and the Timurids.

In Amir Temur's "Temur Tuzuklari" and other sources, the famous phrase "Do not doubt our power, look at the building we have built" is a market .

¹³ N. Norqulov. Temuriylar davri madaniyati. Xorazm-1996.

¹⁴.Amir Temur ajdodlari tarixi (Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asaridan terma-tarjima) Fors tilidan tarjima, kirish so'z va izohlar muallifi O. Bo'riyev. T., 1992



World and national historiography about Amir Temur:

The interest of European scientists in the personality and activities of Amir Temur began in the 16th century.

The first book about the host was published in Florence (Italy) in 1553 by the Italian scholar Perondino. In the same century, Spanish historian Pero Mexico's "History of Timur the Great" was published. Later, in 1582, "Reminiscences" of the famous Spanish ambassador Clavijo were published in Seville.

Owner Amir Temur is a great figure who left a great mark in the history of the nations of the world.

The reference to the image of Amir Temur began during the lifetime of Sahibkiran. Especially the creators of the European Renaissance were very interested in his personality.

To date, more than 500 works of foreign researchers have been published about Amir Temur and the Timurids in 33 countries.

During the Soviet regime, Amir Temur's personality and activities were unfairly treated and given a one-sided assessment. Nevertheless, the publication of I.M. Mominov's work "The place and role of Amir Temur in the history of Central Asia" in 1968 increased public interest in this topic, but this work and its author were sharply criticized by the Soviet Union.¹⁵

REFERENCE:

1. O. Buo'riyev. Temuriylar davri yozma manbaalarida markaziy Osiyo, - T., 1997
2. N. Norqulov. Temuriylar davri madaniyati. Xorazm-1996.
3. Muminov I. The role of Amira Timura in the history of Sredney Azii. - T., 1968. –S.3-15.
4. Axmedov B. Soxibkiran Timur. - T., 1996
5. Amir Temur ajdodlari tarixi (Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asaridan terma-tarjima) Fors tilidan tarjima, kirish so'z va izohlar muallifi O. Bo'riyev. T., 1992
6. Sharofuddin Ali Yazdiy (1997) Zafarnoma. Sharq nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati. -Tashkent p. 187, 190
7. Z.M.Bobur. Boburnoma. Yangi asr avlodi. -Tashkent. p.79 13. Sidikova M.X. (2019)
8. Features of the development of modern urban culture of Samarkand (1991-2017) Dissertation Abstract. -Tashkent. p.22.
9. Rui Gonsales de Klavixo (1990) Dnevnik putishestviya v Samarkand ko dvoru Temura (1403-1406) perevod so staraispanskogo. Moskva. Nauka.

¹⁵ Muminov I. The role of Amira Timura in the history of Sredney Azii. - T., 1968. –S.3-15.



10. Lyusen Keren (2020) Amir Temur saltanati. O'zbekiston. -Tashkent. p. 159



KOGNITIV TILSHUNOSLIK FANINING RIVOJLANHISH TARIXI, MAQSADI VA UNING O'RGANILISH OBYEKTI.

N.Abbasova
S.Inomjonova

Annotatsiya: *Kognitiv semantika tilning ma'nosini insonlar miyasida qanday aks etishiga qarab belgilaydi yoki ifodalaydi. An'anaviy semantikadan farqli ravishda, kognitiv semantika lingvistik voqea-hodisalarni ekstra-lingvistik faktorlar ya'ni, asosan psixologik va ijtimoiy-madaniy faktorlarga tayanib o'rganadi.*

Kalit so'zlar: *Tafakkur, kognitiv tilshunoslik, sintaktik komponent, kognitologiya psixolingvistika, lisoniy tahlil, ensiklopedik ma'no, kognitiv faoliyat, kognitiv nazariya, kognitiv grammatika.*

Kognitiv tilshunoslik bilan shug'ullangan olimlar dastlab psixolingvistlar deya atalgan. Ular o'z tadqiqotlarida konseptual sistemaning bor yoki yo'qligi ustida bahs yuritganlar va shuning oqibatida noverbal o'ylashning mavjudligini isbotladilar. Konseptual tizim o'zgaraydigan hodisa emas, aksincha rivojlanib boradigan tushunchalardan iboratdir. Olimlar belgilar bu juda muhim axborotlarni yetkazib berish uchun xizmat qiladi va bu belgilar insonlar tomonidan yaratilgan deb xulosa qilganlar. Lekin, ularning nazarida, konseptual tizim kattaroq va faqatgina uning kichikina bo'lagi belgilar orqali ifodalanadi. Konsept tushunchasi haqida esa hali yana alohida to'xtalamiz.

Kognitiv orqali tilshunoslikda ma'lumlik bilan birga mashhurlik ham keldi. Kognitiv tilshunoslik aniq bir fan doirasiga kirmaydi. Shuning uchun ham bu soha faqat falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmasdan, balki tilni ong bilan bog'laydi va shu xulosadan kelib chiqqan holda, kognitiv tilshunoslik bir qancha fanlar kesishmasida yotadi.

Kognitiv tilshunoslik psixologiya, falsafa, neyrofiziologiya, politologiya, sotsiologiya, etnografiya, antropolingvistika kabi fanlarni o'z ichiga oladi. Biroq bu kompleksda eng katta rol tilshunoslikka tegishli va bu bo'limning rivojlanishida asosan tilshunoslar o'zlarining katta hissalarini qo'shmoqdalar.

Shunday qilib, kognisiya, ya'ni bilish jarayoni, ma'lumotni qabul qilish, uzatish yoki yuborish va yaratish faoliyatini o'z ichiga oladi, bu holatlar lisoniy zahira bilan bog'liq bo'lib shubhasiz, bu lison bilan bilvosita yoki bevosita aloqada bo'ladi. Shu xususiyatiga ko'ra bilish fenomeni lisoniy qobilyat bilan bog'liqdir. 1989-yil Deysburgda (Germaniya) Xalqaro tilshunoslik simfoziumi bo'lgan va xuddi shu vaqtda kognitiv tilshunoslik rasmiy "yaraldi" ya'ni o'sha paytda kognitiv tilshunoslik bo'yicha birinchi Xalqaro konfrensiya bo'ldi. Bu simfozium qatnashchilari kognitiv tilshunoslikning Xalqaro assotsiatsiyasiga asos soldilar, "kognitiv tilshunoslik"



jurnalini yaratdilar va bu yo'nalishga qo'shimcha ravishda "Cognitive Linguistics Research" nomi ostida bir qancha monografiya yaratdilar.

Rasman paydo bo'lmasdan ilgari, 1980–yillarda ham kognitiv lingvistika bo'lgan, buni bir qancha monografiyalar nashrga chiqarilganidan ham bilishimiz mumkin (Lakoff, Johnson 1980; Johnson–Laird, 1983; Fauconnier, 1985; Lakoff, 1987; Langacker, 1987). Ammo rasmiy e'lon qilingandan keyin uning gullab yashnash davri bo'ldi va o'sha davrda ko'plab ilmiy izlanishlar olib borildi ¹⁶

Geeraerts D. va Cuyckens H. fikricha, kognitiv tilshunoslik dunyo bilan bizning o'zaro aloqamizda uchraydigan o'rtacha (qiyin ham emas) ma'lumotlar strukturasi yetkazib beruvchi eng muhim omildir. Olimlar yana alohida shuni ta'kidlab o'tadilarki, kognitiv tilshunoslik tushunchasi va psixologiya bir xil yo'l va usulda tuziladi. Shunga qaramasdan kognitiv psixologiya kognitiv tilshunoslikdan ko'ra ancha umumiyroq hisoblanadi. Chunki kognitiv tilshunoslik ma'lumot uchun ma'noni uyushtirish, yuzaga keltirish va tashishdan iborat.

Til – bu ma'lumotlarni saqlash va yangi tajribalarni muloqotga kirishishiga yordam beradigan bilim strukturalarining yig'ilgan holatidir.

Keyinchalik, kognitiv tilshunoslikda 3ta eng muhim xususiyatlar paydo bo'ldi. Birinchisi, lisoniy tahlilda semantika, ikkinchisi, tilshunoslikda ensiklopedik ma'no va oxirgisi tilshunoslikda "ma'no" munosabati.

Lisoniy tahlilda semantikaning muhimligiga quyidagilar mos keladi: kognitiv nuqtai nazaridan oddiy va soddalilik: agar tilning birinchi xususiyati kategoriyalash bo'lsa, shunda "ma'no" tilshunoslikda ilk fenomenondir.

Tilshunoslikda ensiklopedik ma'no bu tilni kategoriyalash xususiyatlarini muvofiq kelishidir: agar til dunyoni kategoriyalash tizimi bo'lsa, dunyoviy bilim lisoniy shakllar bilan aloqador bo'lgan darajadan farq qiluvchi strukturaviy yoki tizimli lisoniy ma'noni joriy qilishga hojat yo'q.

Nihoyat oxirgisi, lisoniy ma'noning istiqbolli tabiati shuni anglatadiki, til reallikni bor bo'yicha tasvirlamaydi, chunki tilning kategoriyalash funksiyasi individual yoki madaniy ehtiyoj, qiziqish va tajribani aks ettiruvchi bilimni shakllantiradi. ¹⁷

Yana bir mashhur tilshunos D.U. Ashurova o'zining "Matn lingvistikasi" kitobida kognitiv tilshunoslik haqida quyidagicha yozadi: kognitiv tilshunoslik til va idrokning o'zaro bog'liqlikni o'rganadi. Kognitiv tilshunoslikda til ma'noni saqlaydigan tasvirlaydigan va yetkazib beradigan eng asosiy birlik sifatida qaraladi. ¹⁸ Muallif kognitiv tilshunoslikdagi bir qancha muhim prinsiplarni sanab o'tadi:

¹⁶ Беседина, Н. Концептуальное пространство морфологии //Концептуальное пространство языка: Сб. науч. трудов. — Тамбов,2005. — С. 149–156.

¹⁷ Стернин, И. Методика исследования структуры концепта. //Методологические проблемы когнитивной лингвистики. — Воронеж,2001. — С. 58–65.

¹⁸ Ashurova D.U., Galieva M.R. Text Linguistics. – Tashkent: Turon-Iqbol, 2016 .-P- 96



- 1) til kognitiv mexanizmdek aqliy fenomen hisoblanadi;
- 2) til yaratuvchanlik, tasavvur qilish qobilyatlari orqali xarakterlanadi;
- 3) kognitiv tilshunoslik o'zining asosiy e'tiborini til qolipi va aqliy strukturaga, dunyoni kategoriyalash va qabul qilish jarayoniga, shu bilan birgalikda ularni tilda aniq ko'rsatishga, bilim strukturalari hamda ularni og'izaki nutqqa namoyon qilishga qaratadi;
- 4) til faqatgina tilshunoslikda tashqi qolip bo'lmay, balki bilimni namoyish qilishning ichki sistemasi hamdir .

Sh. Safarovning fikriga ko'ra, tilshunoslikning vazifasi til orqali bilimni saqlash, qabul qilish uzatishdan iborat. Til funksiyalarini inson miyasidagi tafakkur bilan bog'lab tadqiq etishdir. Olim buni aynan quyidagicha ta'kidlaydi "Bilimning mavjudligi tilning mavjudligidan. Tilning o'zi esa kognitiv tizimning faoliyati mahsulidir, lisoniy tarkiblar tafakkur faoliyati natijasida shakllanadi. Shunday ekan tilshunoslik psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik kabi sohalar hamkorligi kognitiv faoliyat asosida voqelanuvchi hodisadir. Kognitiv tilshunoslik inson tomonidan til tizimini va ushbu tizimni harakatga keltiruvchi omillarni o'zlashtirishi va ulardan foydalanish qoidalarini qay yo'sinda tartibga solinishi kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Kognitiv tilshunos lisoniy hodisalarning tafakkur faoliyatidagi o'rni, bajaradigan vazifalari bilan qiziqadi. U (kognitivist) lisoniy va tafakkur faoliyatlari munosabatlarining yuzaga keltiruvchi sabablarni qidiradi va bu sabablar oqibati bo'lgan muloqat matnlari – lisoniy tuzilmalarni tarkiban va mazmunan anglashga, tahlil qilishga harakat qiladi"¹⁹

Kognitiv tilshunoslikning maqsad vazifasi shundan iboratki, til insoniyatni qamrab turgan urf–odati, madaniyati, tarixini anglashda tilning aniqlanishi, inson tajribasi va xotirasida saqlagan bilimni muayyan bir sistemaga solishi va uni boshqalarga yuborayotganda vositachi bo'lgan tilning rolini tadqiq etishdir.

Insoniyatning kundalik voqeaga munsoabati kognitiv nazariyaga xosdir. Chunki biz tajribalarimiz, bilim va ko'nikmalarimiz asosida voqelikni anglaymiz va uni nutqqa aylantiramiz. Nutq hosil bo'lishi esa eng murakkab jarayon bo'lib u quyidagicha jarayonda bo'ladi: nutq bosh miya po'stlog'i orqali boshqariladi va tashqi muhitdan o'tgan impulslar uni qabul qilib tahlil qiladi va nutq markaziga yuboradi. Nutqimiz bo'lishi uchun esa biz "bilish" tushunchasiga ham alohida to'xtalib o'tishimiz kerak. Bilish – bu eng avallo sezish va his qilish orqali yuzaga keladi.

Til va tafakkur bir–biri bilan shunchalik bog'langanki, ularning birisiz ikkinchisi mavjud bo'la olmaydi. Til tafakkurni ifodalash uchun yordamga keladi. Bu ikkiga tushunchaga tegishli falsafiy va psixologik ong tushunchasi mavjud. Ammo ong tafakkurdan ham katta tushuncha hisoblanadi. Ong psixologik jihatdan insoniyatning fikrlashiga tegishli bo'lsa, biologik tomondan esa manitiqiy faoliyatni

¹⁹ Сафаров, Ш. Когнитив тилшунослик. — Жиззах: Сангзор. - 2006. — Б. 4-27



Somoniylarning oilaviy nisbasi, ya'ni nomi ularning ajdodi bo'lmish Somonxudot ismi bilan bog'liq. Somonxudotning kelib chiqishi hakida turli xil ma'lumot va fikrlar mavjud. Abu Bakr Narshaxiy (10-asr) va Hamza Isfahoniy (10-asr) keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, Somonxudot Balx viloyatidagi Somon qishlog'idan, alMukaddasiy (10-asr) ning ma'lumotiga ko'ra esa, u Samarqand viloyatidagi Somon nomli qishloqdan bo'lgan. "Sa'diya" nomli asar (17-asr) da keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, uning asl ismi Arquq bo'lib, u Farg'onadan Termizga ko'chib kelgan va u yerda Somon nomli qishlog'iga asos solgan. O'rta asrlarda Buxoro, Farg'ona, Tohariston, Xuttalon va boshqa viloyatlarda ham Somon nomli qishloqlar bo'lganligi kayd etilgan. Bu ma'lumotlar "Somon" toponimi o'rta asrlarda O'rta Osiyo hududlarida va undan tashqari yerlarda ham keng tarkalgan joy nomi bo'lganligidan dalolat beradi. Ko'pchilik manbalar (Hudud alolam, Ibn Havqal, Beruniy, Gardizi va h.k.) ga ko'ra, Somonxudot sosoniylar davridagi mashhur sarkarda Bahrom Cho'bin (6-asr) ning 4 yoki 5-pogonadagi avlodi bo'lgan. Baxrom Cho'binning kelib chiqishi eftaliylar bilan bog'lik U sosoniylarga qarshi ko'zg'olon ko'tarib (590 y.) mag'lubiyatga uchragandan keyin Farg'onaga qochib kelgan va turkiy malikaga uylanib, umrining oxirigacha o'sha yerda kolib ketgan. Uning avlodlari ham o'zlarini podshoxdar oilasiga mansub deb hisoblaganlar va Sosoniylar davlatidagi shahanshoxlar oliy taxtiga da'vo qilganlar. Somonxudotning shajarasida keltirilgan ajdodlaridan ayrimlarining (Juba, Jamchan, Tamg'as kabi) turkiy ismlari bo'lgan. Shunisi diqqatga sazovorki, turkiylarning rivoyatlarida Somonyabg'u (ya'ni Somonxudot) turkiylarning O'g'uzxondan keyingi davrlarda yashagan ajdodlari katorida tilga olingan. O'rta Osiyoga arablar bostirib kelganda, Somonxudot, ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Balx viloyatidan Marvga Xuroson amiri Asad ibn Abdulloh al Qushayriy (725/727 va 735/738 yillar)ning oldiga kelib, undan dushmanlariga qarshi kurolli yordam berishini suraydi. Arablar yordamida dushmanlarini yenggach,



Somonxudot islom dinini kabul kiladi va o'g'lining ismini amirning sharafiga Asad ko'yadi. Asadning Nuh, Ahmad, Yahyo va Ilyos ismli ug'illari alMa'munning Marvdagi saroyida xizmatda bulgan va Rofi ibn Lays ko'zyulonini bostirishda faol qatnashgan. Buning evaziga alMa'mun ularni bir nechta viloyatlarga amir etib tayinlaydi (819—820 y.). Xususan, Nuh — Samarqand amiri, Ahmad — Farg'ona amiri, Yahyo — Shosh va Ustrushona amiri, Ilyos esa Hirot amiri etib xayinlanadi. Ular dastlab Xuroson amirlari bo'lgan tohiriylarga tobe bo'lgan va harbiy kuch to'plab, Arab xalifaligining sharqiy chegaralarini qo'riqlab turishgan, shuningdek, shimolidagi turklarga qarshi bir necha bor yurishlar qilishgan. Nuh ibn Asad Isfijobni bosib olib (840 y.), uni o'ziga tobe qiladi. Shunday qilib, aka ukaning to'ng'ichi bo'lgan Nuh ibn Asad Samarqand va Sug'dning katta qismini, shuningdek, Farg'ona va boshqa bir qancha shaharlarni o'z hokimiyati ostida birlashtiradi. Nuhning vafotidan keyin (842 y.) suloladagi yetakchilik uning ukasi Ahmad ibn Asad oilasiga o'tadi. Uning 7 ta o'tli bo'lib, ular otasining vafotidan keyin (866 y.) Movarounnahrning asosiy shaharlarida hokimiyatni o'z qo'llariga oladilar. Faqat Buxoro sh. tohiriylar qo'lida edi. Ilyos ibn Asad vafotidan keyin unga qarashli bo'lgan Hirot shahrida ham hokimiyat Somoniylarning qo'lidan ketdi. Tohiriylar hokimiyati tugatilgandan keyin (873 y.) Buxoroda bir muddat siyosiy beqarorlik va tartibsizliklar yuz berdi. Shunda Somoniylar oilasining boshlig'i bo'lgan Nasr ibn Ahmad mahalliy dehqonlar taklifiga binoan, Buxoroga ukasi Ismoil ibn Ahmadni hokim qilib yuboradi. Shunday qilib, Buxoro ham Somoniylar qo'lga o'tib, ularning qudrati yana ham ortdi. Nasr davrida Somoniylar turklarning Shovg'ar shahriga yurish qiladilar. Deyarli butun O'rta Osiyo yerlari ularning hokimiyati ostida birlashgandan keyin oila boshlig'i Nasr xalifa alMu'tamiddan Movarounnahrni boshqarishga maxsus yorliq oldi (875 y.). Ko'p o'tmay Ismoil akasi Nasrga bo'ysunishdan bosh tortib, unga qarshi ko'shin tortadi. Akauka qo'shinlari orasida bo'lib o'tgan jangda (888 y.) Nasr mag'lubiyatga uchraydi va natijada Ismoil ibn Ahmad butun hokimiyatni o'z qo'lga oladi. U Taroz shahriga yurish qilib, uni bosib oladi (893 y.) va natijada boy Shalji kumush konlariga egalik kidali. O'sha yilning o'zida Ahmad Ustrushonadagi afshinlar sulolasining oxirgi vakillarini yo'q qiladi va viloyatni butkul o'zining hokimiyatiga bo'ysundiradi. S.ning kuchayib borayotganidan xavfsiragan arab xalifasi Ismoilni hokimiyatdan chetlatib, o'rniga Xuroson amiri Amr ibn Lays Safforiyni tayinlaydi (898 y.). Amr qo'shin bilan Movarounnahrda yo'l olganda, Ismoil unga qarshi chiqib, bir necha jangdan keyin uni mag'lubiyatga uchratadi (900 y.) va natijada safforiylarta qarashli bo'lgan Xurosonni ham o'z yerlariga qo'shib oladi. Shunday qilib, Ismoil ibn Ahmad hukmronligi davrida Talas vodiysidan Xurosongacha bo'lgan yerlarni o'z hokimiyati ostida birlashtirdi. Ismoil ibn Ahmad vafotidan keyin (907 y.) hokimiyat uning avlodlari qo'lga o'tdi: Ahmad ibn Ismoil (907—914 yillar), Nasr ibn Ahmad (914—943 yillar), Nuh ibn Nasr (943-954 yillar), Abdulmalik ibn Nuh (954—961 yillar), Mansur ibn Abdulmalik (961—976 yillar), Nuh ibn Mansur (976—997 yillar),



Mansur ibn Nuh (997—999 yillar), Abdulmalik ibn Mansur (999—1000-yillar). Shundan keyin mamlakatdagi hokimiyat qoraxoniylar sulolasining qo‘liga o‘tib, Somoniylar hokimiyati tugatildi. Sulolaning oxirgi vakili Ismoil al Muntasir (1000—1005-yillar) qoraxoniylar sulolasiga qarshi kurash olib borib, Somoniylar hokimiyatini tiklashga urindi, lekin natija bo‘lmadi va oxiri o‘zi ham o‘ldirildi. Shu bilan Somoniylar sulolasi tarix sahnasidan butunlay ketdi. Ma‘muriy boshqaruv tizimi. Somoniylar sulolasining hokimiyatdagi vakillari amir deb atalgan bo‘lib, ularga dargoh (saroy axli) va devonlar (harbiy boshqarmalar) bo‘ysungan. Vazir mansabiga, asosan, Jayhoniylar, Bal‘amiylar va Utbiylar aslzoda oilalarining vakillari tayinlanar edi. Jayhoniy va Bal‘amiy ulardan eng mashhur vazirlardir. Somoniylarda vazir devonidan tashqari 10 devon bo‘lib, ular uchun Buxorodagi Registon maydonida maxsus katta bino qurilgan edi. Somoniylarning boshqaruv tizimi, asosan, mahalliy dehqonlar, aslzodalar va din arboblardan tashkil topgan bo‘lib, har bir amaldor arab va fors tillarini mukammal bilishi, shuningdek, diniy va dunyoviy fanlardan xabardor bo‘lishi shart edi. Bunday odamlarni ahl alqalam (qalam axli) deb atashgan. Saroy harbiy qo‘mondonlari hojib, Xuroson lashkarboshisi esa sipoxsolor deb atalgan bo‘lib, boshqaruv ishlariga katta ta’sir o‘tkazib kelishgan. Somoniylarning soliqlardan kelib tushadigan yillik daromadi 45 mln. dirhamni tashkil qilgan bo‘lsa, bu mablag‘dan 20 mln.ga yaqini boshqaruv tizimida xizmat qilayotgan amaldorlar va qo‘shin ehtiyojlariga sarflangan. Xizmat uchun ish xaqi hammaga har 90 kunda, ya’ni bir yilda 4 marta muntazam ravishda berib turilgan. 10-asr boshida Somoniylar hukmronligi ostidagi mulklar quyidagi viloyatlardan tashkil topgan: Buxoro, Samarqand, Ustrushona, Farg‘ona, Shosh, Isfijob, Xorazm, Kesh, Nasaf, Chag‘oniyon, Xuttalon, Badaxshon, Balx, Tohariston, Guzganon, G‘archiston, Marv, Hirot, G‘ur, Nishopur va Go‘rgon. Viloyatlarda boshqaruv g‘okimlar qo‘lida bo‘lib, ular amir tomonidan tayinlangan. Bu mansabga ko‘pincha mahalliy yer egalari va viloyat hokimlari xonadoni vakillari tayinlanar edi. Shaharlarning boshqaruvi raislar qo‘lida bo‘lib, ular hokimlar tomonidan tayinlangan. Somoniylar hukmronligi davrida Tohariston shaharlarida banichuriylar sulolasi, Xurosonda simjuriylar sulolasi, Guzganonda farig‘uniylar sulolasi, Xorazm va Isfijobda mahalliy turkiy sulolalar, shuningdek, Chag‘oniyon, G‘azna, Sijiston, G‘ur va G‘archistonda mahalliy sulolalar hukm surgan Somoniylarning saroy ma‘muriyati ichidagi amaldorlarning bir qismini forelar, qolgan qismini mahalliy turkiylar tashkil etgan. Viloyatlarda ham xuddi shunday ahvol kuzatilgan. Harbiy va mudofaa ishlari to‘la turkiylarning qo‘lida bo‘lgan. 10-asr ga kelib Isfijob, Tarozi va boshqa shaharlarning turkiy aholisi ko‘plab islom dinini qabul qilganliklari tufayli Somoniylarning boshqaruv tizimida ularning salmog‘i oshib ketgan. Xususan, Alptegin, Sabuktegin, Alp Arslon, Alitegin, Simjuriy, Bektuzun, Qorategin, Ayach, Altuntosh, Banichur, Tosh singari mashhur tarixiy shaxslar va ularning avlodlari shular jumlasidandir. Shuningdek, turli viloyatlar va shaharlarni Inaj, Sabukra, Boyqaro, Alxunmish, Boytuz, Tuztosh, Kunbosh, Suboshitegin, Kamtegin,



Fayozbek, Xumorbek, Xumortosh, Oytug‘dibek, Bilgategin, Fategin, Shukrtegin, Aytug‘mish va boshqa g‘ukmdorlar boshqargan. Hokimiyat Somoniylar qo‘lidan ketib, qoraxoniylar qo‘liga o‘tgandan keyin ularning deyarli barchasi ikkilanmay yangi hukmdorlar xizmatiga o‘tishgan. Shuning uchun Bug‘roxon 992 yilda Isfijobdan yurish qilib, Samarqand va Buxoroni egallaganda, unga hech kim qarshilik ko‘rsatmagan. Chunki mahalliy aholi, shu jumladan, amaldorlar ham, ularga Movarounnahrning arablargacha bo‘lgan asl egalari sifatida va endi islom dinini qabul qilib, o‘z yerlariga qaytib kelgan hukmdorlar deb qaraganlar. Shunday qilib, Somoniylar boshqaruv tizimi aniq va mukammal ravishda tuzilgan bo‘lib, o‘zida davlatchilikning o‘sha davrda eng ilg‘or an‘analarini mujassamlashtirgan. Lekin qonunchilik nuqtai nazaridan Somoniylar hukmronligini teng huquqli mustaqil davlat sifatida qarash haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Chunki u davrda, ya‘ni 9— 10-asrlarda, Abbosiylar xalifaligida markaziy hokimiyat zaiflashib, viloyatlardagi mahalliy hokimiyat kuchaygani va deyarli mustaqil ichki siyosat olib borgani bilan, barcha mahalliy sulolalar, shu jumladan, Somoniylar ham, rasman bo‘lsada, Bag‘dod xalifalariga bo‘ysungan edilar. Ular faqat ma‘muriy boshqaruvda va xo‘jalik ishlarini yuritishda xalifalar tomonidan berilgan keng huquklar va o‘zini o‘zi boshqarish vakolatlariga ega bo‘lganlar. Shariat nuqtai nazaridan g‘am, xalqaro huquq nuqtai nazaridan ham, Xuroson va Movarounnahr ma‘muriy jihatdan Abbosiylar xalifaligining ajralmas qismi, Somoniylar esa xalifalarning shu viloyatlardagi hokimiyatni boshqarish uchun tayinlangan voliyarlari hisoblangan. Demak, Somoniylarning hukmronligi davlatchilik sifatida emas, balki Abbosiylar xalifaligining tarkibida Bag‘doddan tayinlangan va nisbatan mustaqil ichki siyosat olib borgan mahalliy hukmdorlar sulolasining hokimiyati sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rajabov Alisher Shavkatovich. Mirbobo Nakshbandi as the great sufi scholar. / International scientific and practical conference “Innovative Development in the global science”. Boston (USA), 2022 – P. 18-22.
2. <https://zenodo.org/record/7419258#.ZDRLUXZByM8>
3. Rajabov Alisher Shavkatovich. Study of the manuscript of the work “Mirotus Solikiyn”. / International scientific conference “The role of science and innovation in the modern world”. London (United Kingdom), 2022. – P. 122-128.
4. <https://zenodo.org/record/7472104#.ZDRMeHZByM8>
5. Alisher Rajabov Shavkatovich. Mirbobo Naqshbandiy qalb zikri va uning turlari to‘g‘risida. / FarDU ilmiy xabarlar. 1-son. Farg‘ona, 2023. – B. 16-19.
6. Rajabov Alisher Shavkatovich. The work of “Mir‘otus Solikiyn” as a Theoretical Source of Naqshbandiya Tariqat. / Web of scholars: Multidimensional research journal. 1(8). 2022. – P. 18-21.



7. <https://www.innoscience.org/wos/article/view/567>
8. Rajabov Alisher Shavkatovich. About Bahouddin Naqshband in Mirbabo Naqshbandi's Poetry. / International journal of formal education. 2022. – P. 1-5.
9. <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/455>
10. Rajabov Alisher Shavkatovich. Abu Nasr Farobiy. / Journal of Innovations in Social Sciences Volume: 01 Issue: 01 | 2021 ISSN: 2181-2594
11. 2021-yil, 20-noyabr. – B. 97-102
<http://www.sciencebox.uz/index.php/jis/article/download/274/266>
12. Rajabov Alisher Shavkatovich, Elibayeva Feruza Xamzayevna. O'tkir qilich va qalam sohibi : Bobur merosi jahon olimlari nigohida. / Research and education 2022/2/25. – P. 647
13. <https://researchedu.uz/wp-content/uploads/2022/03/Navoi-and-Babur-conference.pdf#page=647>
14. Alisher Shavkatovich Rajabov. Mirbobo Naqshbandi on the truth of the soul. / Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations. 2022 Prague, Czech: 1 (7), 93-101
15. <https://zenodo.org/record/7467785#.ZDRR-XZByM8>
16. Rajabov Alisher Shavkatovich. Mir Babo Naqshbandi on the Heart of Arif and the Truth of Arif's Condition. / American Journal of Social and Humanitarian Research Vol:3 (12)2022, 50-54
17. <https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajshr/article/view/1780/1629>
18. Rajabov Alisher Shavkatovich. Mirbobo Naqshbandiy orif qalbi va orif holining haqiqati to'g'risida. / Ilm sarchashmalari. 1-son. Urganch, 2023. B 62-65.
19. A.Sh.Rajabov. "Mirotus solikyn" ("Tariqat soliklarining oynasi") asari – Naqshbandshunoslikda muhim manba. / Tarixiy xotira – o'zlikni anglash va milliy-ma'naviy taraqqiyot omili. 2022. B. 70-73.
20. A.Sh.Rajabov. Mir bobo Naqshbandiyning «Mir'otus Solikiyn» asarida qalbning tavsifi. / BuxDPI Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim mazmunini yanada takomillashtirish istiqbollari. Buxoro, 2022-yil, 25-aprel. – B. 707-771.
21. Alisher Rajabov. Mirbobo Naqshbandiy qalbi zikri va uning turlari to'g'risida. / Ilm-fan muommalati yosh tadqiqotchilar talqinida Respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi. 3-son. 2022-yil, 25-dekabr. – B. 130-137.
22. Sohibqiron Amir Temur davrida madaniyat va ilmiy bilimlarning rivojlanishi (aniq va tabiiy fanlar misolida) va taraqqiyot bosqichlari. International Scientific and Practical Conference Innovative development in the global science vol-2ISSUE-3 2023 Boston USA. 30.03.2023. B. 53-59
23. <https://academicsresearch.com/index.php/iditys>
24. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi (Hindiston asari) xotiralari xususida ayrim chizgilar. International Scientific and Practical Conference "The role



of science and innovation in the modern world”. London, United Kingdom. 30.03.2023. B.35-44.

25. <https://academicsresearch.ru/index.php/trsimw/article/view/1449>

26. Bahouddin Naqshbandga qasida bitgan murid. O‘zbekiston Milliy axborot Agentligi. uza.uz. Ilm-fan elektron jurnal. B1-8.20.01.2023. https://uza.uz/uz/posts/bahouddin-naqshbandga-qasida-bitgan-murid_446829

27. Alisher Rajabov МИРБОБО НАҚШБАНДИЙНИНГ НАҚШБАНДИЯ ТАРИҚАТИ ТАМОЙИЛЛАРИ АСОСИДА БИЛДИРГАН ИЖТИМОЙ-АХЛОҚИЙ ҚАРАШЛАРИ. В-6-10. Vol. 2 No. 29 (2023): ILM FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO‘LLANILISHI

28. <https://academicsresearch.com/index.php/conference/issue/view/46>.

В-6-10

29. МИРБОБО НАҚШБАНДИЙ ҚАЛБ ЗИКРИ ВА УНИНГ ТУРЛАРИ

30. ТЎҒРИСИДА Илм-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida. В-130-137

31. <https://zenodo.org/record/7500616#.ZDTTJ3ZBzDc>

32. <https://cyberleninka.ru/article/n/mirbobo-na-shbandiy-alb-zikri-va-uning-turlari-t-risida>

33. Kenjaye S.N. Amir Temur's Ambassadorial Activity in Diplomatic Relations with China (Min State) (In the Case of Fu An) // Impact Factor: 9.2, ISSN-L: 2544-980X. - Miasto Przyszłości Kielce, 2022. 112-114 P.

34. Ру Ж.-П. Тамерлан / Жан-Поль Ру; пер с фр. Е.А. Соколова; послесл; В.Л. Егорова. Прил. - 4-е изд. – М.: Молодая гвардия, 2007. – 295 с [9] с.: ил.

35. Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати (тарихий очерк). – Т.: Қомуслар Бош тахририяти, 1994. – 160 б.

36. Sardor Nurmurodovich Kenjaye, Komron Mahmud o‘g‘li Zayniev. Amir Temur davlati va Xitoy Min sulolasi aloqalarida otlar savdosi xususida (cyberleninka.ru) Vol. 3 No. (2022): Science and Education. 634-639.

37. Kenjaye S.N. Amir Temur davlati va Xitoy (Min) imperiyasi o‘rtasidagi savdo aloqalari tarixidan // “O‘tmishga nazar” 4 jild, 10-son, Doi Jurnal 10.26739/2181-9599. – TOSHKENT 2021.- Б.67-74. ИЗ ИСТОРИИ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ ГОСУДАРСТВА АМИРА ТЕМУРА И КИТАЙСКОЙ (МИН) ИМПЕРИИ | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ (tadqiqot.uz)

38. Кенжаев С.Н. Амир темур ва хитой давлати ўртасидаги харбий муносабатлар ўзаро тўқнашув хафининг вужудга келиши ЎЗМУГА Кенжаев С.Н (fayllar.org)// ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ, 1/9. – Тошкент, 2022.-Б.18-21. О‘ЗМУ хабарлари Вестник НУУз АСТА NUUZ

39. Сардор КЕНЖАЕВ. Amir Temurning Xitoy (Min davlati) harbiy yurishga tayyorgarlik jarayonlari va uni keltirib chiqaruvchi omillar // SOHIBQIRON



YULDUZI. Ижтимоий-тарихий, илмий ва оммабоп журнал. №3(49). –Қарши, 2022.25-30 б.

40. Kenjayev S.N. . Amir Temur's Ambassadorial Activity in Diplomatic Relations with China (Min State) (In the Case of Fu An) | Miasto Przyszłości (miastoprzyszlosci.com.pl) // Impact Factor: 9.2, ISSN-L: 2544-980X.- Miasto Przyszłości Kielce, 2022.112-114 P

41. Кенжаев С.Н. Amir Temurning Xitoy bilan munosabatlari va Tayzi o'g'lon faoliyati (cyberleninka.ru) // Science and education scientific journal, ISSN 2181-0842 VOLUME 3, ISSUE 5. ISSN 2181-0842.- T.:1493-1497 б.

42. Кенжаев С.Н. Trade and ekonomik relations between Amir Temur's state and the Min dynasty// International symposium of young scholars. –USA, 2021. 480-481 P. <https://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/article/download/485/455/1746>

43. Кенжаев С.Н. Factors of Amir Temur's military march to china and the international political situation // Euro Asian Conference on Analytical Research, ISBN: 978-1-913482-99-2.-Germaniya, 2021.115-117 p. (buxdupi.uz) 4.Germaniya+pdf.+Kenjayev+S.N..pdf

44. Кенжаев С.Н. Хитой сари юришга тайёргарлик жараёнлари ёхуд Амир Темур ҳаётининг сўнгги кунлари. // “Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Buxoro, 2022. 52-57 б. Хитой сари юришга та й ёргарлик жараёнлари....

45. 10.Кенжаев, С.Н.(2022). АМИР ТЕМУР ВА ХИТОЙ ДИПЛОМАТИК МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ОБЪЕКТИВ ВА СУБЪЕКТИВ ОМИЛЛАРИ | Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot (in-academy.uz) - Zamonaviy Dunyoda Innovatsion Tadqiqotlar: Nazariya Va Amaliyot, 1(26), 130–135. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/5925>. Тошкент, 2022.18-22 б.

46. КЕНЖАЕВ , С. . АМИР ТЕМУРНИНГ ХИТОЙ ЮРИШИ ВАҚТИДА ЖАНУБИЙ ВА ШИМОЛИЙ САРҲАДЛАР ХАВФСИЗЛИГИНИ МАСАЛАЛАРИ. | Zamonaviy dunyoda tabiiy fanlar: Nazariya va amaliy izlanishlar (in-academy.uz) (2022). // Zamonaviy Dunyoda Tabiiy Fanlar: Nazariy Va Amaliy Izlanishlar, 1(25), 18–22. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdtf/article/view/5923>–Toshkent, 2022. 131-134 б.

47. Кенжаев С. Н. Important issues of important of improving the immunity of security, international harmony, religious tolerance in the state of Amir Temur // Янги Ўзбекистонда маънавий тараққиёт асосларини кучайтиришнинг долзарб масалалари. – Бухоро, 2022. 238-241 б. Продолжение работы на этом сайте заблокировано. (buxdupi.uz)

48. Кенжаев С. Н. АМИР ТЕМУР ВА ХИТОЙ МУНОСАБАТЛАРИДА САВДОГАРЛАР ТАБАҚАСИНИНГ ИЖТИМОИЙ ҲАЁТДАГИ ЎРНИ | Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya (in-academy.uz)



// «Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya» nomli ilmiy-amaliy konferensiya.– Toshkent, 2022.- 1 pp. 58-60 (7)

49. Kenjayev S. THE IMPORTANCE OF THE NORTHERN AND SOUTHERN NETWORK OF THE GREAT SILK ROAD IN AMIR TEMUR'S RELATIONS WITH CHINA | Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot (in-academy.uz) (2022) 1(28), 207–209. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7456181>

50. Kenjayev S.N. Амир Темурнинг Хитой билан муносабатларида Шимолий савдо йўлининг аҳамияти/ International conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century 2022/7.197-199.

51. Kenjayev S.N. Amir Temur davlati va Xitoy Min sulolasi aloqalarida otlar savdosi xususida. - Science and Education, 2022

52. Kenjayev, S Murtazoyev, S Nematova, S Melsova. ROMITAN HUDUDIDA DASTLABGI ARXEOLGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING TAHLILI/S Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya 1 (7), 53-57 [file:///C:/Users/Admin/Downloads/ZDIFT0713%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/Admin/Downloads/ZDIFT0713%20(1).pdf). Кенжаев: ва Хитой муносабатлар...

53. S.N.Kenjayev, K.M. Zayniev. Amir Temur davlati va Xitoy Min sulolasi aloqalarida otlar savdosi xususida //- Science and Education, 2022 AmirRelated articles All 2 versions

54. Жасур Латипов, Сардор Кенжаев / Елюй Чуцай: Мўғуллар империясининг буюк мутафаккири [Матн] : рисола / Ж.Латипов, С.Кенжаев.- Бухоро: “БУХОРО ДЕТЕРМИНАНТИ”МЧЖнинг Камолот нашриёти, 2022-48 б.

55. Kenjayev, S. N. o'g'li, & Xurramova, G. I. qizi. (2023). USMONIYLAR DAVLAT BOSHQARUVIDA QOZILAR TAYYORLASH MASALARI XUSUSIDA AYRIM CHIZGILAR. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"*, 2(2), 144–153. Retrieved from <http://academicsresearch.ru/index.php/ispcttosp/article/view/1300>. | [Zenodo https://academicsresearch.com/index.php/ititgs/article/view/1817](https://academicsresearch.com/index.php/ititgs/article/view/1817)

56. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7678097>

57. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7675191>

58. <https://academicsresearch.ru/index.php/ispcttosp/article/view/1300>

59. <https://academicsresearch.ru/index.php/trsimw/article/view/1193>

60. <https://scholar.google.ru/citations?hl=en&user=TIZD1hAAAAAJ>

61. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7456181>

62. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7426147>

63. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7426141>

64. Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li, Xolmurodova Madina, Salimova Nozima, Amonova Ruhshoda, & Aktamova Nafosat. (2023, February 26). MIN



SULOLASI DAVRIDAGI XITOIY ARMIYASI (XIV-ASRNING 70 YILLARI - XV-ASR BOSHLARI). TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE, Ankara, Turkey. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7678098>
<https://academicsresearch.com/index.php/icpass/article/view/1864>

65. Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li, Nematova Nigina, Xalilov Behruz, Mardonova Feruza, & Mirzayev Nusrat. (2023, February 13). TEMURIYZODA SHAHZODALARNING HINDISTON EGALLASH JARAYONIDAGI JASORATI XUSUSIDA. PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS, Australia, Melbourne. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7692302>

66. Кенджаев Сардор, Мелсова Шахина, Юсупджонова Марджона, Раупова Нозигуль и Рахматов Мурод. (2023, 26 февраля). ПРИГОТОВЛЕНИЯ АМИРА ТЕМУРА К ИНДИЙСКОЙ ВОЕННОЙ КАМПАНИИ. ПРОБЛЕМЫ И НАУЧНЫЕ РЕШЕНИЯ, Австралия, Мельбурн. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7678582>. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7678581>

67. Кенджаев Сардор Нурмуродович, Уринов Шахджахан Джамшидович, Хакимова Дилнура И Полатова Шохинабону. (2023, 24 февраля). НЕКОТОРАЯ ИНФОРМАЦИЯ О ХИЩНЫХ КОШАЧЬИХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ЛИТЕРАТУРЕ ПО ИСТОРИИ ДРЕВНЕГО МИРА. ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ В ГЛОБАЛЬНОЙ НАУКЕ, Бостон, США. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7675192>

68. Nurmurod Son, K. S. (2022). Amir Temur's Ambassadorial Activity in Diplomatic Relations with China (Min State) (In the Case of Fu An). *Miasto Przyszłości*, 29, 112–114. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/720>.

69. <http://academicsresearch.ru/index.php/ispctosp/article/view/1365>

70. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7678098>

71. <http://academicsresearch.ru/index.php/ispctosp/article/view/1300>

72. [Том 2 № 2 \(2022\): Maqola va tezislar 2022 \(buxdupi.uz\)](http://www.buxdupi.uz)

73. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/720>

74. <https://zenodo.org/record/7419258#.ZDRLUXZByM8>

75. <https://zenodo.org/record/7472104#.ZDRMeHZByM8>



O'RTA OSIYO XALQLARI TURK XOQONLIGI DAVRIDA

A.Sh.Rajabov

Buxoro davlat Pedagogika instituti tarix fani o'qituvchisi

A.F.Ibroximov

Buxoro davlat Pedagogika Instituti 1-1 tar 22 guruh talabasi

Annotatsiya: *Turk xoqonligi vujudga kelgunga qadar mintaqada 2 yirik davlat: Eftaliylar va Jujanlar davlati hukm surardi.*

Kalit so'zlar: *Anushervon, Sosoniylar, Eftallar, G'arbiy Turk xoqonligi, Sharqiy Turk xoqonligi, Vizantiya, Eron, Tele .*

VI asr o'rtalarida Oltoydagi turkiy qabilalar qo'shni qabilalar bilan o'zaro birlashib „mo'g'il davrigagacha bo'lgan eng qudratli davlat“ - Buyuk Turk xoqonligiga asos solgan. Ikki aka-uka, Bumin va Istemi ulkan davlatni boshqarishgan. Bumin hoqonlikning sharqiy qismidagi o'ziga qaram yerlarni kengaytirgan bir paytda, uning ukasi Istemi davlatning g'arbiy qismidagi Yettisuv va Sharqiy Turkistonning tutashgan hududlari qabilalarini o'zaro birlashtirgan. Davlatning G'arb tomon kengayishi uning eftaliylar davlati yerlari bilan to'qnashuviga sabab bo'lgan. 563-567 yillarda turkiylar eftaliylar davlatini tor-mor qilishgan va Amudaryo bo'yida Eron sosoniylari bilan to'qnash kelishgan. Turkiylar va Eron eftaliylar qiyofasida umumiy dushmanga qarshi kurashgan paytda ular o'zaro do'stona munosabatda bo'lganlar va hatto, shahanshoh Xusrov Anushervan turkiy malikaga uylangan. Turkiylar eftaliylarni tor-mor keltirgandan so'ng esa, ular bilan Eron o'rtasida o'zaro mojaro yuzaga kelgan. Turkiylarning muhim savdo yo'llariga egalik qilishga bo'lgan intilishlari Eron bilan munosabatlarning keskinlashuviga olib kelgan. Istemining savdo masalalari bo'yicha elchilarining Eronga tashrifi muvaffaqiyatsiz tugagan, ikkinchi va so'nggi elchilik a'zolari esa zaharlanganlar. Shundan so'ng turkiylar Vizantiya bilan ittifoqchilikda Eronga qarshi urush boshlashga qaror qilishadi. 568-569 yillarda Maniakh boshchiligidagi Istanbulga birinchi elchilik tashrifi muvaffaqiyatli yakunlanadi. Vizantiya bilan Eron o'rtasidagi o'zaro urush, ularning xoqonlikka nisbatan e'tiborini chalg'itgan holda, turkiylarning yarimko'chmanchi davlatining shiddatli darajada yuksalishiga imkoniyat yaratgan. Turkiylar ichki ixtiloflar oqibatida zaiflashgan Xitoyga bir necha marta muvaffaqiyatli yurishni amalga oshirib, shoyi matolaridan iborat katta yillik o'lpon olishga erishgan. 588 yili turkiylar hukmdori Qora Churin Vizantiya va hazarlar bilan ittifoqchilikda Eronga hujum qiladi, biroq mag'lubiyatga uchraydi va sosoniylar sarkardasi Bahrom Chubin tomonidan o'ldiriladi. Bu mag'lubiyat hoqonlikning tanazzulga yuz tutishi va 6-asrning 80-yillarida sharqiy va g'arbiy o'lkalarga ajralib ketishiga sabab bo'ladi. 7-asrning birinchi yarmida g'arbiy xoqonlik hayotida yuksalish kuzatiladi. Uning chegaralari Inda sohillarigacha yetgan. Xitoy va Eron



bilan savdo munosabatlari keng rivojlangan. Savdo karvonlari Marv-Chorjo'y-Buxoro-Samarqand-Choch-Talas-Suyab yo'nalishi bo'ylab Sharqiy Turkiston vohalarigacha cho'zilgan. Butun yo'l davomida karvonlar ularning jadal safarlariga imkon bergan sug'd mulkiy hududlariga duch kelishgan. Taxminan, 630 yili turkiylarning yaqin qadargacha ittifoqchilari bo'lgan xitoylar ularni qaqshatqich mag'lubiyatga uchratadi. 7-asr oxirida g'arbdan yangi qudratli dushman - Markaziy Osiyoni o'z tasarrufiga bo'sindirgan arablar bosib kela boshladi. G'arb turkiy xoqonligi Yettisuv o'lkasi turgeshlar tasarrufiga o'tgandan so'ng 747-yili batamom parchalanib ketgan. Shunday qilib, Buyuk Turk xoqonligi o'z davridagi to'rt qudratli davlatlar (Xitoy, Eron, Vizantiya, Turk xoqonligi) va 5 buyuk madaniyatning (yunon, fors, xitoy, hind, turkiy) biri bo'lgan. Turk xoqonliging Eron va Xitoy bilan bo'lib o'tgan to'qnashuvlari natijasida Xitoy va Fors davlati ancha yillargacha turkiylarning asosiy dushmaniga aylanishgan. 6-asrning 2 yarmida Turk xoqonligi vujudga kelgunga qadar mintaqada 2 yirik davlat: Eftaliylar va Jujanlar davlati hukm surardi. Turk xoqonligining asoschilari bo'lmish turkiy Ashina qabilasi esa bu paytda Oltoy tog'larining jan. yon bag'irlarida istiqomat qilar va Jujanlar davlatiga tobe edi. Jujanlar qo'l ostidagi ashina turklari kuchayib 545 y. tele qabilalarini, 551 y. esa jujanlarni yengadilar. Shu tariqa og'aini Bumin va Istami 552 y. Turk xoqonligiga asos soladilar. Bumin o'zini xoqon deb e'lon qiladi (qarang Bumin xoqon, Istami xoqon). 555 yilga kelib, Markaziy Osiyoning shim.sharqidagi qabilalar, Uzok, Sharqdagi kidan (qoraxitoy), tatabi, shivey kabi manchjur va mo'g'ul qabilalari, Yenisey bo'yidagi turkiy qabilalar ham Turk xoqonligi qo'shinlari tomonidan tobe etilib, 555 yildayoq Sharqiy Turkistonning katta qismi Turk xoqonligi ko'l ostiga o'tadi. Turk xoqoni Mug'on (553-572) Xitoyga 556-557 yillarda yurishlar qilib, bu yerdagi G'arbiy Vey (Toba) sulolasi o'rnini egallagan Shim. Shim. Si (550—577) va Chjou (577—581) sulolalarini o'z ta'sir doirasiga oladi. Turk xoqonligi 565 y. eftaliylarga Naxshab sh. (hozirgi Qarshi sh. yaqinidagi Yerqo'rg'on xarobasi) atrofida og'ir zarba beradi. Turk xoqonligi eftaliylarga qarashli Choch, Farg'ona, Ustrushona, Samarkand, Xorazm, Buxoro, Kesh va Nasafni qo'lga kiritgan bir paytda xoqonlikning eftaliylarga qarshi ittifoqchisi Sosoniylar Eroni hukmdori Xusrav I Anushirvon esa Eftaliylar tarkibida bo'lgan Toxariston, Kobuliston, Zobuliston (Shim. Afg'oniston) viloyatlarini egallaydi. Sosoniylar bilan bevosita qo'shni bo'lib qolgan xoqonlikning Eronga yuborilgan elchilarining o'ldirilishi va sug'diy Maniax boshchiligida ipak tijoratini yo'lga qo'yish maqsadida yo'llangan elchilarga Eron shohining qo'pol munosabatda bo'lishi, hatto ular keltirgan ipak matolarni yoqishga buyurishi Turk xoqonligi va Sosoniylar o'rtasidagi ittifoqqa raxna soladi. Turk xoqonligi Eron bilan orani uzib, Vizantiya imperiyasiga yaqinlashish, u bilan savdosotiq, asosan, ipak tijoratini rivojlantirish uchun unga 567 y. mazkur Maniax boshchiligida elchilik hay'atini yuboradi. Shu paytdan boshlab ikki davlat o'rtasida ittifoq vujudga keladi. Eron — Vizantiya o'rtasida 571 y. jang boshlangach, g'arbg'a yurishni davom ettirayotgan Istami shu yili Shim. Kavkazdagi Kuban daryosi havzasi



va Ozarbayjonni qo‘lga kiritadi. Boshqa tarafdin esa 567 yildanoq Sosoniylarga qarshi Amudaryo yo‘nalishi bo‘ylab yurish uyushtira boshlagan Istami bu jabhada katta muvaffaqiyatlar qozonib, Toxaristonni olgach, Turk xoqonligining jan.g‘arbiy chegarasi Amudaryo bo‘lib qoladi. 6-asrning so‘nggi choragida Kobuliston (Kobul), Zobuliston va Xurosonning katta kismi xoqonlik tarkibiga o‘tadi. 576 yilda Turk xoqonligi bilan Vizantiya orasida ixtilof paydo bo‘ladi va xoqonlik shu yili Qrimdagi Bospor (Kerch)ni bosib oladi va 581 yilda Xersonesni qamal qiladi. Sharqiy Yevropada xoqonlik hududi bu paytgacha kelib Qora dengiz sohillari, sharqda Koreya bo‘g‘ozi, shimolida Ural tog‘lari, Yenisey va Baykalbo‘yi, janubida Afg‘oniston va Shimoliy Hindiston hududlarini o‘z ichiga olar edi. Turk xoqonligi tarixi bilan mashhur tarixchi va arxeolog olimlar shug‘ullangan (Aleksandr Bernshtam, Lev Gumilyov, Sergey Klyashtorniy, Dmitriy Savinov, Leonid Kyzlasov, Igor Kyzlasov, Olga Smirnova, Larisa Baratova, Nasimxon Rahmon, Shamsiddin Kamoliddinov). 580-yillarga kelib xoqonlikda ichki nizolar, taxt talashuvlar avj oladi. Bu ishga Xitoyning Suy sulolasi ham aralashadi. Shundan so‘ng xoqonlik bir muddat Oltoy tog‘larining sharqidan to‘uzoq Sharqqacha bo‘lgan hududni, ya‘ni Jan. Sibir, Urxun havzalari (Mo‘g‘uliston), Shim. Xitoy hududlarini o‘z ichiga oluvchi Sharqiy Turk xoqonligi va Oltoy tog‘larining g‘arbidagi xoqonlikka qaram o‘lkalarni o‘z ichiga oluvchi markazi Yettisuv bo‘lgan G‘arbiy Turk xoqonligi ga bo‘linib ketadi. Markazi O‘tukan vodiysi (Mo‘g‘uliston) bo‘lgan Sharqiy Turk xoqonligi Shibi xoqon (609—619) davrida Xitoy (Suy) imperiyasiga qarshi jang olib boradi. U 615 yilda Xitoyga yurish qilib Yaymin (Ordos) viloyatida imperator Yandini qurshovga oladi. Yaymindagi 41 qal‘adan 39 tasi Turk xoqonligi qo‘liga o‘tadi. 618 yilda Suy sulolasini ag‘darib, uning o‘rnini egallagan Tan sulolasining ishlariga ham Shibi xoqon aralashadi. U bu paytgacha sharkda kidan va shivey qabilalarini, Jan.G‘arbda Tuguxun (Togon) davlati hamda Turfon o‘lkasini bo‘ysundirgach, Xuanxe daryosini kechib o‘tib, Xitoy hududiga kirgan vaqtda vafot etadi. Taxtga Elxoqon (xitoy manbalarida Xyelixan; 620—630) o‘tiradi va 10 yil davomida, asosan, Xitoy bilan kurash olib boradi. 2 marta, 624—626 yillarda poytaxt Chananni qurshab oladi. Uning o‘limidan so‘ng Sharqiy Turk xoqonligi 50 yilga yaqin Xitoyga karam bo‘lib qoladi. O‘z davrida „O‘n O‘q xoqonligi“ deb yuritilgan G‘arbiy Turk xoqonligi Istaming o‘g‘li Tardu xoqon (576—603) Sosoniylar Eroniga qarshi janglar olib borib, g‘arbda o‘z hokimiyatini kuchaytirdi. Uning o‘g‘li Sheguy xoqon (610—618) davrida xoqonlik qo‘shinlari jan.g‘arbiy hududlarda faol harakat yurita boshlaydi. U Eronning shim.sharqiy viloyatlariga xujum uyushtirib, sosoniylar ustidan yirik g‘alabaga erishadi va Isfahon, Ray kabi shaharlarni qo‘lga kiritadi. Uning inisi Tun yabg‘u (Tunshexu; 618—630) xoqonlikning g‘arbdagi nufuzini yanada mustahkamlaydi. U hukmronlik qilgan davrda Turk xoqonligi ning chegarasi g‘arb va jan.g‘arbda, Jan.Sharqiy Yevropa dashtlari, Kavkaz, Volgabo‘yi, Gurgon, Marv, Hind daryosining yuqori havzalari, Shim. Hindiston va Afg‘onistonning aksariyat viloyatlarini o‘z ichiga olardi. Uning shad unvonli o‘g‘li boshchiligidagi xoqonlik



qo'shinlari Vizantiya imperatori Irakliy bilan birgalikda 627—628 yillarda Jan. Kavkazga safar uyushtiradi va bu yerdagi sosoniylar qo'shinini yengib, Tbilisi shahrini qo'lga kiritadi. Tun yabg'u g'arbiy hududlarda xrkimiyatni mustahkamlash maqsadida qarorgohini Shosh vohasining shimolidagi Mingbuloq (xitoycha Syantsyuan) mavzesiga ko'chiradi va boshqaruvda islohotlar o'tkazib qaram o'lkalarga turkiy tudun va eltabar unvonli vakillar jo'natadi. 630 yillarga kelib G'arbiy Turk xoqonligi ham bir muddat Xitoyga qaram bo'lib qoladi. Biroq tez orada o'z qudratini tiklab oladi. Xitoy manbalarida qayd etilishicha, Elbilga Ishbara yabg'u (630—641) ning qo'l ostida Sharqiy Turkistondagi Kucha, Shanshan, Cherchen, Xarashar (Krrashahar) hokimliklari va Shi (Shosh), Shi' (Kesh), Xe (KushoniyaKattaqo'rg'on), My (Marv), Kan (Sug'd) va Toxariston o'lkalari bo'lgan. Xoqonlik Istaming beshinchi bo'g'in avlodi bo'lmish Ulug' Ishbara (Xelu Shabolo; 651—657) xoqon hukmronligi davrida Xitoyga qarshi bir necha yil kurash olib boradi. Qapag'an xoqon (691—716) davrida xoqonlik mintaqadagi eng yirik davlatga aylanadi. U jiyanlari Qutlug' Eltarish xoqonning o'g'illari Bilga va Kultegin hamda To'nyuquq bilan birgalikda Xitoydagi Xuanxe daryosi g'avzalari hamda Shandun o'lkasiga yurish qilib, 23 ta shaharni qo'lga kiritadi, 699 yilda jan.g'arbga, sobiq G'arbiy Turk xoqonligi hokimiyatini qo'lga kiritgan turgashlarga va Toxariston o'lkasiga yurish qiladi. Qapag'an xoqon 700 y. Tangut o'lkasiga, 701 y. Xitoyning shimoli-g'arbidagi „Oltu Chub Sug'daq“ o'lkasiga, 703 yilda basmillarga, 705—706 yillarda bayirqularga, 709 yilda chik va azlarga, 710 yilda qirg'izlar va turgashyaarta qarshi qo'shin tortib ularni qaytadan o'z tarkibiga qo'shib oladi. Turk xoqonligi Movarounnahrda bostirib kirgan arab istilochilariga qarshi 710 yilda qo'shin yuboradi va Sug'd, Shosh, Farg'ona hokimlarining arablarga qarshi kurashida qatnashadi. Bilga xoqon (716—734) hukmronligi davrida Turk xoqonligi mintaqaning eng qudratli davlatlaridan biriga aylandi. 716 yilda Selenga daryosi havzasida istiqomat qiluvchi uyg'urlartg., 1YI yilda o'g'uzlarga, 718 yilda qarluqlarta qarshi jang qilib, ularni xoqonlikka bo'ysundiradi. Bu davrda xoqonlik hududlari sharqda Sirdaryoning sharqidan to g'arbda Xingan tog'lari yonbag'irlari (Manjuriya), Shandun o'lkasi (Xitoyning shim.sharqi, Sariq dengizdagi Boxay ko'rfazigacha bo'lgan yerlar)ni, janubda Tibetning shimoli, Sharqiy Turkiston, Xitoyning shim. viloyatlaridan to shimolida Yenisey daryosi va Baykalbo'yini o'z ichiga olganligi ma'lum bo'ladi. 740-yillarga kelib Turk xoqonligi ham ichki, ham tashqi ziddiyatlarga duch keladi. Bilga xoqonning o'g'illari hukmronligi davrida xoqonlik zaiflashadi. 742—744 yillarda uyg'ur, qarluq va basmil qabilalari birlashib, xoqonlikka hujum uyushtirishadi. 745 yilda ittifoqchilar Turk xoqonligining so'nggi hukmdori Baymey xoqonni o'ldirishadi va xoqonlik taxti uyg'urlar qo'lga o'tadi. Turk xoqonligini dunyoning eng yirik davlatlari qatoriga qo'shishda xoqonlar Bumin (551-552), Mug'on (553-572), Taspar (572—581), To'nga Turon (588—600), Shibi (609—619), Elxoqon (620—630), Qutlug' Eltarish (680—691), Bekcho'r Qapag'an (691—716), Bilga (716—734) va bosh vazir To'nyuquq (680—726),



shahzoda Kultegin (Ko‘l Tegin) (684—731) hamda O‘n O‘q boshqaruvi hukmdorlari Istami yabg‘u (552576), Tardu (576603), Tun yabg‘u (618—630) kabilar muhim rol o‘ynadilar. Ular davrida Turk xoqonligi tomonidan Xitoy, Sosoniylar Eroni, Vizantiya kabi dunyoning kuchli davlatlariga qarshi yurishlar uyushtiriladi. Turk xoqonligining boshqaruvida 2 xil tizim mavjud edi: bo‘ysundirilgan ba‘zi o‘lka va viloyatlarda mavjud mahalliy sulolalar saklanib qolgan va ular xoqonlikka o‘lpon to‘lab turganlar; tobe o‘lka va viloyatlarning ayrimlari boshqaruviga tayinlangan xukmdor xonadonga mansub vakillar hokimiyati. Bu paytda Sirdaryo va Amudaryo oraliq‘i hamda tutash hududlar Turk xoqonligi tarkibida bo‘lib, bu yerdagi Shoshda tudunlar, Farg‘onada ixshidlar, Ustrushonada afshinlar, Sug‘dda ixshidlar, Buxoroda buxorxudotlar, Xorazmda afrig‘iylar, Toxaristonda yabg‘ular hokimiyati mavjud edi. Ularning ba‘zilarining kelib chiqishi Turk xoqonligi qukmdor sulolasiga mansub bo‘lishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rajabov Alisher Shavkatovich. Mirbobo Nakshbandi as the great sufi scholar. / International scientific and practical conference “Innovative Development in the global science”. Boston (USA), 2022 – P. 18-22.
2. <https://zenodo.org/record/7419258#.ZDRLUXZByM8>
3. Rajabov Alisher Shavkatovich. Study of the manuscript of the work “Mirotus Solikiyn”. / International scientific conference “The role of science and innovation in the modern world”. London (United Kingdom), 2022. – P. 122-128.
4. <https://zenodo.org/record/7472104#.ZDRMeHZByM8>
5. Alisher Rajabov Shavkatovich. Mirbobo Naqshbandiy qalb zikri va uning turlari to‘g‘risida. / FarDU ilmiy xabarlar. 1-son. Farg‘ona, 2023. – B. 16-19.
6. Rajabov Alisher Shavkatovich. The work of “Mir‘otus Solikiyn” as a Theoretical Source of Naqshbandiya Tariqat. / Web of scholars: Multidimensional research journal. 1(8). 2022. – P. 18-21.
7. <https://www.innoscience.org/wos/article/view/567>
8. Rajabov Alisher Shavkatovich. About Bahouddin Naqshband in Mirbobo Naqshbandi’s Poetry. / International journal of formal education. 2022. – P. 1-5.
9. <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/455>
10. Rajabov Alisher Shavkatovich. Abu Nasr Farobiy. / Journal of Innovations in Social Sciences Volume: 01 Issue: 01 | 2021 ISSN: 2181-2594
11. 2021-yil, 20-noyabr. – B. 97-102
<http://www.sciencebox.uz/index.php/jis/article/download/274/266>
12. Rajabov Alisher Shavkatovich, Elibayeva Feruza Xamzayevna. O‘tkir qilich va qalam sohibi : Bobur merosi jahon olimlari nigohida. / Research and education 2022/2/25. – P. 647



13. <https://researchedu.uz/wp-content/uploads/2022/03/Navoi-and-Babur-conference.pdf#page=647>
14. Alisher Shavkatovich Rajabov. Mirbobo Naqshbandi on the truth of the soul. / Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations. 2022 Prague, Czech: 1 (7), 93-101
15. <https://zenodo.org/record/7467785#.ZDRR-XZByM8>
16. Rajabov Alisher Shavkatovich. Mir Babo Naqshbandi on the Heart of Arif and the Truth of Arif's Condition. / American Journal of Social and Humanitarian Research Vol:3 (12)2022, 50-54
17. <https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajshr/article/view/1780/1629>
18. Rajabov Alisher Shavkatovich. Mirbobo Naqshbandiy orif qalbi va orif holining haqiqati to'g'risida. / Ilm sarchashmalari. 1-son. Urganch, 2023. B 62-65.
19. A.Sh.Rajabov. "Mirotus solikyn" ("Tariqat soliklarining oynasi") asari – Naqshbandshunoslikda muhim manba. / Tarixiy xotira – o'zlikni anglash va milliy-ma'naviy taraqqiyot omili. 2022. B. 70-73.
20. A.Sh.Rajabov. Mir bobo Naqshbandiyning «Mir'otus Solikiyn» asarida qalbning tavsifi. / BuxDPI Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim mazmunini yanada takomillashtirish istiqbollari. Buxoro, 2022-yil, 25-aprel. – B. 707-771.
21. Alisher Rajabov. Mirbobo Naqshbandiy qalbi zikri va uning turlari to'g'risida. / Ilm-fan muommalati yosh tadqiqotchilar talqinida Respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi. 3-son. 2022-yil, 25-dekabr. – B. 130-137.
22. Sohibqiron Amir Temur davrida madaniyat va ilmiy bilimlarning rivojlanishi (aniq va tabiiy fanlar misolida) va taraqqiyot bosqichlari. International Scientific and Practical Conference Innovative development in the global science vol-2ISSUE-3 2023 Boston USA. 30.03.2023. B. 53-59
23. <https://academicsresearch.com/index.php/iditgs>
24. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi (Hindiston asari) xotiralari xususida ayrim chizgilar. International Scientific and Practical Conference "The role of science and innovation in the modern world". London, United Kingdom. 30.03.2023. B. 35-44.
25. <https://academicsresearch.ru/index.php/trsimw/article/view/1449>
26. Bahouddin Naqshbandga qasida bitgan murid. O'zbekiston Milliy axborot Agentligi. uza.uz. Ilm-fan elektron jurnal. B1-8.20.01.2023. https://uza.uz/uz/posts/bahouddin-naqshbandga-qasida-bitgan-murid_446829
27. Alisher Rajabov МИРБОБО НАҚШБАНДИЙНИНГ НАҚШБАНДИЯ ТАРИҚАТИ ТАМОЙИЛЛАРИ АСОСИДА БИЛДИРГАН ИЖТИМОЙ-АХЛОҚИЙ ҚАРАШЛАРИ. В-6-10. Vol. 2 No. 29 (2023): ИLM FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO'LLANILISHI
28. <https://academicsresearch.com/index.php/conference/issue/view/46>. В-6-10
29. МИРБОБО НАҚШБАНДИЙ ҚАЛБ ЗИКРИ ВА УНИНГ ТУРЛАРИ



30. ТЎҒРИСИДА Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida. B-130-137
31. <https://zenodo.org/record/7500616#.ZDTTJ3ZBzDc>
32. <https://cyberleninka.ru/article/n/mirbobo-na-shbandiy-alb-zikri-va-uning-turlari-t-risida>
33. Kenjayev S.N. Amir Temur's Ambassadorial Activity in Diplomatic Relations with China (Min State) (In the Case of Fu An) // Impact Factor: 9.2, ISSN-L: 2544-980X.- Miasto Przyszłości Kielce, 2022. 112-114 P.
34. Ру Ж.-П. Тамерлан / Жан-Поль Ру; пер с фр. Е.А. Соколова; послесл; В.Л. Егорова. Прил. - 4-е изд. – М.: Молодая гвардия, 2007. – 295 с [9] с.: ил.
35. Мухаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати (тарихий очерк). – Т.: Қомуслар Бош тахририяти, 1994. – 160 б.
36. Sardor Nurmurodovich Kenjayev, Komron Mahmud o'g'li Zayniev. Amir Temur davlati va Xitoy Min sulolasi aloqalarida otlar savdosi xususida (cyberleninka.ru) Vol. 3 No. (2022): Science and Education. 634-639.
37. Kenjayev S.N. Amir Temur davlati va Xitoy (Min) imperiyasi o'rtasidagi savdo aloqalari tarixidan // "O'tmishga nazar" 4 jild, 10-son, Doi Jurnal 10.26739/2181-9599. – TOSHKENT 2021.- B.67-74. ИЗ ИСТОРИИ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ ГОСУДАРСТВА АМИРА ТЕМУРА И КИТАЙСКОЙ (МИН) ИМПЕРИИ | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ (tadqiqot.uz)
38. Кенжаев С.Н. Амир темур ва хитой давлати ўртасидаги харбий муносабатлар ўзаро тўқнашув хафининг вужудга келиши ЎЗМУГА Кенжаев С.Н (fayllar.org) // ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ, 1/9. – Тошкент, 2022.-Б.18-21. О'zMU xabarлари Вестник НУУз АСТА NUUZ
39. Сардор КЕНЖАЕВ. Amir Temurning Xitoy (Min davlati) harbiy yurishga tayyorgarlik jarayonlari va uni keltirib chiqaruvchi omillar // SOHIBQIRON YULDUZI. Ижтимоий-тарихий, илмий ва оммабоп журнал. №3(49). – Қарши, 2022. 25-30 б.
40. Kenjayev S.N. . Amir Temur's Ambassadorial Activity in Diplomatic Relations with China (Min State) (In the Case of Fu An) | Miasto Przyszłości (miastoprzyszlosci.com.pl) // Impact Factor: 9.2, ISSN-L: 2544-980X.- Miasto Przyszłości Kielce, 2022. 112-114 P
41. Кенжаев С.Н. Amir Temurning Xitoy bilan munosabatlari va Tayzi o'g'lon faoliyati (cyberleninka.ru) // Science and education scientific journal, ISSN 2181-0842 VOLUME 3, ISSUE 5. ISSN 2181-0842.- Т.: 1493-1497 б.
42. Кенжаев С.Н. Trade and economic relations between Amir Temur's state and the Min dynasty // International symposium of young scholars. – USA, 2021. 480-481 P. <https://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/article/download/485/455/1746>
43. Кенжаев С.Н. Factors of Amir Temur's military march to china and the international political situation // Euro Asian Conference on Analytical Research,

ISBN: 978-1-913482-99-2.-Germaniya, 2021.115-117 p. (buxdupi.uz)
4.Germaniya+pdf.+Kenjayev+S.N..pdf

44. Кенжаев С.Н. Хитой сари юришга тайёргарлик жараёнлари ёхуд Амир Темур ҳаётининг сўнгги кунлари. // “Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Buxoro, 2022. 52-57 б. Хитой сари юришга та й ёргарлик жараёнлари....

45. 10.Кенжаев,С.Н.(2022). АМИР ТЕМУР ВА ХИТОЙ ДИПЛОМАТИК МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ОБЪЕКТИВ ВА СУБЪЕКТИВ ОМИЛЛАРИ | Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot (in-academy.uz) - *Zamonaviy Dunyoda Innovatsion Tadqiqotlar: Nazariya Va Amaliyot, 1(26)*, 130–135. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/5925>. Тошкент, 2022.18-22 б.

46. КЕНЖАЕВ, С. . АМИР ТЕМУРНИНГ ХИТОЙ ЮРИШИ ВАҚТИДА ЖАНУБИЙ ВА ШИМОЛИЙ САРҲАДЛАР ХАВФСИЗЛИГИНИ МАСАЛАЛАРИ. | Zamonaviy dunyoda tabiiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar (in-academy.uz) (2022). // *Zamonaviy Dunyoda Tabiiy Fanlar: Nazariy Va Amaliy Izlanishlar, 1(25)*, 18–22. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdtf/article/view/5923>–Toshkent, 2022. 131-134 б.

47. Кенжаев С. Н. Important issues of important of improving the immunity of security, international harmony, religious tolerance in the state of Amir Temur // Янги Ўзбекистонда маънавий тараққиёт асосларини кучайтиришнинг долзарб масалалари. – Бухоро, 2022. 238-241 б. Продолжение работы на этом сайте заблокировано. (buxdupi.uz)

48. Кенжаев С. Н. АМИР ТЕМУР ВА ХИТОЙ МУНОСАБАТЛАРИДА САВДОГАРЛАР ТАБАҚАСИНИНГ ИЖТИМОИЙ ҲАЁТДАГИ ЎРНИ | Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya (in-academy.uz) // «Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya» nomli ilmiy-amaliy konferensiya.–Toshkent, 2022.- 1 pp. 58-60 (7)

49. Kenjayev S. THE IMPORTANCE OF THE NORTHERN AND SOUTHERN NETWORK OF THE GREAT SILK ROAD IN AMIR TEMUR'S RELATIONS WITH CHINA | Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot (in-academy.uz) (2022) 1(28), 207–209. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7456181>

50. Kenjayev S.N. Амир Темурнинг Хитой билан муносабатларида Шимолий савдо йўлининг аҳамияти/ International cjnferenct dedicated to the role and important of innovative education in the 21st centyre 2022/7.197-199.

51. Kenjayev S.N. Amir Temur davlati va Xitoy Min sulolasi aloqalarida otlar savdosi xususida. - Science and Education, 2022

52. Kenjayev, S Murtazoyev, S Nematova, S Melsova.ROMITAN HUDUDIDA DASTLABGI ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING TAHLILI/S Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya 1 (7), 53-57



[file:///C:/Users/Admin/Downloads/ZDIFT0713%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/Admin/Downloads/ZDIFT0713%20(1).pdf). Кенжаев: ва Хитой муносабатлар...

53. S.N.Kenjayeov, K.M. Zayniev. Amir Temur davlati va Xitoy Min sulolasi aloqalarida otlar savdosi xususida //- Science and Education, 2022 AmirRelated articles All 2 versions

54. Жасур Латипов, Сардор Кенжаев / Елюй Чуцай: Мўғуллар империясининг буюк мутафаккири [Матн] : рисола / Ж.Латипов, С.Кенжаев.- Бухоро: “БУХОРО ДЕТЕРМИНАНТИ”МЧЖнинг Камолот нашриёти, 2022-48 б.

55. Kenjayeov, S. N. o'g'li, & Xurramova, G. I. qizi. (2023). USMONIYLAR DAVLAT BOSHQARUVIDA QOZILAR TAYYORLASH MASALARI XUSUSIDA AYRIM CHIZGILAR. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS "*, 2(2), 144–153.

Retrieved from <http://academicsresearch.ru/index.php/ispcttosp/article/view/1300>. | Zenodo <https://academicsresearch.com/index.php/iditgs/article/view/1817>

56. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7678097>

57. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7675191>

58. <https://academicsresearch.ru/index.php/ispcttosp/article/view/1300>

59. <https://academicsresearch.ru/index.php/trsimw/article/view/1193>

60. <https://scholar.google.ru/citations?hl=en&user=TlZD1hAAAAAJ>

61. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7456181>

62. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7426147>

63. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7426141>

64. Kenjayeov Sardor Nurmurod o'g'li, Xolmurodova Madina, Salimova Nozima, Amonova Ruhshoda, & Aktamova Nafosat. (2023, February 26). MIN SULOLASI DAVRIDAGI XITOIY ARMIYASI (XIV-ASRNING 70 YILLARI - XV-ASR BOSHLARI). *TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE*, Ankara, Turkey. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7678098> <https://academicsresearch.com/index.php/icpass/article/view/1864>

65. Kenjayeov Sardor Nurmurod o'g'li, Nematova Nigina, Xalilov Behruz, Mardonova Feruza, & Mirzayeov Nusrat. (2023, February 13). TEMURIYZODA SHAHZODALARNING HINDISTON EGALLASH JARAYONIDAGI JASORATI XUSUSIDA. *PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS*, Australia, Melbourne. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7692302>

66. Кенджаев Сардор, Мелсова Шахина, Юсупджонова Марджона, Раупова Нозигуль и Рахматов Мурод. (2023, 26 февраля). ПРИГОТОВЛЕНИЯ АМИРА ТЕМУРА К ИНДИЙСКОЙ ВОЕННОЙ КАМПАНИИ. ПРОБЛЕМЫ И НАУЧНЫЕ РЕШЕНИЯ, Австралия, Мельбурн. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7678582>. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7678581>



67. Кенджаев Сардор Нурмуродович, Уринов Шахджахан Джамшидович, Хакимова Дилнура И Полатова Шохинабону. (2023, 24 февраля). НЕКОТОРАЯ ИНФОРМАЦИЯ О ХИЩНЫХ КОШАЧЬИХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ЛИТЕРАТУРЕ ПО ИСТОРИИ ДРЕВНЕГО МИРА. ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ В ГЛОБАЛЬНОЙ НАУКЕ, Бостон, США. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7675192>

Современная фотожурналистика стала возможна с изобретением малогабаритной камеры и высокочувствительных плёнок. Появление малоформатной фотографии, представленной в 1925 году немецкими фотоаппаратами «Leica», внесло много значительных изменений в каждую область фотографии. Новый формат позволил фотографам увидеть обычные и привычные объекты в новых, более смелых перспективах и расширил их возможности лучше видеть и оценивать их очертания и формы в пространстве.

В середине 19 века француз Жозеф Нисофер Ньепс (1765-1833), Луи-Жак Манже Дагер (1787-1851), и англичанин Вильям Фокс Генри Тальбот (1800-1877) стали первооткрывателями в области фотографии. Французский художник Луи-Жак Манже Дагер в 1837 году способом фотографии сделал самое качественное изображение. В данном фотоснимке Луи-Жак Манже Дагер изобразил сложным натюрморт.

Жанры фотожурналистики:

Новостная фотожурналистика

Ежедневная съёмка текущих событий, не важно - местного или международного масштаба. Материалы, относящиеся к международным событиям, поставляют на мировой рынок такие агентства, как Reuters, AP и AFP, а локальные новости - прерогатива более мелких и специализированных агентств или только начинающих карьеру свободных фотографов.

Репортажная фотожурналистика

Репортаж - это та же работа с новостями, но растянутая во времени: в среднем на неделю. Хороший репортаж - это история, и фотограф должен уметь рассказать эту историю достаточно увлекательно и ярко.

Документальная фотожурналистика

По сути, это тот же репортаж, но уже заключённый в жёсткие временные и редакторские рамки.

Становление фоторепортажа тесно связано с периодической печатью. Первые шаги он сделал на страницах журналов, хотя истоки фоторепортажа обнаруживаются еще в XIX веке. Они просматриваются в попытках фотографов овладеть съёмкой «сцен с движением».

В современной практике отечественной фотожурналистики можно выделить три разновидности фотозаметок: некомментирующую, комментирующую и развернутую.

Фоторепортаж должен строиться обдуманно, а не состоять из случайных снимков и «дежурного» текста. Нередко говорят о главном



кадре изобразительного ряда, тем самым как бы подчеркивая второстепенность остальных. Точнее здесь упомянуть о кульминационном моменте, но он не бывает без предшествующего развития сюжета, вот почему важно показать выразительно все фрагменты события.

ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Березин.А. Фотожурналистика. 2006г.
2. Каюмов.А. Фотожурналистика Ташкент 2011г
3. Ворон.Н.И. Жанры фотожурналистики 2012г



C++ DASTURLASH TILIDA STREOMETRIK MASALALAR YECHISH HAMDA ULARNING AMALIYOTGA TATBIQI

O.T.Muhiddinova

*Muhammad AL Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti m.f. dotsenti, Phd*

K.X. Voxidov

*Muhammad AL Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti 1-bosqich bakalavri*

Anotatsiya: *Malumki bugungi kunda Phyton, Java, Java S, Delphi kabi ko'plab dasturlash tillari keng ko'lamda foydalanib kelinmoqda. Biroq ushbu dasturlash tillarining asoslari bo'lmish C hamda C++ tillari ham amaliyotda o'z mavqeyini yo'qotmagan. Ushbu ilmiy maqolamiz orqali biz C++ tilida maktab o'quvchilari uchun biroz qiyin bo'lgan streometrik masalalarni C++ tilida yechish va ushbu dasturni tuzishni yoritmoqchimiz. Streometriyada o'quvchilarni asosan qiynadigan mavzu ayqash to'g'ri chiziqlar orasidagi burchakni topish masalasiga asosiy e'tiborni qaratamiz.*

Tayanch so'zlar: *C++ dasturlash tili, streometrik masalalarni yechishdagi muammolar, ayqash to'g'ri chiziqlar, ayqash tog'ri chiziqlar orasidagi burchaklar, koordinatsion metod yordamida streometrik masalalarni yechish, C++ dasturlash tilidagi matematik funksiyalar va ularning vazifalari.*

KIRISH

Matematika amaliyotda juda ko'p masalalarni yechishda yordam beradi. Iqtisodiyot, moliya, arxitektura va qurulish, informatsion texnologiyalarni algoritmlashtirish shular jumlasidandir. Biz bu maqolaning mavzusini tanlash uchun maktab, kollej va akademik litseylarda o'quvchi va talaba yoshlar o'rtasida so'rovnoma olib bordik. So'rovnoma natijalariga ko'ra oq'uvchi abituriyentlarni asosan matematikada streometriya masalalari muammo tug'dirishi ayrimlarda fazoviy tasavvur kamligi uchun amaliyotda uchraydigan streometrik muammolarni hal qilishga biroz o'ylanishadi. Biz maqolada yoritmoqchi bo'lgan mavzu esa aynan shunday fazoviy taasuroti yaxshi rivojlanmagan yoki streometriyaga qiynaladigan ammo kasbi uchun geometriya suv va havodek kerak bo'ladigan insonlar uchun. Maqolamizni soddaroq qilish uchun biz streometrik jismlardan namuna sifatida parallelepipedni tanlab oldik va ushbu parallelepipedda 24 ta to'g'ri chiziq yani 12 ta holat uchun masalalarga dastur tuzdik. Dasturni matematik modellashtirish jarayonida maktab o'quvchisi uchun uncha yaxshi bo'lmagan koordinatsion metoddan foydalandik. Bu metod maktab programmasida yo'q ekanligini hisobga olib maqolamizda yana bir ommalashmagan metoddan




foydalandik. Agarda ayqash to'g'ri chiziqlar uchun geometrik yo'ldan borsak ishimiz ancha qiyinlashadi. Chunki ushbu metod qo'shimcha chizma va hisoblashlarni talab etadi va yakunda dasturning sifatiga ta'sir o'tkazishi mumkin.

Streometrik jismni 3 o'lchamli koordinataga qo'yish ham aslida o'quvchidan chizmachilik ko'nikmalarini talab qiladi. Biroq bu ish qo'shimcha chizmalar o'tkazishdan yengilroq. Ayqash to'g'ri chiziqlar bilan ishlash arxitektura sohasida ayniqsa qo'l keladi. Proektning turli qismlarida joylashgan to'g'ri chiziqlar orasidagi bog'liqlikni topishda bu dastur qo'l keladi.

ASOSIY QISIM

Ayqash to'g'ri chiziqlar degan termini ko'p ishlatdik. Keling dastlab ayqash to'g'ri chiziqlar bilan vazifa bajarishdan oldin ularga ta'rif beramiz.


Ayqash to'g'ri chiziqlar-turli tekisliklarda yotuvchi va o'zaro kesishmaydigan to'g'ri chiziqlar.



1-rasm. Ayqash to'g'ri chiziqlar .

Endi esa parallelepipedda ayqash to'g'ri chiziqlar orasidagi burchakni koordinatsion yo'l bilan topishni ko'ramiz.

Masala. Bizga $ABCD A_1 B_1 C_1 D_1$ parallelepiped berilgan bo'lsin. Parallelepipedning balandligi 5 ga asosidgi to'g'ri to'rtburchakning bo'yi 4 ga eni esa 3ga teng. BE va DC_1 tog'ri chiziqlar orasidagi burchakni toping. (E nuqta $A_1 B_1$ tomon o'rtasi).



AA1 tomonni oz o'q deb AB tomonni OX o'q deb, DC tomonni esa Oy o'q deb qabul qilamiz. U holda har bir nuqta o'z koordinatasiga ega bo'ladi. Ya'ni

$A(0,0,0)$, $B(0;4;0)$, $D(3;0;0)$ $C(3;4;0)$, $A_1(0;0;5)$, $B_1(0;4;5)$, $C_1(3;4;5)$,

U holda E nuqtaning koordinatasi $(E(x,y,z))$;

$X=(X_{a1}+X_{b1})/2$; $Y=(Y_{a1}+Y_{b1})/2$; $Z=(Z_{a1}+Z_{b1})/2$;

$x=0$; $y=2$; $z=5$; U holda BE vector koordinatalri

$BE(0-0;2-4;5-0)$ yani $BE(0;-2;5)$. DC1 ning koordinatalari esa

$DC_1(0;4;5)$;

Ikki vektor orasidagi burchakni topish formulasini eslatib o'tamiz;

A burchak bo'lsin. Demak ;

$A=\arccos((BE,DC_1)/|BE|*|DC_1|)$

$(BE,DC_1)=0*0+(-2)*4+5*5=17$; $|BE| = \sqrt{(0+4+25)} = \sqrt{29}$; $|DC|= \sqrt{49}$

U holda

$A=\arccos(17/\sqrt{(41*29)})=60.4919^\circ$ demak Javob: 60.4919°

Ko'rib turganingizdek juda ham qiyinchilik tug'ulmadi ana endi esa shu masala uchun C++ dasturlash tilida kod yozib dastur tuzaylik.

```
#include<iostream>// kutubxona
```

```
#include<cmath>// matematik amala bajaruvchi kutubxona
```

```
using namespace std;// fazo
```

```
int main() {// bosh funksiya
```

```
int k;
```

```
double
```

```
y,
```

```
AA1, BB1, CC1, DD1, AB, AD, DC, BC, A1B1, A1D1, B1C1, D1C1, BE;
```

```
//
```

```
parallelepiped tomonlari;
```

```
float
```

```
A[3],
```

```
B[3], C[3], D[3], A1[3], B1[3], C1[3], D1[3], E[3], E1[3], E2[3], E3[3], E4[3], E5[3], E6[
```

```
3], E7[3], E8[3], E9[3], E10[3], E11[3], L[3], K[3]; // har bir nuqtani massiv
```

```
ko'rinishida oldik;
```



```
string s1,s2;// ushbu qatorlar funksiyasidan biz o'zimizga kerakli ikkita
to'g'ri chiziqni kirgazish uchun oldik;
cout<<"To'g'ri burchakli parallelepipeddagi ikki ayqash to'g'ri chiziq
orasidagi burchakni topish"<<endl;
cout<<"\nBalandlikni kiriting: ";
cin>>AA1;// balandlik ni kirgazish;
cout<<"\nEnini kiriting: ";
cin>>AD;// asos enini kirgazmoqdamiz;
cout<<"\nBo'yini kiriting: " ;
cin>>AB;// asos boyini kirgazmoqdamiz;
cout<<"\nDemak tassavur qiling sizning parallapipedingiz
ABCD A1B1C1D1 parallapiped va u holda: "<<endl;
cout<<"\nE ,E1,E2,E3,E4,E5,E6,E7, E8, E9, E10,E11 mos ravishada
A1B1, A1D1, B1C1, D1C1, AB, AD, BC, DC, AA1, BB1, CC1, DD1
tomonlarning o'rtasi"<< endl;
cout<<"\nAA1=BB1=CC1=DD1="<<AA1;
cout<<"\nAD=BC=A1D1=B1C1="<<AD;
cout<<"\nAB=DC=A1B1=D1C1="<<AB;
cout<<"\nKerakli to'g'ri chiziqni tanlang: "<<endl;
cout<<"\nbirinchi tog'ri chiziq : " ;
AA1==BB1==CC1==DD1;
AD==BC==A1D1==B1C1;
AB==DC==A1B1==D1C1;// ushbu holatda tomonlarning moslarini bir
biriga teng ekanligi ko'rsatilmoqda;
cin>>s1;
cout<<"\nikkinchi to'g'ri chiziq: ";
cin>>s2; // 1- va 2- to'g'ri chiziqlar kirgizilyapti;
A[3]==(0,0,0);
B[3]==(0,AB,0);
D[3]==(AD,0,0);
C[3]==(AD,AB,0);
A1[3]==(0,0,AA1);
B1[3]==(0,AB,AA1);
C1[0]==AD;
C1[1]==AB;
C1[2]==AA1;
D1[3]==(AD,0,AA1);
E[0]==0;
E[1]==AB/2;
E[2]==AA1;
E1[3]==((A1[0]+D1[0])/2,(A1[1]+D1[1])/2, (A1[2]+D1[2])/2);
```



```
E2[3]==((B1[0]+C1[0])/2,(B1[1]+C1[1])/2,(B1[2]+C1[2])/2);
E3[3]==((D1[0]+C1[0])/2,(D1[1]+C1[1])/2,(D1[2]+C1[2])/2);
E4[3]==((A[0]+B[0])/2,(A[1]+B[1])/2,(A[2]+B[2])/2);
E5[3]==((A[0]+D[0])/2,(A[1]+D[1])/2,(A[2]+D[2])/2);
E6[3]==((B[0]+C[0])/2,(B[1]+C[1])/2,(B[2]+C[2])/2);
E7[3]==((D[0]+C[0])/2,(D[1]+C[1])/2,(D[2]+C[2])/2);
E8[3]==((A1[0]+A[0])/2,(A1[1]+A[1])/2,(A1[2]+A[2])/2);
E9[3]==((B1[0]+B[0])/2,(B1[1]+B[1])/2,(B1[2]+B[2])/2);
```

// Biz tepadagi holatda massiv elementlaridan foydalanib koordinatalarni aniqlab oldik. Dasturimiz tushunarlik bo'lishi uchun.

```
if(s1=="BE"&& s2=="DC1") {
    k=1;
}
else if(s1=="BE2"&& s2=="A1D") {
    k=2;
}
else if(s1=="DE3"&& s2=="A1B") {
    k=3;
}
else if(s1=="AE1"&& s2=="BC1") {
    k=4;
}
else if(s1=="AE6"&& s2=="DC1") {
    k=5;
}
else if(s1=="A1B"&& s2=="DC1") {
    k=6;
}
else if(s1=="AC"&& s2=="DC1") {
    k=7;
}
else if(s1=="B1E4"&& s2=="D1C") {
    k=8;
}
else if(s1=="B1E5"&& s2=="D1C") {
    k=9;
}
else if(s1=="A1E3"&& s2=="D1C") {
    k=10;
}
else if(s1=="D1E5"&& s2=="B1C") {
```



```
k=11;
}
else if(s1=="D1E7"&&S2=="B1C") {
k=12;
}
else {
cout<<"dasturdagi kamchlik uchun uzur so'raymiz";
}
cout<<"\nbu ikki to'g'ri chiziq orasidagi burchak : ";
if shart operatori yordamida biz 12 ta holat uchun qaysidir ma'noda asos
yasab oldik;
switch(k)
{
case 1:
y=(((AB/2-AB)*AB+AA1*AA1)/(sqrt((-AB/2)*(-
AB/2)+AA1*AA1))*sqrt(0+AB*AB+AA1*AA1));
cout<<acos(y)*180/3.14<<"°";// o'quvchi ilk bor tanishishi mumkin
bo'lgan unksiya accos funksiyasidr. Ushbu funksiya -1 dan 1 gacha bo'lgan
oraliq uchun ishlaydi. Aks holda nan qiymat qaytaradi. Funksiyaning vazifasi
biror bir o'zgaruvchining arccos ni topishdir. Asosan double, long double tiplar
bilan ishlaydi.
break;
case 2:
y=((AD/2)*AD+0-
AA1*AA1)/(sqrt((AD/2)*(AD/2)+0+AA1*AA1))*sqrt(AD*AD+0+AA1));
cout<<acos(y)*180/3.14<<"°";
break;
case 3:
y=((AB*AB+AA1*AA1)/(sqrt((-AD/2)*(-
AD/2)+AB*AB+AA1*AA1))*sqrt(AB*AB+AA1*AA1));
cout<<acos(y)*180/3.14<<"°";
break;
case 4:
y=((0+0+AA1*AA1)/(sqrt(0+(AB/2)*(AB/2)+AA1*AA1))*sqrt(AD*AD+0+A
A1*AA1));
cout<<acos(y)*180/3.14<<"°";
break;
case 5:
y=((AD/2)*0+AB*AB)/(sqrt((AD/2)*(AD/2)+AB*AB))*sqrt((0+AB*AB+AA1
*AA1));
cout<<acos(y)*180/3.14<<"°";
```



```
case 6:
y=((-
AB*AB+AA1*AA1)/(sqrt(0+AB*AB+AA1*AA1)*sqrt(0+AB*AB+AA1*AA1)));
cout<<acos(y)*180/3.14<<"°";
break;
case 7:
y=((AD*0+AB*AB+0)/(sqrt(AD*AD+AB*AB)*sqrt(AA1*AA1+AB*AB)));
cout<<acos(y)*180/3.17<<"°";
break;
case 8:
y=((0+AB/2*AB+0)/(sqrt(0+AB*AB+AA1*AA1)*sqrt(0+AB/2*AB/2)));
cout<<acos(y)*180/3.14<<"°";
break;
case 9:
y=((AD/2*0-AB*AB-
AA1*AA1)/(sqrt((AD/2)*(AD/2)+AB*AB+AA1*AA1)*sqrt(0+AB*AB+AA1*AA1)
));
cout<<acos(y)*180/3.14<<"°";
break;
case 10:
y=((0-
AB*AB/2+0)/(sqrt(AA1*AA1+AB*AB)*sqrt(AD*AD+(AB/2)*(AB/2))));
cout<<acos(y)*180/3.14<<"°";
break;
case 11:
y(((((-AD/2)*AD+0+AA1*AA1)/(sqrt((-AD/2)*(-
AD/2)+0+AA1*AA1)*sqrt(AD*AD+AA1*AA1))));
cout<<acos(y)*180/3.14<<"°";
break;
case 12:
y((((0+0+AA1)/(sqrt(0+(-AB/2)*(-
AB/2)+AA1*AA1)*sqrt(AD*AD+AA1*AA1+0))));
cout<<acos(y)*180/3.14<<"°";
break;
}
return 0;}
```

Endi esa ushbu dastur natijalaini tadim etamiz.



To'g'ri burchakli parallapipeddagi ikki ayqash to'g'ri chiziq orasidagi burchakni topish

Balandlikni kiriting: 5

Enini kiriting: 3

Bo'yini kiriting: 4

Demak tassavur qiling sizning parallapipedingiz ABCDA1B1C1D1 parallapiped va u holda:

E ,E1,E2,E3,E4,E5,E6,E7, E8, E9, E10,E11 mos ravishada A1B1, A1D1, B1C1, D1C1, AB, AD, BC, DC, AA1, BB1, CC1, DD1 tomonlarning o'rtasi

AA1=BB1=CC1=DD1=5

AD=BC=A1D1=B1C1=3

AB=DC=A1B1=D1C1=4

Kerakli to'g'ri chiziqni tanlang:

birinchi tog'ri chiziq :BE

ikkinchi to'g'ri chiziq: DC1

bu ikki to'g'ri chiziq orasidagi burchak : 60.4919°

Ko'rib turganingizdek natijalar bir xil.

XULOSA

Bugungi kunda C++ tilida yangi dasturlar ishlatilmoqda. Ammo ular ichida matematik, yoki matematik masalalarni hal qiluvchi dasturlar kam. Boshqa dasturlash tillarida yozilgan dasturlar ham streometrik masalalarni yechishda xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Ammo bugun biz maqolamizda ko'rib chiqqan dasturimiz esa streometriya, va talabalarni qiynagan ayqash to'g'ri chiziqlar orasidagi burchaklarni topishda bir muncha xatolardan holi. Dastur bajarilish asnosida har bir harakatini har bir qadamni va belgilshlarni foydalanuvchiga ko'rsatib tushuntirib o'tadi. Biz yaratgan dasturimiz nafaqat C++ tilida balki boshqa dasturlash tillarida ham qo'llanilishi va asos bo'lishi mumkin. Amaliyotda ushbu dastur o'z nomi bilan streometriyadagi qiyin murakkab masalalarni osonlashtiradi, arxitekturada va qurulish jarayonida quruvchi injinrlarning vaqtini tejaydi va yuqori aniqlikdagi ko'rsatkich bilan ish samaradorligini oshiradi. Koordinatsion metod orqali nafaqat qurulish balki trassalardagi mashinalar harakatini ham nazorat qilish va analitik tahlil qilish mumkin. Dasturimiz koordinatsion metodga asoslangan ekan demak ushbu dastur orqali 3 o'lchamli fazodagi hodisalarni tahlil qilishimiz mumkin. Biz bu dasturni "SAVOSTreometric" deya nomladik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharigin "Учебное пособие по геометрии"// Moskva-1994;
2. T.N Qori Niyoziy "Analitik geometriya"// O'qituvchi-1970;
3. Gilbert Shildt "Справочник по C++" // VILYAMS; Москва- 2006

FOYDALANILGAN SAYTLAR:

1. <https://www.guru999.com;>

**OSHIQ BO'LIBSAN, BO'LMAG'IL G'OFIL****Abdurahmonova Durdona***O'zbekiston jahon tillari universiteti xorijiy til va adabiyoti*

Malaksan yo bashar, yo huru g'ilmonsan, bilib bo'lmas, Bu lufu bu nazokat birla sendin ayrilib bo'lmas.

Ajab berah dilbarsan, ajab sho'xi sitamgarsan, Charog'i husni ro'yingdin ko'ngilni ham uzib bo'lmas.

Yuzungni oftobini ko'rub hayron bo'lub qoldim, Falakka qul uzotib, shamsi alamni olib bo'lmas.

Yuzung misli qizil guldur, ko'ngul chun bulbuli shaydo, Bu gulni ishqidin bulbul chamandin ayrilib bo'lmas.

Kel, ey Mashrab, agar oshiq bo'lubsan, bo'lmag'il g'ofil, Bu g'aflat uyqusidin, ey yoronlar, uyg'onib bo'lmas.

Bu g'azal namanganlik shoir Boborahim Mashrab qalamiga mansub bo'lib, bu shoir mana shunday betakror g'azal va she'rlar muallifidir. Adib g'azalda to'g'ridan – to'g'ri yorga murojaat qiladi. Ya'ni yor, sen insonmisan yoki jannat huri ekanliging bilib bo'lmas, sendagi lutf va nazokat birla ayrilib, voz kechib bo'lmas. Ajabo, judayam dilbarligingdan ko'ngilni uzib bo'lmaydi. Uchinchi baytda yuzini ko'rib hayron-u lol qolganini, shuningdek falakka qo'l uzatsa ham shamsi anvarni olib bo'lmasligini aytib o'tadi. „Shamsi anvar” so'zining ma'nosi „yorug' quyosh” degan ma'noni izohlaydi. To'rtinchi baytda esa yuz qizil gulga o'xshatiladi. Va qizil gulga bulbul yang'lig' ko'ngli shaydo, hatto bulbul ham bu gul ishqidan chamanidan ayrilolmaydi. Maqtada shoir o'ziga murojaat qilib, oshiq bo'lsang ham g'ofil bo'lma, aks holda, bu g'aflat uyqusidan uyg'onib bo'lmasligini ta'kidlab o'tadi.

Endi Boborahim Mashrabning hayoti va ijodiga to'xtaladigan bo'lsak, uning tug'ilgan yili noma'lum. Ammo olimlarning fikricha adib 1640 yoki 1653 yillarda Namanganda tavallud topgan. Mashrab dastlab namanganlik mashhur so'fiy Xo'ja Ubaydullo qo'lida tahsil oladi. So'ng 23 yoshida Qashqarga – eshon Hidoyatullo Ofoq Xoja huzuriga boradi va u yerda 7 yil Ofoq Xo'ja tarbiyasini oladi. Hattoki, Ofoq Xo'ja adibga „Mashrab” taxallusini olib bergan. Buning ma'nosi arabchada „fe'l-atvor, xulq, odat” yoki „ichimlik ichiladigan joy” degan ma'noni ifodalaydi.

„Qissayi Mashrab” asarida Mashrabning yoshligi g'amgin, majnunsifat va odamovi sifatida tasvirlangan. Chunki u yurgan yo'lida turli xil bayt-u g'azallar aytar, bundan tashqari g'ayri oddiy odatlari va harakatlari ota-onasini balki xaloyiqni ham hayratga solardi.



Mashrab o'spirinlik davrida qayerda go'riston bo'lsa, u yerga borib ziyorat qilar va odam suyaklariga: „ Ey odamzod, oxir o'lib boshingga tushadurg'on ish bu”,- deb aytib yig'larkan. Ko'rib turganingizdek Mashrab g'ayritabiiy xarakter egasi. U har doim haq va haqiqat uchun jon fido qilishga tayyor shaxs bo'lib, Allohni sevdi va uning uchun yonib yashadi.

Boborahim Mashrab 1711-yilda Qunduz shahrida Balx hokimi bo'lgan Mahmud Qatag'on buyrug'I bilan dorga osilgan.

Adib o'zbek adabiyotining yirik tasavvuf vakillaridan biri bo'lib, u asarlarida maqol va iboralardan unumli foydalana olgan. Mashrab asarlarining katta qismi sahli mumtane janrida yozilgan. Bundan tashqari, adib „Devoni Mashrab”, „Hazrati Shoh Mashrab”, „Eshoni Mashrab” singari qo'lyozma va tazkiralari; „O'rtar”, „Ajab majnun erurman, dasht ila sahrog'a sig'mamdur”, „Kokulung anbardurur, jon ichida jonon qiz...”, „Mabdayi nur”, „Xoh inon, xoh inonma”(Lutfiy g'azaliga tazmin), „Keldi”, „Na g'urbatlarni chektim, charxi bebunyod dastingdan...” asarlari muallifi.

MURABBA'LARI

Dastingdan

Ne g'urbatlarni chektim charh bebunyod dastingdin,
Mudom motamda qoldim, bo'lmadim dilshod dastingdin,
Tamomi xonumonim bo'ldi chun barbod dastingdin,
Qafasdin bo'lmadimki qumridek ozod dastingdin
Ki men har qayga borsam, dod etarman, dod dastingdin.

Dilimning quvvati, ruhi ravonimdin ayirdilar,
Ko'zimning oqi yanglig' mehribonimdin ayirdilar,
Azizim, hamdamim, oromijonimdin ayirdilar,
Jahon gulzorida ul gulistonimdin ayirdilar,
Hama obod bol'di, bo'lmadim obod dastingdin
Ki men har qayga borsam, dod etarman, dod dastingdin.

CHamanda bulbuli sho'ridadurman, oshyonim yo'q,
Misoli chug'dek vayronalarda ham makonim yo'q,
Vafolig' yor deb chiqti, jasadda balki jonim yo'q,
Azizimdin judo bo'ldum, boshimda soyabonim yo'q,
Hama obod bol'di, bo'lmadim obod dastingdin
Ki men har qayga borsam, dod etarman, dod dastingdin.

Tasavvuf bu Mashrab dunyoqarashining cheklangan tomonlari emas, balki ichki dunyosidir. Bu murabba' tasavvuf ta'limotining bir mevasi.



Bundan tashqari, shoirning ko'pchilik orifona she'rlari, g'azallarida haqiqiy sevgi, Allohga bo'lgan ishq kuylangan.

„Mashrab zamonasida keng yoyilmoqda, qalandarlikning yirik vakili sifatida tanilgan va xalq ichida katta ta'sirga ega shoirdir. Qalandarlik vakillari rasmiy islom va uning qonunlarini himoya qiluvchi hokimlarga, rasmiy ortodoksal ruhoniylarga qarshi kurashar, ularni shiddatli tanqidga olar edilar”,- deb Boborahim Mashrab to'g'risida S. Husayniy va O.SHarafiddinovlar ta'riflab o'tishgan. Demak, tepada aytilgan fikrlardan kelib chiqsak bo'ladiki, Mashrab o'z zamonasining orif va obid, bilimli shaxslaridan bo'lgan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Internet research. <https://kh-davron.uz>
2. Registon Kutubxonasi. Sharafjon Sariyev, metodik qo'llanma.2020
3. B. To'xliyev, adabiyot 11-sinf o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasi. Toshkent, 2018
4. Q. Yo'ldoshev va boshqa. Adabiyot (9-sinf uchun), 2010
5. B.Qosimov, Adabiyot (10-sinf uchun), Toshkent, 2004
6. <https://www.ziyouz.com>
7. <https://uz.m.wikipedia.org>

**O`ZBEKISTON XALQ AMALIY SAN`ATINI O`RGANISHNING AHAMIYATI****Shalola Jalilova Ma'ruf qizi***Samarand Davlat Universituti Pedagogik ta'lim fakulteti san'atshunoslik kafedirasi 4-kurs talabasi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xalqimiz tarixiy memorchilik yodgorliklari, amaliy bezak san`ati turlarining vujudga kelishi va XV asrda Samarqand shahridagi masjid, maqbara va saroylarning bezalishida amaliy san`atning keng qo`llanilishi yoritilgan. Shuningdek Xo`ja Ahror Valiy masjidi markaziy shifti va Ulug`bek madrasasidagi naqsh girihlarning yechimi orqali berilishi keltirilgan.*

Kalit so`zlar: *Oy baldoq, Qoshqar baldoq, ritm, shakl, neolit, rozarka.*

O`zbek xalq amaliy san`ati tarixan juda ko`p rivojlanish davrlarini boshidan kechirgan. Hozirgi kunda xalq amaliy san`ati betakrorligi bilan ajralib turadi. Lekin mazmun va mohiyat faqat yangi ijodiy ko`rinishlar bilan boyitilgan. Ajdodlarimiz tomonidan qurilgan mashhur bino va inshootlar hozirgi kunga qadar o`z maftunkorligini yo`qotmastdan did bilan ishlangan naqshlar bugungi kunda ham insonlarni hayratga solib kelmoqda. Jumladan istiqloq yillarida ham o`ziga xos rivojlanish davri bo`ldi. Xalq ustalari o`z asarlari bilan jahon sahnasiga chiqdilar. Bu olimlar va mutaffakkirlar amaliy san`atda naqsh gullarini topilishi va takomillashishiga ham o`z hissalarini qo`shganlar. O`zbek naqqoshlari usta Shirin Murodov, usta Mahmud Usmonov, usta Saidmahmud Norquziyev, usta Olimjon Qosimjonov, usta Madaminjon Husayinov kabi ustalar. Qadimiy me`moriy yodgorliklarni ta`mirlash, bino devorlarini bezashda o`zlarining ilmiy tajribalarini, iste`dodlarini va betakror mahoratlarini namoyon etganlar.

Zargarlik san`ati so`ngi o`n yillik mobaynida birmuncha jonlandi. Unutilib borayotgan an`analar tiklana boshladi. Hozirda samarali ijod qilayotgan usta zargarlar qatoriga Dadamuxamedovlar sulolasi, G.Yo`ldasheva R.Muxametshin, M.Nozirxonov, Sh.Nizomov, M.Olimov kabi ustalarni kiritish mumkin. Zamonaviy zargarlik buyumlari tumorlar, sirg`alardan «Uch ko`zacha», «Oy baldoq», «Qoshqar baldoq» singari buyumlarga zamonaviy shakl berilmoqda. Mustaqillik yillarida O`zbekiston ganchkorlik san`ati azaliy an`analariga suyangan holda rivojlanmoqda. Hozirda ijod qilayotgan ustozlar mahalliy maktablardagi mavjud an`analarni asrab-avaylagan holda ijod qilayotganliklarini alohida ta`kidlab o`tish joiz. 1990 yillar O`zbekiston yog`och o`ymakorligi va naqqoshlik san`ati tarixida yangi bosqich bo`ldi. Ushbu maktablarni asosan Toshkent, Farg`ona, Buxoro, Xiva maktablari tashkil etmoqda. Amaliy san`at yodgorliklarini yaratgan bobokalonlatimiz tarixiy,



bebaho san`at namunalari, O`zbek madaniyatining durdonalari bo`lgan badiiy va madaniy meroslarni tashkil etadi. Toshkent xotira maydoni, Samarqand Imom Buxoriy majmuasi, Oliy majlis binosi, Amir Temur muzeyi binosi, yog`och o`ymakorligi va naqqoshlik san`atining yorqin namunasi.



Amir Temur muziy binosi:



Oliy majlis binosi:

Umuman olganda xalq amaliy san`atining barcha turlari mustaqillik yillarida yangidan chiroy ochdi va jilolandi. O`zbek xalqining ko`p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san`ati madaniy merosimizning asosiy qismini tashkil etadi. O`zbek diyorida vujudga kelib, gullab yashnagan amaliy san`at turlari bemisil va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bu taraqqiyot bosqichi haqida fikr yuritir ekanmiz, O`zbek amaliy bezak san`atining kelib chiqishi insoniyatning ilk davri, ya`ni ibtidoiy jamoa davriga borib taqalishining guvohi bo`lamiz. O`lkamiz zaminidagi arxeologik qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berish usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlanib, asrlar osha hozirgacha davom etib kelmoqda. Bizgacha ibtidoiy jamoa tuzumida ashyoviy dalillar mehnat va ov qurollari, uy-anjom va bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari yetib kelgan.

Tuproq ostida qolib ketgan tarixiy yodgorliklar odam va xayvonlar jasadining qoldiqlari, g`or va yerto`la devorlariga chizilgan surat va bo`rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o`rganishning muhim manbai hisoblanadi. Paleolit davrida amaliy-dekorativ san`at namunalari ham keng tarqala boshladi. Buyumlarni naqsh bilan bezashga, turli taqinchoqlarga, tumorlarga extiyoj paydo bo`lganligi arxeologlar tomonidan topilgan ashyoviy buyumlarda namoyon bo`lmoqda. Odamlarning o`troq holga o`tishlari, tabiat qonun-qoidalarini kuzatish simmetriya, ritm, shakl tuyg`ularini o`shishiga sabab bo`ldi. Bir xil elementlarning tekis qaytarilishi yoki oralab kelishi asosida vujudga keladigan o`ziga xos naqqoshlik san`atini maydonga keltirdi. Naqqoshlik yangi tosh (neolit) asrida keng yoyildi, dekorativ-amaliy san`atning taraqqiy etishiga ta`sir ko`rsatdi va yordam berdi. Kulolchilik va boshqa buyumlarni naqsh bilan bezash keng tus oldi. Parallel, spiralsimon va to`lqinsimon chiziqlar, aylanalalar shu davrdagi ko`pgina naqshlarning asosini tashkil etadi.



Geometrik naqshlar asta-sekin sxematik odam, hayvonlar va o`simliklar dunyosidan olingan shakllar bilan boyitilib, mazmunan kengayib bordi. Uning elementlari koinot kuchlarining ramziy belgilarini aks ettira bordi. Masalan: rozetka-quyosh ramzi, to`lqinsimon chiziq-harakat, suv ramzi va hokazo. Naqqoshlik san`ati endilikda dekorativ funksiyani bajaribgina qolmay, balki shu bilan birga kishilarning g`oyaviy va falsafiy tushunchalarini ham ifodalay boshladi.



Rishton “Xalqaro kulolchilik markazi”

Bronza asrida O`rta Osiyoda kulolchilik yanada rivojlandi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 31-martdagi “Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san`atni yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab-quvatlash to`g`risida”gi farmoni barcha sohalar qatorida kulolchilik an`analarini rivojlanishiga samarali turtki bo`ldi. Kulolchilik dastgohlarining yuzaga kelishi esa, yaratilgan buyumlarning yanada nafis va go`zal bo`lishini ta`minladi. Chustdan topilgan qizil fonga qora bo`yoqlar bilan rasm va naqshlar ishlangan sopol buyumlar diqqatga sazovordir. Temir asrida ham dekoartiv-amaliy san`at yetakchi o`rinni egallaydi. Bezash ishlarida geometrik naqshlardan tashqari, syujetli kompozitsiyalardan foydalanish alohida rivojlangan. O`rta Osiyoning qadimgi davri san`ati va madaniyatini o`rganishda yer ostidan, qabrlardan topilgan turli dekorativ amaliy san`at namunalari, jang, ov va mehnat qurollari ham muhim rol o`ynaydi. Sopol buyumlar, bronza, oltin, kumushdan ishlangan, kishilar extiyoji uchun ishlatiladigan buyumlar yuzasi naqshlar bilan bezatilgan, bo`rtma tasvir va haykallar bilan pardoqlangan. Ayrim buyumlar yuzasiga esa hayotiy voqealar aksi tushirilgan. Ana shu daliliy materiallar o`tmish san`ati va madaniyati, kishilarning estetik, badiiy qarashlarini bilishga xizmat qiladi.

O`zbekiston hududida arxeologik qazilmalardan Xorazm, Sug`d, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqqoshlik san`atining rivojlanganligi ma`lum.

Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (I-II asr), Dalvarzintepa (I-asr) budda ibodatxonalari qazilmalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlari buning yaqqol



dalilidir. Eramizdan avvalgi IV-VI asrlarda O`rta Osiyodagi badiiy hayot va madaniyatni tushunishda Amudaryoning yuqori oqimi tomonidan topilgan "Amudaryo boyligi" (Oks boyligi) muhim o`rinni egallaydi. Hozirgi kunda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanayotgan bu yodgorliklar ichida oltindan yasalgan haykallar, turli ko`za, bilaguzuk, uzuk, muhr, tangalar oltindan yasalgan arava va qurollar diqqatga sazovordir. Buyuk sarkarda Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) eramizdan avvalgi IV asrlarda Axmoniyalar davlatini tor-mor etib, O`rta Osiyo yerlarining ko`pgina qismini o`ziga qaratib oldi. Faqat Xorazm, Farg`ona va Sirdaryo bo`yidagi ko`chmanchi qabilalargina o`z mustaqilligini saqlab qoldi. Amaliy san`atga bu qadar chuqur falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, stilizatsiya-ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o`zbek milliy bezak san`atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo`lgan va hozirda jahonga mashhur me`morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, hattotlik, toshtaroshlik va boshqa turdagi san`atlarning ajoyib darajada uyg`unligidan va mujassamligidan dalolatdir. Xalq amaliy bezak san`ati kishilarning ma`naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o`zbek xalq amaliy san`ati kishilarni badiiy-axloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda, hamda madaniy darajasini oshirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi. Yaqin o`tmishda o`zbek amaliy bezak san`atining eng rivojlangan naqqoshlik, ganchkorlik, tosh va suyak o`ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, buyrachilik, zargarlik, kashtachilik, zardo`zlik, gilamdo`zlik, kigizchilik, savatchilik kabi turlarining o`ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san`atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarda nom qozongan ustalarning hizmatlari butun jahonga dong`i ketgan. O`rta Osiyo naqqoshlik san`ati qadimdan dunyoga mashhur.

O`tmishda ota-bobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo`qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar hozirgacha bizni hayratga solib kelmoqda. Naqsh arabcha tasvir, gul degan ma`noni bildirib, u qush, xayvonot, o`simlik dunyosi, geometrik va boshqa turli shakllarning ma`lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. Islom talablariga bo`ysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo`qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o`zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo`ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo-afsunlar vazifasini bajardi. Naqqoshlik xalq-amaliy bezak san`atining bir turi sifatida qadimdan o`zbek madaniyatining muhim bo`lagi hisoblanadi. Ko`p asrlar mobaynida uning badiiy an`analari vujudga keldi va rivojlandi. Naqshlarda san`atning boshqa hamma turlaridan farqli ravishda avlodlarning



chambarchas bog`liqligini, milliy an`analarning davomiyligini ko`rish mumkin. Naqqoshlik an`analari san`atning ana shu turini o`rganish metodlari sifatida ham bobodan otaga, otadan o`gilga o`tib kelgan. Ana shu davomiylik tufayli naqqoshlik san`ati hozirgacha saqlanib kelmoqda. Naqshning eng yaxshi namunalari boy ijodiy fantaziya orqali birlashtirilgan shakllarning maqsadga muvofiqligi va go`zalligi bilan farqlanadi. Bunda xalq ustalarining atrof-muhitga qarashlaridagi tafovut aks etadi. Naqshdagi chizgilar o`yini musiqadagi ohang singari, qo`shiq va ertak kabi”xalq hayotiy tajribasining katta umumlashmasidan” tarkib topgandir. Badiiy naqqoshlik ranglarning uyg`unligida va o`ziga xos kompozitsiyalarda go`zallik yaratish san`atidir. Naqqosh usta o`z ishida ranglarning tabiiy jilosidan va uyg`unligidan, bejirim shakldan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib yorqin ifodalikka erishadi. O`zbekistonning an`anaviy me`morchiligida naqqoshlik asosan shiftlarni, jimjimador arklarni, saroy ustunlarini, masjidlar, maktablar, boylarning uylari, yog`ochdan yasalgan buyumlarni bezashda qo`llangan. Nozik o`simliksimon-geometrik naqshdagi o`zaro singib ketgan novdalar, shoxlar va hashamatli tasvirlangan gullarning ritmik harakati, o`zbek ustalarining ishlaridagi islimi va girih naqshlarining klassik motivlari shiftlarning shakliga moslangan. Naqsh ko`proq inter`yerlarni va yopiq ayvon, peshayvonlarni bezashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. 1.P. Sh Zohidov, “Zeb ichra ziynat”. T. G`.G`ulom nomidagi adabiyot va
2. San`at nashriyoti. 1985.
3. A.Erkayev “Ma`naviyat – millat nishoni”. T.: Ma`naviyat, 1997 yil
4. B.Q. Xolmatov “Naqqoshlik”. T: Iqtisod-moliya, 2007 yil.
5. K.M. G`ulomov. “Amaliy san`at”. T: Iqtisod-moliya, 2008 yil .
6. K.M. G`ulomov, S.S. Bulatov «Sharqona usta shogird odobi» O`zR.OO`MTV o`quv adabiyotlari, jurnal va byuletelarni nashrga tayyorlash markazi, 2000 yil.
7. O`zbekiston san`ati o`quv adabiyotlar T.,2001

INTERNET MA`LUMOTLARI:

1. Lex.uz
2. Ziyonet.uz



XALQ OG'IZAKI IJODI VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Atadjanova Shaxnoza Qosimboyevna

*Urganch davlat universiteti Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida
o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Bugungi kunda, nutqni rivojlantirish texnologiyasi, xalq og'izaki ijodi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'zining ahamiyatini ko'paytirib bormoqda. Bu texnologiya, bolalarning til o'rganish jarayonlarini mustahkamlaydi va ularning kommunikatsiya qobiliyatlarini, ijtimoiy muloqotlari va akademik muvaffaqiyatlarini oshirishga yordam beradi. Maktab o'quvchilari uchun nutqni rivojlantirish texnologiyasining qo'llanilishi, ularning dunyodagi rivojlanishlarni kuzatish va ularning o'zlarini ifodalash uchun muhim bo'lgan vosita sifatida xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *nutqni rivojlantirish texnologiyasi, o'rganish, rivojlanish, til ko'nikmalar, xalq og'izaki ijodi. bolalar muvaffaqiyatlarini oshirish.*

Nutqni rivojlantirish texnologiyasi: Xalq og'izaki ijodi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish texnologiyasi hozirgi vaqtda o'z muhimlik va e'tiboriga ega. Xalq og'izaki ijodi vositasida bu sohasdagi innovatsion yondashuvlar va yangi texnologiyalar bolalarni nutqni rivojlantirishda o'z mavqesini ko'rsatadi. Bu maqolada, xalq og'izaki ijodi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish texnologiyasi mavzusini tahlil qilamiz.

Maqsad va muhimlik.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish texnologiyasi, bolalarning til ko'nikmalarini oshirish, kommunikatsiya qobiliyatlarini rivojlantirish va o'rganish jarayonlarini mustahkamlash maqsadida ishlab chiqilgan. Bu texnologiyalar internet, mobil ilovalar, kompyuter darsliklari, interaktiv darsliklar, va virtual o'qitish platformalari orqali amalga oshiriladi.

Til ko'nikmalarini oshirish: Bu texnologiyalar yosh bolalar uchun til o'rganishni osonroq va qiziqarliroq qilishda muhim rol o'ynaydi. Interaktiv darsliklar va mobil ilovalar orqali, bolalar o'zlarini o'rganish jarayonlarini o'zlashtirish orqali til ko'nikmalarini rivojlantirishlari kutilmoqda.

Kommunikatsiya qobiliyatlarini rivojlantirish: Virtual o'qitish platformalari va interaktiv darsliklar, bolalar o'rtasida hamkorlik, qo'llab-quvvatlash va g'oyaviy o'zlashtirish imkoniyatlarini yaratish orqali ularning kommunikatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu texnologiyalar orqali, bolalar



o'z fikrlarini ifoda qilish, kelajakdagi ishlarida jamoatchilikni his qilish va boshqalar bilan maslahatlashish qobiliyatlarini oshirishadi.

O'rganish jarayonlarini mustahkamlash: Kompyuter darsliklari va internet platformalari o'quvchilarga o'z fikrlarini mustahkamlaydi, ularni o'rganishni osonroq va samaraliroq qiladi. Bu texnologiyalar, bolalar uchun qiziqarli va interaktiv o'rganish jarayonlarini ta'minlash orqali, ularning ma'lumotlarni amaliyotga aylantirish va o'zlarini rivojlantirish jarayonlarini mustahkamlashga imkon beradi.

Innovatsion texnologiyalar maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishdagi muhim bir vosita sifatida bo'lib, ular o'quvchilarning o'zlarini o'rganishni, kommunikatsiya qobiliyatlarini va o'rganish jarayonlarini mustahkamlashda katta ro'lya o'ynaydi. Bu texnologiyalar orqali, bolalar nutqni rivojlantirish uchun qiziqarli, samarali va oson usullarda o'rganishadi, ularni kelajakdagi muvaffaqiyatlariga tayyorlashda yordam beradi.

O'zgaruvchilar.

O'qish usullari katta o'zgarishlarga duch keldi. Avvalgi darsliklardan farqli ravishda, interaktiv darsliklar va virtual o'qitish platformalari bolalarga o'rganish jarayonini o'zlashtirishga yordam beradi. Bu texnologiyalar, o'quvchi ma'lumotlarini boshqarish, ko'nikma olish va ta'limning boshqa sohalariga kirish imkoniyatlarini yaratishda katta o'rin egallaydi.

O'qituvchilar va murabbiylar.

O'qituvchilar hamda murabbiylar bu texnologiyalardan foydalanish orqali o'qitishning samaradorligini oshirishga intilishmoqda. Ular internet platformalarini, interaktiv darsliklarni va onlayn ma'lumotlarga kirish imkoniyatlarini o'zlashtirish orqali o'quvchilarni qiziqtirish va o'rganish jarayonini qulaylashtirishlari mumkin.

Mavzuga qo'yiladigan diqqat etibor.

Bu texnologiyalar yosh o'quvchilarni qiziqtirish, ularga foydali ma'lumotlarni taqdim qilish va ularning o'zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'l qo'ymoqda. Mavzu haqidagi ko'proq ma'lumot va tajribalar, o'quvchi tomondan qiziqarliroq va ma'naviy baholash orqali o'rganishni rag'batlantiradi.

Iste'mol qilishni oshirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish texnologiyalari boshqa sohalar bilan bog'liqlikni kuchaytiradi. O'quvchilarning iste'mol qilishni oshirish orqali, ularni jamiyatning yangi talablari va tajribalari bilan tanishtirish mumkin. Bu, ularning kelajakda o'z muhitlarida muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarur bo'lgan ko'nikma va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Amaliyotlar va mashg'ulotlar: Texnologiyalar orqali tashqi amaliyotlar va mashg'ulotlar o'tkazish, o'quvchilarga o'rganish jarayonlarini amaliyotga aylantirish va o'zlarini sinovdan o'tkazish imkoniyatlarini beradi. Bu jarayon,



ularning iste'mol qilishni oshirish va o'z fikrlarini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Kreativlikni rag'batlantirish: Texnologiyalar orqali o'rganishni kreativlik va fikr yaratish bilan bog'liq mashg'ulotlar va dasturlar o'tkazish, o'quvchilarni o'zlarini ifoda qilish va yangi yondashuvlarni qidirishda rag'batlantiradi. Bu, ularni o'z fikrlarini iste'mol qilish va jamiyatning muammolariga yaratuvchi yondashuvlar topishga intilishmoqda.

Boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirish: Internet platformalari va mobil ilovalar orqali ma'lumotlarga kirish, ma'lumotlar bilan ishlash va o'z fikrlarini tashqi doiraga yetkazish, o'quvchilarning boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu, ularni o'zlarini o'rganishda o'zlariga ishonch va mustahkamlashga olib keladi.

Masofaviy ta'limning o'rtishi.

Oxir-oqibat, bu texnologiyalar masofaviy ta'limni o'rtib chiqishda muhim rol o'ynaydi. Pandemiya davrida, masofaviy ta'limning ko'nikmalarini rivojlantirish va rivojlanishiga intilish ekanligi nazarda tutilgan bo'lsa, xalq og'izaki ijodi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish texnologiyalari, ta'lim jarayonini ko'proq to'liq va samarador qilishga yordam beradi.

Xalq og'izaki ijod vositasining ma'nosi va o'zgarishi

Xalq og'izaki ijod vositasi, aslida o'z fikrlarimizni, xayollarimizni, va xalqning umumiy ma'lumotlarini o'zimiz bilan bo'lish, boshqalar bilan munosabatda bo'lish, va axborot almashish uchun ishlatiladigan qurilma yoki uslubdir. Bu vosita, nutqni rivojlantirishni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan elektron va mobil dasturlar orqali o'rnatiladi.

Xalq og'izaki ijod vositalarining hayotimizda ko'plab foydalari mavjud. Ularni foydalanish orqali, o'zimizni ifodalash, dunyo bilan o'zimizni taalluqli his qilish, va kompaniyalar, institutlar, va xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda ishlashimizga yordam beradi. Bundan tashqari, bu texnologiyalar o'qitish va ta'lim jarayonlarini yanada sodda va samarali qilish uchun foydalaniladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nutqni rivojlantirish

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nutqni rivojlantirishda xalq og'izaki ijod vositalari ahamiyatli o'rin egallaydi. Bu texnologiyalar, o'quvchi yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish va ta'lim olish jarayonlarini yanada qulaylashtiradi. Masalan, turli xil dasturlar (apps) yordamida bolalar o'zlarining so'zlari va gaplashishlarini o'rganishlari mumkin. Bu dasturlar, interaktiv o'yinlar, audio va video darsliklar, va o'quv materiallari orqali bolalar uchun ta'lim tajribasini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nutqni rivojlantirishda foydalaniladigan boshqa xalq og'izaki ijod vositalari, masalan, istalgan joyda



qulayroqqa ega bo'lish, so'zlashish va topshirish, yangi so'zlar va bayonotlarni o'rganish, va boshqalar kabi imkoniyatlarni taqdim etadi.

Bu texnologiya dasturiy ta'minotlar, mobil ilovalar va onlayn resurslar orqali amalga oshiriladi. Masalan, bolalar o'qish va yozish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun interaktiv darsliklar va o'qituvchilar tomonidan yaratilgan onlayn o'qish vositalari, o'quvchi istaklarini qondirish uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari, virtual mavzular va darslar, interaktiv o'yinlar va sahnalar, bolalarning nutqini rivojlantirish va o'rganish jarayonlarini qiziqarliroq qilishga yordam beradi.

Bu texnologiyalar o'quvchilarga mahsulotiviy va shug'ullantiruvchi ta'lim usullari orqali nutqni o'rganishni osonlashtiradi. Masalan, interaktiv dasturlar orqali o'quvchilar kelajakda foydalanishlari mumkin bo'lgan til mavzularini o'rganishlariga yordam beradi. Bunday dasturlar o'quvchilarga badiiy va o'zlashtirilgan ta'limning to'g'riroq qilishiga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nutqni rivojlantirishda xalq og'izaki ijod vositalari katta ahamiyatga ega. Ular, o'quvchi yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish va ta'lim olish jarayonlarini yanada qulaylashtiradi.

Turli xil dasturlar yordamida bolalar o'zlarining so'zlari va gaplashishlarini o'rganishlari mumkin. Bu dasturlar, interaktiv o'yinlar, audio va video darsliklar, va o'quv materiallari orqali bolalar uchun ta'lim tajribasini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Boshqa xalq og'izaki ijod vositalari, masalan, istalgan joyda qulayroqqa ega bo'lish, so'zlashish va topshirish, yangi so'zlar va bayonotlarni o'rganish, va boshqalar kabi imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu texnologiya dasturiy ta'minotlar, mobil ilovalar va onlayn resurslar orqali amalga oshiriladi.

Interaktiv darsliklar va o'qituvchilar tomonidan yaratilgan onlayn o'qish vositalari, o'quvchi istaklarini qondirish uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari, virtual mavzular va darslar, interaktiv o'yinlar va sahnalar, bolalarning nutqini rivojlantirish va o'rganish jarayonlarini qiziqarliroq qilishga yordam beradi.

Bu texnologiyalar o'quvchilarga mahsulotiviy va shug'ullantiruvchi ta'lim usullari orqali nutqni o'rganishni osonlashtiradi. Interaktiv dasturlar orqali o'quvchilar kelajakda foydalanishlari mumkin bo'lgan til mavzularini o'rganishlariga yordam beradi. Bunday dasturlar o'quvchilarga badiiy va o'zlashtirilgan ta'limning to'g'riroq qilishiga yordam beradi.

Boshqa bir muhim qism - bu texnologiyalar yosh o'quvchilarni o'rganish jarayonini qiziqish va ularga maqsadga yo'naltirish imkoniyatini takomillashtiradi. O'quvchilarning ilg'or o'rganishini yengilroq qilish uchun ilg'or mavzular, interaktiv o'yinlar va yaratish vositalari qo'llanilishi o'z-o'zidan maqsadga muvofiq ma'lumotlarni o'rganishga ko'rsatilgan qiziqish va qiziqishni oshiradi.



Bularning barchasi yosh bolalar uchun nutqni rivojlantirish texnologiyasining muhim hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar, yosh o'quvchilarning kommunikatsiya, o'qish va yozish qobiliyatlarini oshirishda katta o'rin egallaydi va ularning dunyodagi o'zlashtirilgan ta'lim olishlarini ta'minlaydi. Yangi texnologiyalar va ilovalar o'quvchilarga nutqni o'rganish va rivojlantirishda integratsiya qilinayotgan holda, ularning o'zlashtirilgan o'rganishini ta'minlaydi va ularni kelajakda muvaffaqiyatli va samarali fuqarolar sifatida tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maxmudova O.A."Maktabgacha yoshdagi bolalarni rasm chizishga o'rgatish metodikasi".O'quv qo'llanma."NISO POLIGRAF" Toshkent
2. Qodirova F.R.- Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillari - T.: "ISTIQLOL", 2006y. – O'quv qo'llanma.
3. <https://lib.cspu.uz/index.php?newsid=1595>



HELPFUL TIPS FOR STUDENTS GETTING INTO MASSACHUSETTS INSTITUTE OF TECHNOLOGY

Mirkomilov Doniyorjon Maxamatibragimovich

Assistant of the Department of Computer Systems of FBTUIT

Qobulov Abdusalil Zoxidxuja ugli

Student of group 619-21 of FBTUIT

Abstract: *This article offers invaluable guidance and insights for students aspiring to gain admission to the prestigious Massachusetts Institute of Technology (MIT). With its rigorous academic standards and competitive admissions process, MIT presents unique challenges and opportunities for prospective students. From academic preparation to extracurricular involvement and application strategies, this article provides practical tips and advice to help students navigate the admissions journey successfully. By leveraging these tips, students can maximize their chances of securing a coveted spot at MIT and fulfilling their academic and professional aspirations.*

Keywords: *Massachusetts Institute of Technology (MIT), Admissions Tips, Academic Excellence, Extracurricular Involvement, Research Experience, Leadership and Initiative, Personal Statement, Letters of Recommendation, Standardized Testing, Interview Preparation*

For countless students around the world, gaining admission to the Massachusetts Institute of Technology (MIT) represents a pinnacle of academic achievement and a gateway to unparalleled opportunities in science, engineering, technology, and entrepreneurship. With its renowned faculty, cutting-edge research facilities, and vibrant campus community, MIT attracts some of the brightest and most ambitious minds from across the globe. However, the road to MIT is not easy, and prospective students must navigate a competitive admissions process that requires careful planning, preparation, and perseverance.

One of the most critical factors in gaining admission to MIT is academic excellence. MIT seeks students who have demonstrated exceptional intellectual curiosity, mastery of challenging coursework, and a genuine passion for learning. Prospective applicants should prioritize rigorous coursework in mathematics, science, and technology subjects and strive for excellence in their academic pursuits. Maintaining a high GPA and excelling in standardized tests such as the SAT or ACT is essential but only one part of the equation.

Beyond academic achievements, MIT values students who have demonstrated leadership, initiative, and a commitment to making a positive



impact in their communities. Prospective applicants should actively engage in extracurricular activities that align with their interests and passions, whether through clubs, sports, community service, or entrepreneurial ventures. Leadership roles, awards, and significant accomplishments in extracurricular activities can showcase students' leadership potential and ability to contribute to the MIT community.

Research experience is highly valued at MIT, and prospective applicants are encouraged to engage in independent research projects or internships in their areas of interest. Research experience not only demonstrates students' intellectual curiosity and problem-solving skills but also provides valuable insights into their potential for success in MIT's rigorous academic environment. Students should seek out research opportunities, collaborate with faculty mentors, and pursue projects that showcase their creativity and innovative thinking.

Crafting a compelling personal statement and securing strong letters of recommendation are essential components of the MIT application. The personal statement provides applicants with an opportunity to showcase their unique strengths, experiences, and aspirations, while letters of recommendation offer insights into students' character, academic abilities, and potential for success at MIT. Prospective applicants should take the time to reflect on their personal and academic journey, articulate their motivations for applying to MIT, and convey their passion for their chosen field of study.

Standardized testing, while important, is just one aspect of the MIT application process. While high SAT or ACT scores can bolster an application, MIT adopts a holistic approach to admissions, considering factors such as academic achievements, extracurricular involvement, research experience, personal qualities, and letters of recommendation. Prospective applicants should focus on achieving a balanced application that showcases their strengths and potential to thrive at MIT.

Finally, interview preparation is essential for prospective MIT applicants. Interviews provide an opportunity for applicants to showcase their personality, interests, and motivations for applying to MIT. Prospective applicants should familiarize themselves with MIT's mission, programs, and campus culture, and prepare thoughtful questions to ask their interviewers. Additionally, applicants should practice articulating their experiences, accomplishments, and aspirations in a clear and compelling manner.

Amir Temur jangchilarning jangovar ruhiga, hamda, sadoqatiga - ularning oilaviy ahvoli, moddiy manfaatlari, ijtimoy himoyalanganlik darajasi birinchi navbatda ta'sir ko'rsatishini bilgan va bu yo'nalishdagi ishlarni davlat siyosati darajasiga ko'tarib, shaxsan o'zi nazoratiga olgan. U o'zining mamlakat ishlarini boshqarish borasidagi o'n ikki tuzikining beshinchisida "Amirlar va askarlarimni martaba-yu unvonlar, oltin-u kumushlar bilan xushnud etdim. Ularning mardligiga tayanib shamshir zarbi bilan yigirma yetti podshoh taxtini egalladim"⁵² deb ta'kidlab o'tgan. Bundan tashqari sipohlariga martabalariga qarab olti oylik maoshdan bir yillik maoshlarigacha oldindan to'lashni belgilab bergan. Keksaygan jangchilariga nafaqalar tayin etgan va lavozimlaridan mahrum etmagan, bu bilan, jangchilarning kelajaklaridan xavotir olmasliklari va afsus chekmasdan sadoqat bilan xizmat qilishlarini ta'minlagan. Ushbu qilingan tadbirlarning natijasi o'laroq askarlarining jang maydoniga qo'rqmasdan kirishlari, o'z jonlarini jang maydonida fido qilishlari, mahorabada dushman ustidan g'olib chiqishlari uchun yuqori mardonavorlikka erishilgan.

Amir Temur jangchilarni yuqori jangovar qobiliyatga ega bo'lishida, bevosita ularni boshqarayotgan sarkardalarning o'zini tutishi, jang maydonida jangchlarning jangovar ruhini oshirish va qayta tiklash jarayonida shaxsiy na'munasi, kuchli taktikasi va bahodirligi katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlab o'tgan. "Amr etdimki dushman jang maydoniga kirgach, lashkar boshlig'i qo'shin safida turgan to'qqiz sipohiy favjga, jangga tushib, urush boshlashlari haqida buyruq bersin, chunki, sipoh lashkaboshisining vazifasi, jang vaqtida qo'rquvdan qo'l oyog'i bo'shshib, sarosimaga tushmasdan buyruq berishdan iborat"⁵³. Ushbu tuzukdan ko'rinib turibdiki Amir Temur sarkardalarini tanlashda, ularning mard, aql idrokli, mahoratli jang ustasi bo'lishlariga e'tabor qaratgan. Sarkardaning shaxsiy na'munasi jang vaqtida jangchilarida yuksak jangovar ruhni shakllanishining muhim ko'rsatkichi ekanligini, hamda, ruhiy barqarorlikning asosi ekanligini ta'kidlab, sarkarda jang maydonida iloji boricha o'zini o'limdan saqlashini maslahat bergan⁵⁴. Chunki komandirning o'limi dushman bo'linmalarining o'ziga nisbatan ishonchining ortishi va ruhiy ustunlikka erishishiga, aksariyat hollarda jangovar vazifani bajarilmasligiga, shaxsiy tarkibning parokandaligi, hamda, katta yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

Buyuk sarkarda janglarda jangchilarning ruhiy barqarorligini ta'minlashda va jangovar ruhini oshirishda qo'shinlarning jangovar tartibi ham muhim ro'l o'ynashini ta'kidlab o'tgan. Shunga ko'ra qo'shinlarini o'n to'rt favjga bo'lganida old qatorga avangard sifatida katta hirovulni joylashtirishni,

⁵² Amir Temur.Temur tuzuklari

-Shodlik Nashriyoti

2018-yil 70 bet

⁵³ Amir Temur.Temur tuzuklari

-Shodlik Nashriyoti

2018-yil 145 bet

⁵⁴ Amir Temur.Temur tuzuklari -Shodlik Nashriyoti 2018-yil 146 bet



ushbu favjga sinalgan, tajribali o'qchilar, qilichbozlar, nayzadorlar va bahodirlarni joylashtirishni, hirovulning aynan shu favji qattiq suron solib jang oldidan dushmanga ruhiy zarba berishini ta'kidlab o'tgan. Saflarning old qatoriga bahodir jangchilarning tizilishi tabiiyki dushmanga katta psixologik zarba bo'ladi, hamda, sohibqiron qo'shinlarining g'alabaga bo'lgan ishonchini ta'minlashda yana bir muhim ko'rsatkichdir. Bundan tashqari buyuk sarkarda jangchilarning ruhiy barqarorligi, hamda, dushmanga qaratilgan salbiy axborot xurujlari, jang taqdirini hal qilib beruvchi muhim omil ekanligini bilgan holda har bir jangida, bir biriga o'xshamagan ruhlantirish vositalari, hamda, psixologik hujum na'munalarini mohirona qo'llagan. Uning Ilyosxo'ja qo'shinlariga qarshi jang davomida Ilyosxo'ja tomonidan yuborilgan elchini kutib olish jarayonida o'z qo'shinlarini elchi xuzuridalik vaqti ikki marotaba oldilaridan saf tortib o'tishlarini, hamda, bir bo'linmani qir ortida otlarga daraxt shoxlarini bog'lagan holatda yugurtirishni buyuradi. Ushbu usul orqali u elchining Temur qo'shinlarining soni va jangovar shayligiga nisbatan fikri o'zgarishini, hamda, bu noxush xabar bilan Ilyosxo'janing xabardor etilishi, o'z navbatida Ilyosxo'jaga yaxshigina psixologik zarba bo'lishini maqsad qilgan.

Shuning bilan birga uning Oltin O'rda xoni To'xtamishxonga qarshi 1391-yilda Qunduzcha yaqinidagi yurishi davomida dushman askarlarini esankiratib qo'yish, o'z qo'shinlarini dushmanga nisbatan nafatini oshirish uchun, nabirasi Mirzo Abubakr otryadiga chodir qurish va qozonlarda ovqat pishirishga buyruq beradi⁵⁵. Ushbu holat qarama-qarshi holatda jang qilish uchun saf tortgan

To'xtamishxon qo'shinlariga qattiq ta'sir qiladi. Ularda raqiblarning naqadar xotirjamligini ko'rib qo'rquv va hadik hissi uyg'onadi. O'zlariga bo'lgan ishonchlari so'nib, g'animni o'zlaridan bir necha barobar kuchli ekanligiga ishona boshlashadi. Sarkardaning dushmanga nisbatan qo'llagan psixologik hujumi o'z samamrasini beradi hamda jang taqdirini hal etilishida muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

Sohibqiron Temur nafaqat dushman qo'shinlarini ruhiy parokandaligiga sabab bo'luvchi psixologik hujumlarni jangda mohir qo'llay olgan balki, o'z bo'linmalarining dushmanning salbiy axborot xurujiga tushib qolishini, hamda ruhiy jihatdan yo'qotishlarni oldini olish borasida ham katta tajribaga ega bo'lgan. U 1398 - 1399 - yillar davomida Hindistonga qilgan yurishi davomida uch narsani asosiy muammo sifatida ko'radi. Birinchisi, Hindistonning seryomg'ir tabiati, nam havosi va daryolari, ikkinchisi o'tish qiyin bo'lgan chakalakzor va o'rmonlari, uchunchisi tishlariga zaxarli xanjarlar surtilgan, maxsus sovutlar bilan kiyintirilgan ustilarida mohir filbonlari bo'lgan ulkan odamxo'r fillari. Hindistonga yurish qilishdan oldin razvedka ma'lumotlaridan

⁵⁵ Dadaboyev X. Harbiy san'at tarixi - Toshkent 2013-yil 156-b



olgan xabarlariga tayanib Sohibqiron jangchilarini fillar oldida sarorimaga tushib qolmasligini oldini olish maqsadida, ularni shu fillar kattaligidagi yog'och va qoplardan yasalgan maketlar bilan shug'ullantiradi. Ushbu jarayonda askarlarning o'ziga bo'lgan ishonchi ortib jang maydonida qo'rquv va sarosimaga tushmasdan harakat qilishiga sabab bo'ladi.

Buyuk sarkardaning ushbu psixologik xujumlari hamda jangchilarining jangovar ruhini oshirishga qaratilgan tadbirlari hech shubhasiz u qo'llagan taktikaning muhim va ajralmas qismiga aylangan. Dushmanga nisbatan bunday psixologik hujumlarni amalga oshirish bugungi zamonaviy jang sharoitlarida ham keng foydalanilmoqda. Zamonaviy janglarda ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari orqali turli xil axborot xurujlari, har ikkala tomon jangchilari uchun ham keng ma'noda qo'llanilib kelinmoqda. Milliy armiyamiz saflarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarimizning jangovar ruhini oshirish, ularni dushmanning salbiy axborot xurujlari ta'siriga tushib qolishlarini olish maqsadida harbiy xizmatchilarimizda milliy g'urur, barqaror axloqiy ruhiy holatni ta'minlash, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash asosiy vazifalarimizdan biridir. Zero "Yuksak jangovar ruh - askarning yengilmas kuchi, armiyaning qudratidir!".

Ushbu sohada ishlarni amalga oshirishimizda tariximizda o'tgan sarkardalarimizning boy me'rosini o'rganishimiz albatta samarali natijalarga erishishimizga katta hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Amir Temur. Temur tuzuklari - Shodlik Nashriyoti 2018-yil 70-144-147 b.
2. Dadaboyev X. Harbiy san'at tarixi - Toshkent 2013-yil 156-b.
3. Lyusen Keren Amir Temur saltanati - Ma'naviyat 1999-yil 86-b.
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vairligining rasmiy sayti, <http://www.lex.uz/>



O'ZBEKISTONLIK JANGCHILARNING FASHIZM USTIDAN G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI

Axmedov Sanjar Bektemirovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Ilmiy rahbar

Safaraliyev Abbosxon Asqarali o'g'li

Perfect University Ijtimoiy fanlar Tarix (2-bosqich talabasi)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushining boshlanishi, urush yillarida O'zbekistondan frontga yuborilgan harbiy texnika, qurol-yarog' va moddiy vositalar, Ozbekistonliklar urushning so'nggipallasidagijasoratlari hamda fashizm ustidan g'alabaga qoshgan ulkan hissasi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ikkinchi jahon urushi, harbiy safarbarlik, gospital, mudofaa fondi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, xotira va qadrlash*

Bugun barchamiz, avvalo buyuk G'alabaga beqiyos hissa qoshgan, mana shu yorug' kunlarga yetib kelolmagan aziz insonlarni doimo yod etamiz, ularning xotirasi, pok ruhlari oldida ta'zim qilamiz. Shafqatsiz urushda, mashaqqatli mehnat frontida mardlik va jasorat ko'rsatgan barcha faxriylarimizga yuksak hurmat va ehtirom, chuqur minnatdorlik bildiramiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

Hech shubhasiz, oradan qancha yillar, zamonlar o'tmasin, buyuk G'alabaning qadr-qimmatini va ahamiyati tobora ortib boraveradi.

Bugungi yorug', musaffo osmonimiz sofligini, hozirgi tinch, osuda hayotimizni ta'minlash uchun bukilmaz iroda va jasorat namunasini ko'rsatgan, Vatan uchun jonlarini fido qilgan mard va jasur otabobolarimizning matonatlarini hech qachon unutmaymiz⁵⁶.

1939-yil 1-sentyabrda fashistlar Germaniyasi qo'shinlarining Polshaga bostirib kirishi bilan Ikkinchi jahon urushi boshlanib ketdi.

Ikkinchi jahon urushini yirik davlatlar o'rtasidagi ixtiloflar, agressiv davlatlar- fashistlar Germaniyasi, fashistlar Italiyasi va militaristik Yaponiya boshladilar. Ular orasida Germaniya fashistlari uyushtiruvchi, yetakchi rol o'ynadi.

Fashistlar bloki davlatlari tomonidan olib berilgan urush bosqinchilik, adolatsizlik urush edi. Fashizmga qarshi urushgan davlatlar adolat uchun kurashdilar. Agressiya qurboni bo'lgan mamlakatlarda vatanparvar kuchlar, xalq tomonidan qarshilik ko'rsatish harakati boshlangach, urushning ozodlik

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning buyuk G'alabaning 75 yilligi hamda "Xotira va qadrlash kuni"ga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi - <https://president.uz/uz/lists/view/3564>



xarakteri yanada kuchaydi. Angliya va Fransiya hukmron doiralari birinchi jahon urushida qo'lga kiritgan hududlarni o'z tasarrufida saqlab qolishga, Gitler qo'shinlarini Sharqqa, Sovet Ittifoqi tomon yo'naltirishga intildilar. Sovet davlatining tashqi siyosati fashistlar Germaniyasini Angliya va Fransiya qarshi qo'yishga va ularning harbiy kuchlari zaiflashgan paytda zarba berishga qaratilgan edi. 1939-yil 23-avgustda sobiq SSSR bilan Germaniya o'rtasida 10-yil muddatga hujum qilmaslik to'g'risida shartnoma imzolanadi. Shartnomaning mahfiy qo'shimcha bayonnomasiga muvofiq Germaniya va SSSR o'zlarining ta'sir doiralarini bo'lib oladilar. German va sovet manfaatlari Polsha davlati hududlari bilan bog'liq edi. Germaniya Boltiqbo'yi mamlakatlariga da'vo qilishdan voz kechadi. Germaniya 1939-yil 1-sentyabrda Polshaga bostirib kimgach, Sovet davlati 1939-yil 17-sentyabrda o'z qo'shinlarini G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorussiyaga kiritadi va bu hududlarni o'z tasarrufiga oladi. 1940-yil iyunda SSSR Boltiqbo'yi respublikalarini ham egalladi. Ikkinchi jahon urushining dastlabki davridayoq fashistlar Germaniyasi G'arbiy va Markaziy Yevropada hukmronlikni qo'lga kiritdi. Germaniya va Italiya Yevropadagi 10 davlatni-Polsha, Chexoslovakiya, Yugoslaviya, Belgiya, Gollandiya, Lyuksemburg, Daniya, Norvegiya, Avstriya, Fransiya bosib oldi.

O'zbekistonlik jangchilarning fashizm ustidan galabaga qo'shgan hissasi. Urushning dastlabki kunlaridayoq G'arbiy chegaralardagi harbiy qo'shilmalar tarkibida xizmat qilayotgan o'zbekistonliklar fashist bosqinchilarga qarshi jangga kirdilar. Chegarada joylashgan Brest qal'asining 50 dan ortiqroq millatga mansub jangchilari orasida o'zbeklardan Doniyor Abdullaev, Bobohalil Kashanov, Ahmad Aliev, Nurum Siddiqov, Uzoq O'taev va boshqalar bor edi. Ular qal'a himoyachilari bilan yelkama-yelka turib dushmanning katta kuchlariga qarshi qariyb bir oy davomida oxirgi tomchi qonlari qolguncha jang qildilar.

O'zbekistonlik jangchilar qatnashgan Brest, Smolensk, Kiev, Odessa, Sevastopol va Leningradning qahramonona himoyasi fashistlar Germaniyasining «Yashindek tez urush» qilish rejasiga dastlabki zarba bo'ldi.

O'zbekistonliklar Moskva uchun janglarda. 1941-yil kuz-qish oylarida Moskva ostonolarida hayot-mamot janglari bo'ldi. Moskva ostonalaridagi ana shu dahshatli janglarda O'zbekistonlik jangchilar ham sabot-matonat, yuksak harbiy mahorat ko'rsatdilar. Janubiy-G'arbiy front tarkibidagi 353-tog'-o'qchi polki jangchisi Qo'chqor Turdiev katta jasorat ko'rsatdi. U 1941-yil 25-oktyabrda safdoshlari bilan razvedkaga, so'ngra «til» olib kelishga yuborildi. Otishmada barcha quroldoshlari halok bo'lgan Qo'chqor Turdievning bir o'zi dushmanning bir vzvodini yo'q qilib, 3 tasini asirga olib keldi. Bu jasorati uchun Qo'chqor Turdiev o'zbekistonlik jangchilar orasida birinchi bo'lib Qahramon unvoniga sazovor bo'ldi. Toshkentda uzoq yillar xizmat qilgan



general I.V.Panfilov Almati shahrida turkistonliklardan diviziya tuzdi. Uning komandirlari tarkibida Toshkent piyoda bilim yurti va O'rta Osiyo harbiy okrugining harbiy-siyosiy bilim yurtida ta'lim olgan 180 zobit bor edi. General I.V.Panfilov diviziyasi Moskva ostonalaridagi Volokolamsk yo'nalishida qattiq janglar qildi. Diviziya jang-maydonida dushmanning 114 tankini, 26 ming askar va zobitlarini, 5 samolyot va boshqa ko'plab texnikasini yo'q qildi.

O'zbekistonda tuzilgan 258-o'qchi diviziyasi askarlari Moskva ostonalaridagi janglarda 9000 dan ko'proq dushmanning askar va zobitlarini yer tishlatib, 137 aholi yashaydigan punktlarni ozod etib, birinchilardan bo'lib Oka daryosiga chiqib oladi, ko'plab jangovar texnikani qo'lga tushiradilar.

Moskva himoyachilari orasida o'zbek qizi Zebo G'anieva ham bor edi. 1942-yil 21-may kunigacha 23 fashistni yer tishlatdi. 16-marta razvedkaga borib, dushman to'g'risida qimmatli ma'lumotlar olib keldi. Zebo G'anieva jasorati uchun Qizil Bayroq ordeni bilan mukofotlandi.

Moskva ostonalarida o'zbekistonlik merganlar-Ishoqov 354 fashistni, Abubekov 229, Yusupov 132, Madaminov 123 fashist askar va zobitlarini yer tishlatdilar. 1753 nafar o'zbekistonlik jangchilar «Moskva mudofaasi uchun» medali bilan mukofotlandilar.

O'zbekistonliklar Stalingrad janglarida. O'zbekistonliklar 62-va 64-armiyalar safida turib tarixiy Stalingrad jangida qahramonona jang qildilar. Janglar avjiga chiqqan paytda Stalingradga Samarqand va Farg'onada tuzilgan 90-va 94-o'qchi brigadalari etib kelib jangga kirdilar. Bu brigadalar asosan o'zbek yigitlaridan tuzilgan bo'lib, komandirlari orasida S.Nuritdinov, V.Umarov, A.Murodxo'jaev, F.Norxo'jaev va boshqalar bor edi. 20-otliq askarlar diviziyasining jangovar ruhda jang qilishida diviziya komissari Mullajon Uzoqovning xizmati katta bo'ldi.

O'zbekistonlik jangchilardan 2738 kishi «Stalingrad mudofaasi uchun» medali bilan mukofotlandi.

O'zbekistonliklarning «Tub burilishga» qo'shgan hissasi. 1942-yil yozida Kursk yonida bo'lgan qattiq janglarda O'zbekistonda tuzilgan 62-va 69-o'qchi diviziya jangchilari jasorat ko'rsatdilar. O'zbekistonliklar 5-va 15-o'qchi diviziyalar hamda 5-gvardiyachi va 62-gvardiyachi o'qchi diviziyalar tarkibida ham jang qildilar. «Oryol» diviziyasi faxriy nomini olgan 5-o'qchi diviziya tarkibida farg'onalik Ahmadjon Shukurov ham bor edi. Zolotoryovka uchun qattiq janglarda Ahmadjon Shukurov matonat ko'rsatdi, dushmanning 110 ta askar va zobitlarini yer tishlatdi va 15 tasini asir oldi. Bu jasorati uchun unga Qahramon unvoni berildi va Zolotoryovka qishlog'i o'sha paytdan boshlab Shukurovka deb ataladigan bo'ldi.

Kurskdagi porloq g'alabadan so'ng Qizil Armiyaning 2000 km uzunlikdagi frontda qudratli strategik hujumi boshlanib ketdi. Dneprni birinchi bo'lib kechib o'tganlar orasida G'ijduvon tumanidagi Lavzekaron qishlog'idan



chiqqan starshina Vali Nabiev, andijonlik Qambarali Do'smatov, qoraqalpoqlik Xudoybergan Shoniyozov, shofirkonlik Sharif Ergashev, Buxorodan chiqqan T.A.Tixonov va boshqalar bor edi. Dneprni kechib o'tishda, uning o'ng qirg'og'idagi istehkomlarni egallashda ko'rsatgan jasorati uchun jami 2348 jangchiga, shu jumladan, 26 o'zbek yigitlariga Qahramonlik unvoni berildi⁵⁷.

Kurskdagi g'alaba va dushmanning Dneprdan ulotirib tashlanishi natijasida jahon urushining borishida tub burilish yasaldi, harbiy strategik tashabbus dushmandan batamom tortib olindi. Stalingraddagi g'alaba Gitler Germaniyasining yengilishi muqarrarligini ko'rsatgan bo'lsa, Kursk va Dneprdagi g'alaba nemis fashist qo'shinlarini halokatga mahkum etdi.

O'zbekistonlik jangchilar Leningrad qamalini yo'q qilish, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya va Boltiqbo'yi respublikalarini dushmandan ozod qilish uchun bo'lgan janglarda ham qahramonlik namunalari ko'rsatdilar. 1944-yil kuz oylariga kelganda dushman mamlakatdan butunlay haydab chiqarildi, SSSR chegaralari tiklandi.

O'zbekistonlik partizanlar. Dushmanni tor-mor etishda partizanlar harakatining o'rni va roli katta bo'ldi. Urushning dushman ustunlik qilgan dastlabki davrida butun-butun harbiy qismlar dushman qurshovida qolib ketdi, ko'plab askar va zobitlar noilojlikdan asirga tushib qoldilar. Harbiy asirlarning soni 5 mln kishidan ortiqroq bo'lib, ular orasida minglab o'zbekistonliklar ham bor edi.

Harbiy asirga olinganlar orasidagi komissarlar, komandirlar birinchilar qatorida otib tashlanar edi. Qolganlari harbiy lagerga tashlanardi, ularga qattiq azob berilar, och-yalong'och ortiqcha yuk, keraksiz xo'randa, deb o'ldirib yuborishar edi. Keyinchalik urush dushman o'ylaganchalik bo'lib chiqmagach, harbiy asirlardan tekin ishchi kuchi sifatida foydalana boshlandi.

Dushman bosib olgan shahar va tumanlar aholisi Germaniyaga haydab ketildi. Ba'zi joylarda mehnatga layoqatli bo'lgan fuqarolarni Germaniyaga ishga yollab olib ketishga ham urindilar. Germaniyaga haydab ketilgan sovet fuqarolari soni 4 mln.dan ortiq edi. Harbiy asirlar, haydab ketilgan fuqarolar Osvensim, Mautxauzen, Buxinvald va boshqa o'nlab o'lim lagerlarida saqlandi, xo'rlandi va ko'plari halok bo'ldi.

Dushman ishg'ol qilgan tumanlar aholisining qamalidan chiqib qolgan yoki harbiy asirlikdan qochgan jangchilar tog'larga, o'rmonlarga yashirilib, partizancha kurashga o'tdilar.

Partizanlar harakati Rossiyaning g'arbiy hududlarida, Ukraina va Belorussiyada keng tarqaldi. Partizanlar harakati Markaziy shtabi tayyorlab yuborgan harbiy mutaxassislar, razvedkachilar partizanlar orasiga borib,

⁵⁷ O'zbekistonlik Ikkinchi jahon urushi qahramonlari. - Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2020. - B. 3.



ularni yirik-yirik otryadlarga biriktirib, uyushgan holda dushmanga qarshi kurashga safarbar etdilar. Dushman qurshovidan chiqib olgan o'zbekistonlik jangchilar ham Rossiyaning g'arbi, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya respublikalaridagi partizan qo'shinlarida ishtirok etdilar.

«Chekist» partizan otryadining razvedkachisi, qo'rqmas partizan Mamadali Topiboldievning nomi Belorussiyada mashhur bo'ldi. U dushmanning 67 askar va zobitlarini yo'q qilib, 180 tasini asirga oldi. M.T opiboldiev ko'rsatgan jasorati uchun Qahramon unvoniga sazovor bo'ldi. Belorussiyaning Pisarevo qishlog'i o'zbek xalqining jasur o'g'loni nomiga Topiboldievga deb ataldi. Gomel atrofidagi «Temir yo'l urushi»da ishtirok etgan Jonibek Otaboev, Bryansk atroflarida dushmanga to'satdan zarba bergan H.Musaev, A.Hakimov, I.Qosimov va boshqalarning nomlari urush solnomasidan o'chmas o'rin oldi.

O'zbekistonliklarning urushning so'nggi pallasidagi jasoratlari. Urush o'zining so'nggi pallasiga kiradi. Berlin uchun qattiq janglar bo'ldi. Qahramonlar- Botir Boboev, Tojjali Boboev, Solih Umarov, Shuhrat ordenining to'liq kavalerlari Abdulla To'qmoqov va Said Nomozovlar Berlinni zabt etishda qahramonlarcha jang qildilar. «Berlinni olinganligi uchun» medali bilan o'zbekistonlik jangchilardan 1706 kishi taqdirlandi. Fashistlar Germaniyasi tor-mor etildi. Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun medali bilan 109208 o'zbekistonlik jangchitaqdirlandi. O'zbekistonlik jangchilar Yaponiyaga qarshi urushda ham faol qatnashdilar. Ular 20-, 79-, 275-, 388-, 221-diviziya va boshqa harbiy qismlarning tarkibida jang qildilar. Seysin port shahrini egallashda 335-o'qchi diviziyasida leytenant Fozil Karimov, razvedkachi Vali Sulaymonov alohida jasorat ko'rsatdilar. Dushman sohiliga tushirilgan desantchilar orasida pulemyotchi Nishon Bozorov chaqqonlik bilan jang qilib yaponlarning 9 ta askari, 2 ta ofitserini yer tishlatdi. U «Jasorat uchun» medali bilan mukofotlandi. Shuningdek, leytenant A.A.Karimov, o'qchi vzvod komandiri, kichik leytenant U.Doniyorov, pulemyotchilar qismi komandiri S.Qo'chqorov va boshqalar dushmanga qaqshatqich zarba berdilar.

6 yil davom etgan, butun insoniyotga og'ir kulfatlar solgan urush tamom bo'ldi. Urush insoniyatga juda katta qimmatga tushdi. 50 milliondan ortiq kishi halok bo'ldi, 90 milliondan ortiq kishi yarador va mayib bo'lib qoldi. Moddiy talafotlar qimmati 4 trillion dollardan oshib ketadi. Urush Yevropa, Afrika, Osiyo va Okeaniyada turli frontlarda olib borildi, fashizmni tor-mor etishda ko'p mamlakatlar qatnashdi. Biroq urushning asosiy og'irligi sovet kishilari zimmasiga tushdi. 27 millionga yaqin sovet kishilari urush alangasida halok bo'ldi. 18 milliondan ortiq jangchilar yarador va nogiron bo'lib qoldilar⁵⁸.

⁵⁸ O'zbekiston Milliy arxivi. Список промшленных предприятий эвакуированных в Уз. ССР в 1941-42 гг. фонд 1619.



XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Ikkinchi jahon urushi butun insoniyat boshiga ulkan kulfatlar keltirdi. Tinchlik va adolat uchun kurashgan davlatlar orasida O'zbekistonning ham beqiyos o'rni bor, desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Urushning og'ir yillarida o'zbek xalqining asosiy ma'naviy-axloqiy xususiyatlari, uning insonparvarligi yorqin namoyon bo'lib turadi. Lekin tarixning o'yini ham, omonsiz jangu jadallar ham, tabiiy ofatlar va ochlik ham xalqimizning insoniylik tabiatiga dog' tushirolmadi.

Fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning olamshumul tarixiy ahamiyati shundaki, u ko'plab xalqlarni zo'ravonlikdan, zulmdan ozod etdi, erkin, demokratik rivojlanish uchun, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyot uchun yo'l ochib berdi. Ikkinchi jahon urushi butun insoniyotga katta tarixiy saboq bo'ldi. Eng muhim saboq shundan iboratki, urush boshlanmasdan oldin unga qarshi kurashmoq, uning oldini olish tadbirlarini ko'rmoq zarur. Shu maqsadda jahondagi ko'pchilik mamlakatlar Birlashgan Millatlar Tashkilotini tuzdilar. Bu xalqaro tashkilot yarim asrdan beri tinchlikni mustahkamlash, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari bilan muttasil shug'ullanib kelmoqda. Fashizm ustidan g'alaba qozonilgan 9-may kuni O'zbekistonda har yili «Xotira va qadrlash» kuni sifatida nishonlanmoqda. Respublika faxriylari uyushmasining tashabbusi bilan janglarda halok bo'lgan vatandoshlarimiz haqida arxiv materiallari to'planib, bu ma'lumotlar asosida «Xotira» turkumida 33 kitob nashr etildi. Har yili urushda qurbon bo'lganlarni xotirlash, biz bilan hozirgi kunlarda yonma-yon yashayotgan urush faxriylarini qadrlash, e'zozlash, hurmat-izzatini joyiga qo'yishdek insoniy ishlar yoshlarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda, mustaqil O'zbekistonning milliy xavfsizligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning buyuk G'alabaning 75 yilligi hamda "Xotira va qadrlash kuni"ga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi - <https://president.uz/uz/lists/view/3564>
2. O'zbekistonlik Ikkinchi jahon urushi qahramonlari. - Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2020. - B. 3.
3. Harbiy san'atning rivojlanishi. Darslik. O'R QKA - 2022 yil.
4. Ikkinchi jahon urushi yillarida harbiy san'atni rivojlanishi. O'quv qo'llanma. 2020 yil.
5. O'zbekistonda harbiy ish tarixidan. Darslik. "Sharq" Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent - 2012 y.
6. O'zbekiston Milliy arxivi. Список промышленных предприятий эвакуированных в Уз. ССР в 1941-42 гг. фонд 1619.



TURONNING BUYUK SARKARDASI AMIR TEMUR VA TO'XTAMISHXON O'RTASIDAGI JANGDA HARBIY SAN'ATNING RIVOJLANISHI

Muxammadiyev Raxmon Rashidovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Ilmiy rahbar

Safaraliyev Abbosxon Asqarali o'g'li

Perfect University Ijtimoiy fanlar Tarix (2-bosqich talabasi)

Annotatsiya: *Maqolada Turonning buyuk sarkardasi Amir Temur va Oltin O'rda xoni To'xtamishxon o'rtasidagi 1395-yil 15-aprelda bo'lib o'tgan jang, unda tomonlarning jangovar tartibi, jang jarayoni bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilingan va ilmiy jihatdan yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *harbiy san'at, jang, qoshinlarning jangovar tartibi, jang dinamikasi, taktik usullar.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida harbiy ta'lim tizimida boshlangan islohotlarni uzviy davom ettirish, oliy harbiy bilim yurtlari, litsey va kollejlari, "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylari faoliyatini takomillashtirish, ularda ta'lim olayotgan o'quvchilar qalbida milliy ruh, ona- Vatanga mehr va sadoqat, adolat tuyg'usini har tomonlama kuchaytirish, buyuk ajdodlarimiz, jumladan, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Shohruh Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarimizning boy jang san'atidan keng foydalanish muhimligi alohida ta'kidlab o'tilganligi milliy harbiy san'atimizni tadqiq qilishning dolzarbligini bildiradi [1].

Amir Temurning harbiy san'ati uzoq asrlar davomida Sharq va G'arb davlatlari uchun namuna sifatida xizmat qilib kelmoqda. Amir Temurning harbiy san'at rivojiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Amir Temur o'z xalqining tinchligi, osoyishtaligi yo'lida umrining oxirigacha xizmat qildi. Qudratli, intizomli va o'z davrining eng rivojlangan armiyasini barpo etdi, urush olib borishning mukammal strategiyasi va taktikasini ishlab chiqdi hamda o'z tuzuklarida ularning nazariy asoslarini avlodlarga meros qilib qoldirdi [2, 51-53 b].

Uning sha'niga, ijobiy sifatlariga juda ko'plab olimlar salmoqli va o'rinli gaplarni aytishgan. Masalan, "Bu ulug' zot hatto Makedonskiy va sezardan ham ustunroq bo'lgan. Chunki Amir Temur ulardagi barcha afzal (sarkardalik mahoratidagi) jihatlarni qabul qilgani holda, yo'l qo'ygan xatolarini chetlab o'tgan. Oqibatda, jahongirlik va zafar qozonishda Temur ulardan o'zib ketdi" - deb yozgan edi, XVII asr fransuz temurshunos olimi du Senksion.



Manbalardan bizga ma'lumki, To'xtamishxon mushkul holda qolganida Amir Temur oldiga yordam so'rab keladi. Sohibqiron uni o'z o'g'lidek qabul qiladi. Oltin O'rda taxtini qo'lga kiritish uchun To'xtamishxonga qo'shin ham beradi. To'xtamishxon o'zi mustaqil ravishda Oltin O'rdani qo'lga kirita olmagach, Amir Temur unga taxtni egallashiga yordam beradi. To'xtamishxon o'z davlatining ichki nizolarini bartaraf etadi va qudratli qo'shin tuzadi hamda katta islohotlar o'tkazadi.

To'xtamishxon Oltin O'rdada o'z mavqeini tiklab olgandan so'ng Amir Temurning unga qilgan barcha yaxshiliklarini unutilib, Sohibqironning boshqa mamlakatlarda bo'lganligidan foydalanib, uning davlatiga bir necha bor yurishlar qiladi va talonchilik ishlarini amalga oshiradi. Bundan g'azablangan Sohibqiron To'xtamishxon ustiga yurish qilishga qaror qabul qiladi. Bu urush 1391-yil 18- iyunda Qunduzcha yaqinida bo'lib o'tdi. Unda Oltin O'rda qo'shini yengiladi va To'xtamishxon chekinib yashirinishga erishadi.

Bundan ham xulosa chiqarmagan To'xtamishxon yana qo'shin yig'ib, Amir Temur bilan urushga tayyorlana boshlaydi. Navbatdagi to'qnashuv 1395-yil 15- aprelda Terek daryosi yaqinida bo'lib o'tadi.

To'xtamishxonni yakson qilish uchun Amir Temur behisob lashkar to'pladi va Dashti Qipchoqqa yurishni rejalashtiradi. Yurishdan oldin Sohibqiron qo'shin ko'rigini o'tkazadi. Bu haqida Temur tuzuklarida shunday ma'lumotlar keltirilgan: Yurish oldidan ko'rik qilib, lashkarim qaergacha borib yetishini bilmoqchi bo'ldim. Qarasam, to'rt farsang (bir farsang - 7-8 km ga teng masofa) masofada lashkarim saf tortib turardi. So'ng Samur suvidan o'tib, Dashti qipchoqning elu ulusiga ushbu mazmunda yorliqlar yo'lladim: "Kimki menga kelib qo'shilsa, ulug'lanadi, kimki men bilan kurashmoqchi bo'lsa yiqiladi" [3, 60-61 b].

Amir Temur To'xtamishxonga maktub yozib, Shamsiddin Almoliqiyini elchi qilib yuboradi. Elchi To'xtamishxon huzuriga borib maktubni yetkazadi. To'xtamishxon elchining xabarini eshitib, urush qilmasdan sulh tuzishga, do'stlik yo'lini tanlashga moyil bo'lsa ham, uning amirlari va beklari urush qilish yo'lini tanlaydi va uni urush qilishga ko'ndirishadi. To'xtamishxon Shamsiddin Almoliqiyini siylab, unga sovg'a-salomlar berib, Amir Temurning urush qilmaslik to'g'risidagi xatiga yo'q degan javob beradi va elchini hurmat bilan Amir Temur oldiga qaytarib yuboradi.

Shundan so'ng Amir Temur Darbanddan o'tib, To'xtamishxonga tegishli bo'lgan bir necha viloyatlarni qo'lga kiritadi va To'xtamishxon tomon yurishni davom ettiradi.

Ikki ulkan qo'shin bir-birlari bilan to'qnash kelishidan oldin To'xtamishxon Amir Temurga O'rtoq nomli elchini jo'natadi. Elchi Amir Temurning qo'shini ko'pligini ko'rib, Sohibqiron bilan uchrashmasdan ortiga qaytib ketadi va Amir



Temur ulkan qo'shin bilan kelayotganligini To'xtamishxonga yetkazadi [4, 209 b].

Shunda To'xtamishxon manglayga (ilg'or otryad) Qazonchi ismli amirini bosh qilib, Amir Temur tomon yuboradi. Ular harakatlanib, Xo'y suyi (hozirgi Dog'istondagi Qo'ysu, Suloqning irmog'i)ning yoqasiga joylashadi. Bu vaqtda Amir Temur qo'shini Tarqi (Darqiy-Dog'istondagi Maxachqal'adan biroz janubdagi kent, hozir u temir yo'l bekati) mavzeiga yetib keladi [5, 175 b].

Sohibqiron o'z qo'shinidan bir necha lashkarni sarlab olib, tunda harakatlanadi va tong vaqtida suvdan o'tib, Qazonchi ustiga hujum qiladi. Qazonchi hiyla ishlatib chekinishga majbur bo'ladi.

Darband shahridan o'tgach, Amir Temur qo'shinga Tarki shahri (zamonaviy Maxachqal'a shahri yaqinida) atrofida dam berdi. To'xtamishxon o'z qo'shini manglayini (avangardini) Qo'ysuv daryosidagi kechuv joyini qo'riqlash (mudofaa qilish) uchun jo'natdi.

Amir Temur kechuv mudofaasini shaxsan o'zi boshqargan qism bilan parchalab tashlab, kechuvni qo'lga kiritdi. Qo'shin daryodan kechib o'tib, zamonaviy Checheniston va Ingushetiya (RF respublikalari) hududiga kirib bordi. Sunja daryosi Terek daryosiga quyiladigan joyda Amir Temur qo'shiniga hordiq chiqarishga ruxsat berildi, Terek daryosidan o'tish uchun qulay bo'lgan kechuvlarni kechiktirmay egallash uchun qo'shin daryo qirg'og'ining tayinlangan joylariga yetib keldi.

To'xtamishxon lashkarlari Amir Temur qo'shini yetib kelgunicha Terek daryosidan kechib o'tishga muvaffaq bo'ldi, bu yerda mudofaa inshootlari qurildi va so'l qirg'oqni aravalar, daraxtlar, shuningdek boshqa tabiiy va sun'iy jismlar bilan mustahkamlandi.

Amir Temur o'z qo'shini bilan Terek daryosiga yetib kelgach, operativ-strategik vaziyatdan to'la ogoh bo'ldi, dushman kechuvlarni yaxshi qo'riqlayotganligi sababli qo'shinga daryoning o'ng (janubiy) qirg'og'i bo'ylab yurishga buyruq berdi. Bu harakatga javoban To'xtamishxon qo'shini ham daryoning so'l (shimoliy) qirg'og'i bo'ylab Movarounnahr qo'shiniga parallel ravishda, uni diqqat bilan kuzatgan holda harakat qildi.

Ikkala tomon ham uch kun davomida daryo bo'ylab harakatni davom ettirdi. Uchinchi kuni Amir Temur harbiy hiylaning o'ziga xos, bundan avval amaliyotda hech kim tomonidan qo'llanmagan, usulini ishlatdi, ya'ni qo'shin ketidan kelayotgan ayollar, ta'minot bo'linmalariga dubulg'alar, zirh va sovutlarni kiyib, askarlarning harakatlarini o'xshatishga buyruq berildi. Askarlarga esa o'zi bilan ikkitadan ot olishga va ortga jadal safar yurishini amalga oshirib, kechuvlar tomon harakatlanishga topshiriq berildi.

Amir Temur qo'shinlari kechuvga uch kun davomida yetib bordi va nihoyat bevosita qarama-qarshilikning to'qqizinchi kuni Terek daryosidan kechib o'tdi.



To'xtamishxon qo'shini bilan Terek daryosi yoqalab kelayotganligini bilgach, Amir Temur o'z qo'shinini qayta saflaydi.

Bu jangda ikkala tomon ham o'z qo'shinlarini yetti qo'lga bo'lib saflaydi. To'xtamishxon 1391-yilgi jangda yengilganidan so'ng, Amir Temur qo'shinining saflanishi ustunligini bilgan va u ham o'z qo'shini yetti qo'lga bo'lib saflagan. Amir Temur qo'shinining ustun jihati barong'or va javong'orning old qismida har biri uch favjdan iborat chopovul va shiqovul qismlari joylashganligidir.

Amir Temurning qo'shinlari bu jangda ham, Qunduzcha mavzesidagi jangda bo'lgani kabi, yetti quldan iborat jangovar tartibga saflanishga tizildi. Markaz uch qo'l, o'ng qanot bir va chap qanot ham bir qo'ldan iborat edi. Markaz qo'shinlari oldida asosiy manglay bir qo'l (avangard), ortida esa chag'dovul



bir qo'l (ar'ergard) joylashtirildi.

1-rasm. 1395-yil 14-apreldagi Terek daryosi yaqinidagi jang boshlanishi oldidan

tomonlarning jangovar tartibi (yettita qo'l alohida ranglar bilan ajratilgan) [6, 141 b].

Jangovar tartibning barcha qismlari jangovar harakatlarni mustaqil ravishda olib borar va faqat Oliy Bosh Qo'mondonga bo'ysunar edi.

Amir Temur qo'shinlarining ushbu tarzidagi saflanishi quyidagi ustunliklarni ta'minlab berar edi:

qo'shin piyoda tartibda joylashganligi, kamonlardan o'q uzish yo'li bilan dushmanga uzoq masofadan talafot yetkazish imkoniga ega ekanligi;

qo'shinning bunday saflanishi mudofaa harakatlarini ham, hujum harakatlarini olib borish imkoniga ega ekanligi, ya'ni, bitta jangovar tartib bilan



ikki xil urush olib borishi, bugungi kunda dunyoning eng rivojlangan davlatlarining qurolli kuchlari ham bunday imkoniyatga ega emasligini inobatga oladigan bo'lsak, qo'shinlarni saflash va ularni boshqarishdagi harbiy san'ati bo'yicha Amir Temurga hech bir sarkarda teng kela olmasligiga guvoh bo'lamiz;

dushman qo'shiniga otliq va piyoda qo'shinlar bilan yopirilgan va uzluksiz hamlalar qilish imkoni mavjud edi;

qo'shinlarning asosiy qismi yengil qurollangan tuzilmalar va ar'ergard himoyasi ostida bo'lib, bu holat mudofaaning barqarorligini oshirar va dushman tomonidan qo'shinlarning qanotlari va front ortidan qamrab olinishiga to'sqinlik qilar edi, ya'ni, har bir bo'linma o'zidan oldindagi, yon tarafdagi va orqa tomondagi bo'linmalarni qo'riqlash (jangovar qo'riqlov) vazifasini bajarar edi.


1395-yil 14-aprel kuni ikki qo'shin bir-birlariga yaqin keldi. Shunda Amir Temur tovachilar orqali barcha qo'shinga "Barcha xandaq qazisin va joyidan qimirlamasin, hech kim o'z joyini tashlab ketmasin, dushmanning to'satdan bo'ladigan hujumini qaytarishga shay tursin, tunda hech kim olov yoqmasin" degan farmon berdi [5, 175 b].

Amir Temur kutganidek, To'xtamishxon tunda to'satdan hujum uyushtirdi, lekin, Amir Temur qo'shinini joyidan siljmay turganini ko'rib, orqasiga qaytib ketdi.

1395-yil Amir Temur va To'xtamishxon qo'shinlari o'rtasida bo'lib o'tgan jangni ikki tarixchi olim Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiylarning "Zafarnoma" asarlaridagi ma'lumotlarni qiyosiy taxlil qilgan holda sharhlab berishga harakat qilamiz. Bizningcha, Sharafuddin Ali Yazdiy o'z risolasini 1424-

1425 yillari yozganligini inobatga oladigan bo'lsak, ayrim chalkashliklarga yo'l qo'ygan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Nizomiddin Shomiy esa Sohibqironning yurishlarida 1392-yildan qatnashib, harbiy sohani birmuncha o'zlashtirganligi va aniq manbalarga suyanganligi tufayli aniqroq yozgan bo'lishi mumkin.



2-rasm. 1395-yil 15-apreldagi Terek daryosi yaqinidagi jangdagi jangovar harakatlarning dinamikasi [6, 143 b].

1-holatning izohi. 1395-yil 15-aprel kuni ikki tomon qo'shinlari bir-biriga ro'baro' kelishdi. Jang boshlanishidan oldin Amir Temur o'z qo'shinlariga piyoda tartibda joylashishi va mudofaa tadbirlarini amalga oshirishni buyuradi. Amir Temur o'zining bu qarori bilan To'xtamishxonni hayron qoldirdi. To'xtamishxon esa Amir Temurning urush g'oyasini, asosiy zarba yo'nalishini, qo'shinlarining jangovar tartibini aniqlash imkonidan mahrum bo'ladi. Chunki, qo'shinlarning barchasi piyoda tartibda joylashgan, xandaqlar qazilgan va jangovar tartiblari oldida dushman kelishi mumkin bo'lgan yo'nalishlarga sun'iy to'siqlar yaratilgan edi. Shu tariqa Sohibqiron dushmanning tarkibi, soni, qurol-aslahasi, asosiy zarba yo'nalishi va jang g'oyasini aniqlash maqsadiga erishgan.

Amir Temur o'zining "Jangu jadal, urush maydoniga kirish va chiqish, qo'shinni saflash, g'anim lashkarini sindirish tuzuki" da "G'animning urush olib borish yo'llarini shoshmasdan, bir zayldami yoki shiddat bilanmi, jangga kirishishini kuzatsinlar. Yana g'animning jang qilish tartibini chamalab ko'rsinlarki, ular bor askari bilan bir yo'la ot qo'yib, shiddatkorona hujum qiladimi yoki favj-favj bo'lib, ketma-ket hamla etadimi?"

Yana ko'rsinlarki, g'anim hamla vaqtida, jang qilib orqaga qaytib, keyin yana hamlaga kirishadimi yoki birinchi hamlasi bilan chegaralanib, oxirigacha savashadimi? G'anim agar orqasiga qaytmay savash qursa, sipoh uning hamlasidan yetgan zarbaga sabr-toqat qilib, oxirigacha turib berishi kerak. Unda shijoat bir soatlik sabr demakdir. Amr qildimki, dushman urush ochmagunicha o'zlaricha jangga kirmasinlar" degan nasihatlar aynan ana shu jangga mos kelishini ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari yana ushbu Tuzukda "Sardor lashkar nazoratchisi bilan birga, dushman sipohining oz-ko'pligini mulohaza etsinlar, sarkardalarini g'anim lashkarboshilari bilan solishtirsinlar. Shunga qarab, o'z sipohlarining kamu ko'stlarini to'g'rilab, jangga hozirlansinlar. Yana o'z sipohining qurol-



aslahalarini dushmanniki bilan taqqoslasinlar” degan nasihatleri ham yuqoridagi fikrlarimizni isbotidir [3, 149 b].

Amir Temur barcha qo’shinlarini tartibga keltirib, qo’l qismlarini shay holatga keltirib, jang boshlanishini kutib turganda bir kishi kelib: “Hazratga so’zim bor” deydi, uni Sohibqironning huzuriga olib kelishadi. U “Men dushman lashkarining o’ng qo’l qismidan kelyapman, vaziyat shundayki, Kuncha O’g’lon, Bek Yoriq, Oq Tov, Dovud So’fi va Udurkular yakzabon bo’lishib, sizning o’ng qo’l (qismingiz) qanbuliga chopqin yasamoqchilar” dedi [3, 210 b]. Sharafuddin Ali Yazdiy esa bu holatni bunday ta’riflaydi: “... dushman tomonidan xabar keldikim, muxoliflar tarafidin Kuncha O’g’lon va Bek Yoruq O’g’lon va Dovud So’fiykim, To’xtamishning kibori tururlar, ko’b kishi bilan so’l qo’l sori keldilar” [5, 176 b]. Ya’ni To’xtamishxon qo’shini Amir Temur qo’shining chap qanotiga zarba berdi degan ma’lumotni uchratishimiz mumkin.

2-holatning izohi. Bu xabarni eshitgan Amir Temur darhol u tomonga bir qancha qo’shin yuboradi. Amir Temur qo’shinlari kamonlardan o’q uzib, dushman yaqinlashmaslaridan oldin ularga katta talafot yetkazadi. Lashkarning tartibi, zabti va shavkatu shijoatini ko’rgan dushman qo’shinlari hamla yakunlanmasdanoq ortiga qayrilib qochishga tushadi. Amir Sohibqiron lashkar qismidan ellik kishini ajratadi va ular dushmanni markaz qismigacha quvib boradi.

3-holatning izohi. Chekingan dushman qismlari o’z qo’shinining markaz qismigacha yetib borgach, qayta jangovar tartibga saflanadi va o’zlarini ta’qib qilib borgan Amir Temur qo’shiniga qarshi hamlaga o’tadi. Bu yerda ularning son jihatdan ustunligi sabab qo’li baland kelib, ta’qib bo’linmalarini Amir Temur qo’shining yaqinigacha quvib keladi.

4-holatning izohi. Amir Temur qo’shinining markaz qismlari oldinga harakatlanishni davom ettiradi. Amir Temur qo’shiniga yaqinlashib kelayotgan dushman hujumini qaytarishga Amir Shayx Nuriddin birinchi bo’lib qarshi chiqdi. Amir Temur buyrug’iga binoan Amir Shayx Nuriddin va uning qo’shini otlaridan tushib yayov tarzda mudofaa jangini olib borishga tayyor turar edi.

5-holatning izohi. To’xtamishxon qo’shinining markazi Amir Temur qo’shinining markaziga hujum boshlaydi. Dushman qo’shinlari Sohibqiron qo’shini markazini yorib o’tishga erisha olmadi. Amir Shayx Nuriddin qo’shinlari dushmanga katta talafot yetkazadi. Shu vaqtda To’xtamishxon zaxira kuchlarini jangga kiritadi. Kichik ustunlik To’xtamishxon tarafida bo’ladi. Bundan unumli foydalanib qolishni niyat qilgan To’xtamishxon bor zaxirasini jangga kiritadi.

6-holatning izohi. Shu vaqtda Amir Temur qo’shinlariga zaxira kuchlari kelib qo’shildi va dushmanni tarqatib yubordi. Shundan so’ng Amir Temur



shaxsan o'zi katta qo'l bilan dushman markaziga yetib keladi. Markazda olib borilgan janglarda Amir Temur qo'shini ustunlikka erishdi.

7-holatning izohi. Markazda muvaffaqiyatsizlikka uchragan To'xtamishxon qo'shinlarining bir qismi xalok bo'lgan bo'lsa, bir qismi chekinishga majbur bo'ladi. To'xtamishxonda qo'shimcha kuchlarni jangga kiritish uchun zaxira tamom bo'lgan edi.

8-10-holatning izohi. To'xtamishxon qo'shinining o'ng qanoti Amir Temur qo'shinining chap qanotiga ham birinchi bo'lib hujumga o'tadi. Xudoydodi Husayniy chap qanotning qanbulida turgan edi. U ham o'z yo'nalishidan hujumga o'tgan dushmanni yakson etadi va ularni chekinishga majbur qiladi. Bu vaqtda markazdan Amir Temur qo'shiniga yana madad kuchlari kelib qo'shiladi va hujumni rivojlantiradi.

11 -holatning izohi. O'ng qanotda ustunlik T o'tamishxon qo'shinlari tomoniga o'tadi. Bu holni bilgan Amir Temur zaxira kuchlaridan bir qismini o'ng qanotga yuboradi. Amir Hoji Sayfiddin yetib kelgan madad kuchlari bilan birgalikda dushman hujumini qaytaradi, ularga katta talafot yetkazib, dushman qo'shinini tarqatib yuboradi.

Shunda Amir Temur qo'shini barcha yo'nalishlar bo'yicha hal qiluvchi, yoppasiga hujumga o'tdi. To'xtamishxon qo'shinlari shiddatga dosh bera olmay chekina boshladi va mag'lubiyatga uchradi. Shundan so'ng To'xtamishxon zaxira kuchlaridan to'liq foydalanib bo'lganligi, qo'shinning ko'p qismi yengilgan va qolganlari ham tarqalib ketganligi sababli qochishga majbur bo'ladi. To'xtamishxon o'z tansoqchilari qurshovida jang maydonidan qochib chiqishga va Volgabo'yi Bulg'oriyasi o'rmonlarida yashirinishga muvaffaq bo'ldi.

Bu safar Amir Temur faqat jangda erishgan g'alabasi bilangina kifoyalaniq qolmadi va Oltin O'rda harbiy qudratining manbalarini yakson qilishga qaror qildi. Amir Temur uchun Volgabo'yiga, Oltin O'rdaning yuragi - uning poytaxti bo'lgan Saroy Berka shahriga yo'l ochildi.

Amir Temur qo'shini dushmanni ta'qib qilishni davom ettirgan holda Dnepr daryosigacha yetib bordi, undan Rus tomonga burildi va Yelesk shahrigacha bordi. Bundan keyin Kavkazoldi yerlari zabt etildi, so'ngra Oltin O'rdaning asosiy bazalari bo'lgan Hoji Tarxon (Astraxan) va Saroy shaharlari tomonga yo'l oldi. O'z zamonasi uchun ulkan va boy bo'lgan bu shaharlar tez orada qo'lga olindi va ulardan juda katta miqdordagi o'lja olib ketildi. Bu shaharlar olingandan keyin Amir Temur Darband orqali Gurjistonga yo'l oldi, u yerdan Boku, Ardabil, Sultoniya va Hamadon orqali Samarqand sari yo'l oldi. Ushbu yurish mobaynida juda ko'p shahar va qal'alar qamal qilinib, qo'lga olindi, Kurdiston va Fors ko'rfazidagi ko'psonli mamalakatlarni bo'ysundirish uchun yetarli miqdordagi qo'shinlar turkumlari (lashkarlar)



ajratib jo'natdi. Aytish joiz-ki, bu lashkarlar qo'yilgan jangovar topshiriqlarni o'z vaqtida va aniq bajardi.

Amir Temur To'xtamishxonning chekingan qismlarini ta'qib qilish uchun qo'shinning bir qismini yuboradi va To'xtamishxonning harbiy qudratini butunlay yakson qiladi.

1395-yildagi jang yakunlaridan **quyidagilarni xulosa qilish mumkin:**

kerakli harbiy hiyla samarali ishlatilishi natijasida Amir Temur o'z qo'shinining jangovar va jangovar ta'minot qo'shilmalarini Terek daryosidan betalafot va dushmanga sezdirilmagan holda kechib o'tishiga erishdi;

jang oldidan tomonlarning qo'shini yetti elementdan (qismdan) iborat bir xil jangovar tartibga saflandi, biroq Amir Temur qo'shinlari saflanishi ichki sarhad bo'ylab chuqurroq tuzilgan bo'lib, bu saflanish mudofaaning barqarorligini, shuningdek hujumning shiddatli va manyovrchanligini ta'minlar edi. Bu esa Amir Temur va uning amirlarining harbiy san'at bobida, shuningdek: maqsadni (jangovar topshiriqlarni) to'g'ri tushunib yetish, vaziyatni xolis baholash, hisoblarni amalga oshirish, qaror qabul qilish, jangovar topshiriqlarni bo'ysunuvchilarga yetkazish, jangning har tomonlama ta'minotini, boshqaruvini samarali rejalashtirish va tashkil etish bo'yicha ham dushman sarkardalaridan ustunligini ta'minladi;

jang mobaynida Amir Temur qo'shinlari: hamlaga va mudofaaga zudlik bilan o'tish, pistirmalar qo'yish, otliq qo'shinlarning (sipohiylarning) jangga yayov kirishi va otda yakunlash kabi turli taktik usullarni samaraliroq qo'llay olishlarini, ya'ni jangovar tayyorgarligi dushmannikidan yuqoriroq ekanligini namoyon qildi;

qo'shin orasida hamkorlik samarali tashkil etilgani murakkab vaziyatdan kam talafot va moddiy yo'qotishlarsiz chiqishga, yakuniy natijada esa yaqqqol g'alabaga erishishning asosiy omili bo'ldi;

Amir Temur tomonidan o'z qo'shining asosiy zarbasini o'ng qanotdan, dushman jangovar tartibining zaif joyiga jangning ayni kerak pallasida yo'naltirilgani uning natijasini Amir Temur foydasiga hal etilishini belgilab qo'ydi;

ushbu yurish va yakuniy jang unda ishtirok etgan kuchlar soni, jangovar harakatlar qamrab olgan hududlar ko'lamiga ko'ra o'z davrining nafaqat Osiyodagi, balki butun dunyodagi eng yirik jang bo'lib qoldi.

Terek daryosi bo'yidagi mag'lubiyat va Amir Temur qo'shini tomonidan poytaxt - Saroy Berka shahrining qo'lga olinishi Oltin O'rda uchun katta zarba bo'ldi. Amir Temur tomonidan Yevropa va Osiyoning bir qator mamlakatlariga deyarli uch asr davomida zulm o'tkazgan davlat kuchsizlantirildi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистан стратегияси. / Ш.М. Мирзиёев. - Т.: Ўзбекистан нашриёти, 2021. - 328 б.
2. Нажимов, М.М., Сохиб[^]ирон Амир Темурнинг харбий илм ривожига [^]ушган хиссаси / М. Нажимов// Harbiy ta'lim va fanda innovatsiyalar. Ilmiy- axborot jurnali. - 2023. № 2(17). - 120 б.
3. Темур тузуклари. - Т.: O'zbekiston, 2018. - 181 б.
4. Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан угирувчи Юнусхон Накимжонов. - Т.: Ўзбекистан, 1996. - 527 б.
5. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома / Муҳаммад Али ибн Дарвеш Али ал-Бухорий таржимаси. Суз боши, табдил, изоҳлар ва курсаткич муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар: А. Аҳмад., Н. Бобобеков. - Т.: Шарқ, 1997. - 381 б.
6. Нажимов, М.М., Амир Темурнинг харбий санъати: 1395 йил Терек дарёси я[^]инидаги мухораба мисолида. ЧОТКМБЮ Зирхли ал[^]он ИА журнал. 2021.3(7) 254 б.

THE USE OF IDIOMS IN THE WORK “ WHO WILL CRY WHEN YOU DIE” BY ROBIN SHARMA

Otegenova Manzura

Assistant teacher of Tashkent Humanitarian Subjects University

Yuldasheva Etibor

Student of Tashkent Humanitarian Subjects University

English is becoming more and more important in the different kinds of the fields of our social daily life while the world is globalizing day by day. New developments in technology are breaking down barriers and opening up new ideas and ways of teaching.

As we all know, one of the main goals of language teaching is to equip our students with the ability to communicate in the target language. No doubt, idioms are an important part of language and culture around the world. Idioms cause difficulties for English as Second Language (ESL) learners because their meanings are unpredictable. Non native speakers can find themselves in “hot water” for example when encountered with idioms. To many ESL or English as a foreign language, EFL, learners, idioms are a stumbling block in their way to learn English. Obviously, this is because the meaning of the words that constitute an idiom does not match the intended meaning of the idiom. This study looks at the reasons behind the difficulties of English idioms that learners encounter in listening, reading, and speaking. Also, it looks at practical methods to teach idioms.

Beyond individual gains, the impact of AI in empowering local farmers resonates through entire communities. As farmers become more efficient and productive, they not only improve their personal livelihoods but also contribute to the broader economic stability and growth of their communities. This collective upliftment can lead to improved standards of living, greater food security, and reduced poverty levels.

Furthermore, the spread of AI in agriculture fosters a more equitable agricultural landscape. Small farms equipped with AI tools can compete more effectively in the market, breaking the cycle of dependency on traditional farming methods and limited resources. This technology-driven empowerment facilitates a more balanced and fair agricultural economy,



where success is not solely dictated by scale but also by smart, data-informed farming practices.

In conclusion, the integration of AI into agriculture is revolutionizing the sector. It is enabling smarter, more efficient farming practices that are vital for meeting the challenges of the 21st century. As this technology continues to evolve, it holds the promise of transforming agriculture into a more productive, sustainable, and equitable industry. This shift, as highlighted in the Technically Speaking podcast, showcases the incredible potential of AI to positively impact farming and underscores the critical role technology plays in shaping the future of agriculture.

BIBLIOGRAPHY:

1. Artificial intelligence: concept, types, areas of application, forecasts for the future [Electronic resource] – Access mode. – URL: <https://gb.ru/blog/iskusstvennyj-intellekt/?ysclid=lv56n10q9t988959052> (date accessed 04/16/2024)
2. Artificial intelligence in agriculture [Electronic resource] – Access mode. – URL: <https://direct.farm/post/iskusstvennyy-intellekt-v-selskom-khozyaystve-27772?ysclid=lv5oom7btk232240557> (date accessed 04/17/2024)
3. “Smart” farms: how artificial intelligence is changing agriculture [Electronic resource] – Access mode. – URL: https://www.rbc.ru/technology_and_media/14/06/2023/64802aae9a7947c6121756b7?ysclid=lv70lhzobx83532656 (access date 04/18/2024)
4. Cognitive agro pilot for tractor [Electronic resource] – Access mode. – URL: <https://cognitivepilot.com/products/cognitive-agro-pilot/?ysclid=lv5lpx4yhp140432975> (accessed 04/18/2024)
5. Cognitive agro pilot autonomous driving system for installation on existing tractors and combines [Electronic resource] – Access mode. – URL: <https://kirovets-ptz.com/catalog/selkhoztekhnika/tochnoe-zemledelie/sistemaparallelnogovozhdeniyadlyak7mik5466222/?ysclid=lv5lpha33n540758980#characteristic> (access date 04/16/2024)
6. “He’s like a person”: how unusual unmanned tractors are being introduced in Russia [Electronic resource] – Access mode. – URL: https://www.rbc.ru/spb_sz/25/10/2023/653904ac9a7947cb64f7f7cd?ysclid=lv5l8vcdrw722241321 (access date 04/17/2024)
7. Yield growth, optimization of herbicide rates, control of sowing density [Electronic resource] – Access mode. – URL: <https://agroassist.ru/?ysclid=lv6zu3u1qj219533111#platform> (access date 04/18/2024)



8. Agricultural drones [Electronic resource] – Access mode. – URL: <https://aeroservice-agro.ru/> (access date 04/18/2024)

JIZZAX VILOYATI AGROIQLIMYIY RESURSLARINING XO'JALIKDAGI AHAMIYATI

Xoldorova Gulbahor Mixliboyevna

*Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrası v.b.dotsenti, g.f.f.d., (PhD)
Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti*

Saparova Gulhayo Keldiyor qizi

Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (geografiya) (mutaxassisligi 2-bosqich magistranti, Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Iqlim resurslaridan samarali foydalanish dolzarb masalalar sirasiga kirib bormoqda. Mazkur maqolada Mirzacho'l iqlim omillari, yog'in miqdori, nisbiy namlik, harorat, shamollar va ularning geotizimlarni o'zgarishiga ta'siri muhokama etilgan bo'lib, hudud iqlimi o'rganilgan va tahlil qilingan. Mirzacho'l landshaftlariga shamolning ta'siri aniqlangan va xulosalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Atmosfera, iqlim resurslari, Jizzax, meteorologik stansiya, ikkilamchi sho'rlanish, meliorativ ekspeditsiya.*

Insonning tabiatdan foydalanishi, mavjud resurslarni o'z xo'jaligini tashkil qilishga to'la jalb qilishi natijasida jamiyat tarqqiyoti tushunchasi kelib chiqqan. Inson faoliyati tabiiy sharoit va mavjud resurslar bilan bog'liq bo'lganligi uchun xo'jalik yuritish tarzi geografik xarakter kasb etadi. Binobarin kishilik jamiyatining rivojlanishida muhim rol o'ynagan xo'jalik yuritish tarzi hududning agroiqlimiy resurslariga bog'liqdir.

Agroiqlimiy resurslarning shakllanishi hududlarning geografik o'rni, iqlim va relef hamda suv omillari bilan belgilanadi. Har bir hududning agroiqlimiy resurslari xususiyatlariga qarab joylarda xo'jalik shaklining vujudga kelish imkoniyatlari ham belgilanadi.

Jizzax viloyat yer yuzasining tuzilishi bir xil emas. Bunda, tekisliklar, adirlar, tog' oldi va tog'larning o'zaro mujassamlashganligini ko'rish mumkin. Mutaxassislar fikricha, orografik jihatdan Jizzax viloyati bir-biridan farq qiladigan ikki qismga ajraladi. Viloyatning shimoliy qismi asosan tekislik va pasttekisliklardan iborat, qolgan tomonlardan Turkiston tizmasining tarmoqlari bo'lgan Chumqortog', Molguzar va Nurota tog'lari qad ko'targan. Bu ikki qism reliefi va geologik tuzilishiga ko'ra muayyan tafovutlarga ega. Viloyatning tekislik qismi shimoli-g'arbgga tomon qiya bo'lib, o'rtacha balandligi 250-300 metrni tashkil qiladi. Turkiston tizmasining davomi hisoblangan Molguzar tog'ining o'rtacha balandligi viloyat hududida 1700-2200 metrga



teng, u g'arbga qarab davom etib, Sangzor daryosi orqali Nurota tog'idan ajraladi.

Jizzax viloyatining orografik tuzilishi uning iqlim xususiyatining shakllanishida muhim rol o'ynab, o'simlik, tuproq va boshqa tabiiy komponentlarning tarqalish qonuniyatlarini belgilagan. Viloyat landshafti o'ziga xos, uning betakrorligi va geografik jihatdan noyobligini alohida ta'kidlash lozim. Mavjud tabiiy sharoitlar xo'jalik yuritishda mahalliy xususiyatlarni e'tiborga olishni talab etadi.

Viloyat tashkil qilingan ilk yillaridanoq mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda muhim o'rin tuta boshladi. Bu, Mirzacho'l va Jizzax cho'llarining o'zlashtirilishi natijasida katta ekin maydonlarining vujudga kelishi, ko'plab aholi punktlarining bunyod qilinishi va ularga mamlakatning turli mintaqalaridan aholining ko'chib kelishi kabi ulkan jarayonlar bilan belgilanadi. Qiyosan qisqa muddatda asriy cho'llar o'rnida sug'oriladigan dehqonchilik va sanoat rivojlangan mintaqa vujudga keldi.

Ayni vaqtda viloyat ma'muriy tarkibi 12 ta tumandan iborat bo'lib, viloyat markazi bo'lgan Jizzax shahri, tumanlarga bo'ysinuvchi 47 ta shahar va shaharchalar, hamda 520 ta qishloq aholi punktlari mavjud.

Jizzax viloyati ma'muriy tarkibi haqida ma'lumot (2023 y).

1-jadval

No	Ma'muriy hududlar nomi	Markazi (shaharchalar)	Maydoni ming km.kv	QFY soni	Shahar va shaharchalar soni	Qishloqlar soni
1.	Arnasoy	G'oliblar	0,49	6	2	10
2.	Baxmal	O'smat	1,86	10	7	92
3.	Do'stlik	Do'stlik	1,32	7	2	8
4.	Jizzax	Uchtepa	0,45	12	7	38
5.	Zomin	Zomin	2,87	12	5	78
6.	Zarbdor	Zarbdor	0,51	5	4	14
7.	Zafarobod	Zafarobod	0,47	6	4	13
8.	Mirzacho'l	Gagarin	0,42	6	3	7
9.	Paxtakor	Paxtakor	0,38	7	2	19
10.	Forish.	Yangiqishloq	9,67	9	2	110
11.	Yangiobod.	Yangiobod	0,72	5	2	28
12.	G'allaorol	G'allaorol	1,95	13	7	103
13.	Jizzax shahri		0,1	0	0	0
14.	Viloyat bo'yicha	Jizzax sh.	21,2	98	47	520



Jadvaldan ko'rinib turibdiki, viloyat tarkibidagi tumanlar maydoni va aholi punktlarining soni jihatdan birmuncha tafovutlarga ega. Bu tafovutlar ushbu tumanlarda aholi joylashuvining tarixiy, iqtisodiy va ijtimoiy geografik xususiyatlariga bog'liq bo'lib, tog'li tumanlarda aholi qadimdan istiqomat qiladi, cho'l tumanlarida esa aholi punktlari yagona reja asosida bunyod qilingan. Aholi joylashuvidagi hududiy tafovutlar tumanlarning geoeologik sharoiti, tabiiy resurslari va ulardan foydalanish imkoniyatlari kabi omillarga tayanadi. Tumanlar aholisining soni va zichligi ushbu omillarning hududiy o'ziga xosligini belgilovchi mezonlardan biridir. Tumanlar bo'yicha aholi joylashuvi va ularning miqdoriy nisbatlarini tahlil qilishdan oldin, tumanlar hududining tabiiy mintaqalar bo'yicha joylashuvi va landshaft xususiyatlarining tavsifini keltirishni lozim topdik. CHunki, aholi xo'jalik yuritish tarzi va tabiatga munosabatining shakllanishida bu xususiyatlar muhim o'rin tutgan. Bundan tashqari, joylarda inson xo'jalik faoliyatining tabiiy muhitga ta'sirini o'rganishda va tabiiy sharoitga mos ravishda aholining miqdoriy va hududiy rivojlanishini tadqiq qilishda tabiiy sharoit va resurslar salohiyati doimo hisobga olinishi zaruriy shartdir. Bunda, manba sifatida L. N. Babushkin, N. A. Kogay va S. A. Zokirovlarning agroiklimiy rayonlashtirish tadqiqot ishlari, hamda L. A. Alibekov va S. A. Nishonovlarning Jizzax viloyatini tabiiy geografik rayonlashtirish sxemasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida keltirilgan L. A. Alibekov va S. A. Nishonovlarning Jizzax viloyatini tabiiy geografik rayonlashtirish sxemasi bo'yicha tumanlar hududiy jihatdan turli tabiiy geografik rayonlarning qismlarini o'z ichiga olishi mumkin.

Jizzax viloyati tumanlarining tabiiy geografik rayonlarda hududiy joylashuvi

2-jadval

No	Tumanlar	Tabiiy geografik rayonlar
1	Arnasoy	Qizilqumoldi
2	Baxmal	CHumqortog'
		Janubiy Molguzar
		Sangzor tog' oralig'i botig'i
3	Do'stlik	Mirzacho'l
4	Jizzax	Jizzax
		SHimoliy Molguzar
		SHimoliy Nurota tog'larining shimoliy yonbag'ri
5	Zomin	Zomin
		SHimoliy Molguzar
6	Zarbdor	Jizzax
7	Zafarobod	Mirzacho'l



		Forish
8	Mirzacho'l	Mirzacho'l
9	Paxtakor	Mirzacho'l
10	Forish	Forish
		Qizilqumoldi
		SHimoliy Nurota tog'larining shimoliy yonbag'ri
11	Yangiobod	Zomin
12	G'allaorol	SHimoliy Nurota tog'larining janubiy yonbag'ri
		Qaroqchitog'-G'o'bduntog'
		Sangzor tog' oralig'i botig'i
		G'allaorol tog' oralig'i sertepa tekisligi

Ko'rinib turibdiki, asosan tog' va tog' oldi hududlaridagi tumanlar bir necha tabiiy rayonlar tarkibiga kiradi. Bu, viloyat tog'li hududlarida tabiiy sharoit xususiyatlarining turlichaligi va bir qancha landshaft tiplarining hosil bo'lganligini ko'rsatadi. Ayni landshaftlar va ular hosil bo'lgan hududlarning tabiiy sharoitiga mos ravishda xo'jalik tizimlari shakllangan va bu tizimlar tabiiy muhit bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanadi.

Viloyatning cho'l qismidagi tumanlar yagona sun'iy sug'orish tizimiga ega bo'lib, cho'lga xos tabiiy landshaftlar o'rniga antropogen landshaftlar hosil bo'lgan. Faqat Aydarko'l, Tuzkon va Arnasoy ko'llar tizimi atrofi, hamda Forish tumanining cho'l qismida tabiiy yaylovlar – shuvoq, yantoq va efemer o'simliklar o'sadigan landshaftlardan iborat. SHuningdek, ko'llar tizimi Nurota – Qizilqum biosfera rezervati va Arnasoy ornitologiya buyurtmaxonasi hududiga kiradi. O'zlashtirilgan cho'l hududlariga kiruvchi Arnasoy, Do'stlik, Mirzacho'l, Zafarobod, Paxtakor tumanlari, viloyat hududining 17% ni tashkil etadi. Zarbdor, Forish va Zomin tumanlarining bir qismida ham o'zlashtirilgan va to'liq antropogen landshaftlar hosil bo'lgan hududlar mavjud. Bu tumanlarning katta qismi aholi avvaldan istiqomat qilib kelgan adir va tog' oldi tekisliklaridan iborat. CHO'l tumanlaridagi barcha aholi punktlari XX asrning ikkinchi yarmida bunyod qilingan bo'lib, transport yo'llari orqali bir-biri bilan bog'langan. CHO'lni o'zlashtirishdan ko'zlangan maqsadga ko'ra, aholi punktlari xo'jaliklar markazi sifatida, aholining yangicha turmush tarzini shakllantirishni mo'ljallab bunyod qilingan. SHunga ko'ra, bu tumanlardagi iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanish, geografik jihatdan mushtaraklikni kasb etadi. Bu mushtarakliklar quyidagicha namoyon bo'ladi:

- Ushbu tumanlar asosan Mirzacho'l va Jizzax cho'llarining o'zlashtirilishi jarayonida tashkil etilgan;
- Aholi punktlari xo'jalik markazlari funktsiyasini bajaradi;



- Aholi punktlarining tuzilishi, rejalashtirilishi, geografik joylashuvi, aholiga xizmat ko'rsatish infrastrukturasi bir xil ko'rinishda shakllantirilgan;
- Tumanlar aholisining aksariyat qismi turli viloyat va tumanlardan ko'chirib keltirilgan, shuning uchun etnografik jihatdan rang-baranglikni namoyon qiladi;
- Aholi punktlari transport yo'llari va yagona sug'orish tizimi orqali o'zaro, viloyat ichki hududlari, qo'shni viloyatlar, hamda respublikalar bilan bog'lanadi;
- Tumanlar hududida viloyat qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy ulushi yetishtiriladi, xususan paxtachilik va donchilik eng rivojlangan tarmoqlardir, shaharchalarda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish salohiyati mavjud.

Viloyatning tekislik qismidagi tumanlarning agroiqlimiy nuqtai nazardan ham bir xil xususiyatlarga egaligi o'z vaqtida L. N. Babushkin, N. A. Kogay, SH. S. Zokirovlar tomonidan ham ta'kidlangan (1985). "Arnasoy, Do'stlik, Mirzacho'l, Zafarobod, Paxtakor tumanlari sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarga ega qadimiy allyuvial tekisliklarda joylashgan, janubda Jizzax, Zomin va Zarbdor tumanlarining adirlik zonasi bilan chegaralanadi, agroiqlimiy jihatdan to'liq paxtachilikka moslashgan." (L. N. Babushkin, N. A. Kogay, SH. S. Zakirov "Agroklimaticheskie usloviya sel'skogo xozyaystva Uzbekistana", "Mexnat" T, 1985. st. 77).

Tog' va tog' oldi hududlarida joylashgan Baxmal, Zomin G'allaorol, Forish, Yangiobod, Jizzax va Zarbdor tumanlarida aholi joylashuvi tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyatlari bilan bog'liqdir. Ushbu jihatdan Jizzax, Zarbdor va Zomin, shuningdek Forish tumanlarining cho'l hududi bilan chegaradoshligini va xo'jalik tizimi, hamda aholi punktlarining shakllanishi o'zlashtirilgan cho'l tumanlari bilan bir xil xususiyatlarga egaligini ta'kidlash joiz. Bu xususiyat viloyat hududidagi aholi punktlarini tumanlar bo'yicha hududiy tadqiq qilishda e'tiborga olinishi lozim deb hisoblaymiz. Chunki o'zlashtirilgan va aholi avvaldan yashab kelayotgan hududlar, ma'muriy jihatdan bir butun hisoblangan taqdirda ham, tabiiy sharoit va resurslardan foydalanish, aholining turmush tarzi, hamda tarkibiy xususiyatlarida o'ziga xos tafovutlarga egadir.

Tog'li hududlarda aholi punktlari qadimdan shakllangan, asosan tabiiy suv havzalari bo'ylab joylashgan, binobarin, ularning shakli, xo'jalik tarzi, tabiiy resurslardan foydalanish xususiyatlari ham bir-biriga o'xshashdir. Bu tumanlarda chorvachilik, lalmikor donchilik, sug'orish imkoniyati bor hududlarda bog'dorchilik, uzumchilik va sabzavotchilik rivojlangan. Aholi punktlarining zichligi tabiiy resurslar salohiyati bilan bog'liq. Bu hududlardagi aholi punktlari va xo'jalik tizimining shakllanishi ilk bor S. A. Kovalyov, E Toshbekov va R. Valievalar tomonidan o'rganilgan. ("Geografiya sel'skogo



naseleniya i naselyonnykh punktov Samarkandskoy i Buxarskoy oblastey” Izd. AN UzSSR, T, 1962 g.) Bu tadqiqotlar bo'yicha berilgan fikrlar o'z vaqtida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Ayni vaqtda ushbu tumanlarda bir qancha sanoat tugunlari vazifasini bajaruvchi shaharchalar bunyod qilingan, transport yo'llari, xizmat ko'rsatish shoxobchalari shakllantirilgan. Aholi joylashuv tizimida ham o'ziga xos tartib vujudga kelgan bo'lib, markaziy o'rin tutuvchi qishloqlar boshqa aholi punktlarini iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan boshqaruvchi vazifasini bajaradi. Tog' va tog' oldi hududlarida joylashgan tumanlar aholi punktlarini geogarfik tadqiq qilish alohida ahamiyatga ega bo'lib, birinchi navbatda viloyat tabiatining muhofaza qilinishi va oqilona foydalanilishi kabi masalalar bilan bog'liqdir. Bu hududlar o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy landshaftlar, tabiatning betakror manzaralariga boy bo'lib, aholining atrof muhitga ta'sirini muvofiqlashtirish orqali ularni saqlash va muhofaza qilishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев А.Қ. Қишлоқ хўжалигига агрометеорологик хизмат Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали, №5, 1999, 13-14 б
2. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси // Тошкент: Ўқитувчи 1996 й 182 б.
3. Мирзачўл // Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2003. 5-жилд, - 696-697 б
4. Ғўдалов М.Р. Айдар-Арнасой кўллар тизимининг ландшафтларга таъсири // Г.ф.д. PhD илм. дар. олиш учун тақдим эт. дисс. авт. – Тошкент: 2019. -19 б.
5. Жиззах ва Сирдарё вилоятлари Гидрометеорология хизмати маркази маълумотлари, 2021.
6. Холдорова, Г. (2021). Мирзачўлда атроф-муҳитни мониторинг қилиш масалалари. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (1)
7. Gapparov, A., & Kholdorova, K. (2020). Population Systems In The Reclaimed Lands Of The Republic Of Uzbekistan. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
8. Abdunazarov, U., & Sabitova, N. (2020). Morphological features of buried Soils of loess formations of the prytashkent region of Uzbekistan. *Архив Научных Публикаций JSPI*
9. Sabitova N., Xoldorova G.M.Kayumova M, Usmonov M Mirzacho'l tabiiy geografik rayoni hududining tuproq qoplami monitoring tizimini tashkil yetishning amaliy jihatlari O'zbekiston Yevrosiyo makonida:



geografiya, geoiqtisodiyot, geoekologiya Xalqaro ilmiyamaliy konferentsiya, Toshkent -2017.11-12 may

10. Uktam Abdunazarov, Naila Sabitova, Anna Stelmakh, Gulbakhor Xoldorova, Muxabbat Kayumova Morphological features of buried soils of loess formations of the prytaškent region of Uzbekistan .Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Malayziya

11. Naila Sabitova, Gulbakhor Xoldorova. As A Determining Factor Of Soil Meliorium Status Of Sangzor Basin Flow Geostem. Nature and Science. volume 18, Number 10 October 25, 2020, USA

12. Gulbakhor Xoldorova. Changes In Natural Geographical Processes In The Mirzachul Region Under The Influence of The Sardoba Reservoir. European Journal of Molecular & Clinical Medicine ISSN 2515-8260 Volume 07, Issue 03, 2020



ISLOMIY IJARA TASHKIL QILISHNING QOIDALARI

Kurbanov Alisher Azamatovich

*Bank moliya akademiyasi Moliya va moliyalarni boshqarish fakulteti 22-17
guruh talabasi*

Moliya tarmog`ining islomiy ko`rinishi bo`lgan islom moliyasi bugungi kunda jahonda jadal rivojlanib borayotgan va inovatsion moliyalashtirish mexanizimlarini o`zida jamlagan sohalardan biridir. Quyida islomiy ijara tashkil qilishning asosiy qoidalari haqida to`xtalib o`tdik:

1. Ijara – bu, biror mulkning egasi mazkur mulkning foydalanish huquqini boshqa shakhsга malum muddat va malum tulov evaziga berishini ifodalaydigan shartnoma.

2. Ijara obekti foydalanishga yaroqli narsa bulishi kerak. Foydalanish huquqiga ega bulmagan (foydalanib bulmaydigan) obektlar ijaraga berilishi mumkin emas.

3. Ijara shartnomasi kuchga ega (yaroqli) bulishi uchun mulkni tula tasarruf qilish (egalik qilish) huquqi mulk egasida qolishi, ijarachiga esa faqat undan foydalanish huquqi berilishi kerak. Demak, istemol qilmay turib, foydalanib bulmaydigan narsalarni ijaraga berib bulmaydi. Shuning uchun pul, eyiladigan narsalar, yoqilgi, qurol kabi narsalarda ijara munosabatlari mumkin emas. Chunki ularni istemol qilmay turib, ishlatib bulmaydi. Agar bunday narsalar ijaraga beriladigan bulsa, bu qarz deb etibor qilinadi va bu borada qarz munosabatlariga oid meyorlarga amal qilinadi. Yaroqsiz ijara ustida olingan har qanday tulov qarz hisobidan olingan daromad deb hisoblanadi.

4. Mulikka egalik qilish huquqi mulk egasida qolar ekan, mulkka egalik qilish bilan bogliq bulgan majburiyatlar ham uning zimmasida buladi, mulkdan foydalanish bilan bogliq bulgan majburiyatlar esa ijaraga olgan shakhs zimmasida buladi.

Masalan, A uz uyini B ga ijaraga berdi. Bunda mulk bilan bogliq bulgan soliqlar (mulk soligi) A ning zimmasida bulsa, suv uchun tulov, elektr quvvati uchun tulov va uydan foydalanish bilan bogliq bulgan boshqa barcha harajatlar B ning zimmasida buladi.

5. Ijara muddati shartnomada aniq ifodalanishi kerak.

6. Ijarachi ijaraga olingan mulkni ijara shartnomasida kursatilgan maqsadlardan boshqa maqsadda ishlatishi mumkin emas. Agar shartnomada bunday maqsad kursatilmagan bulsa, ijarachi undan odatda qullash mumkin bulgan har qanday maqsadda ishlatishi mumkin. Agar ijarachi undan noodatiy tarzda foydalanmoqchi bulsa, buning uchun mulk egasidan qushimcha rukhsat olishi shart.



7. Ijarachi ijaraga olingan mulkka ijarachi tomonidan notugri foydalanish yoki etiborsizlik oqibatida etgan har qanday zararni qoplab berish majburiyatiga ega.

8. Ijara muddatida ijara mulkiga nisbatan tavakkalchilik mulk egasida qoladi, yani nazoratdan tashqari omillar tufayli etgan har qanday zarar mulk egasi tomonidan qoplanadi.

9. Ikki yoki undan ortiq shahs egalik qiladigan mulk ijaraga berilishi mumkin, ijara haqqi mulkning barcha egalari orasida ularning mulkdagi ulushlariga binoan (proporsional ravishda) taqsimlanadi.

10. Mulk egalaridan biri mulkdagi uz ulushini boshqalarga emas, faqatgina uzining mulkdagi sherigiga (mulk egalaridan boshqa biriga) ijaraga berishi mumkin.

11. Ijara yaroqli (joiz) bulishi uchun ijaraga berilgan mulk (ning qismlari) tula aniqlab (belgilab) berilgan bulishi kerak.

12. Ijara haqqi shartnoma tuzilayotgan vaqtda butun ijara muddati uchun belgilanishi kerak.

Ijara muddatining turli davrlari uchun turli khil miqdordagi ijara haqi belgilanishi joiz (mumkin), shart shuki, har bir davr uchun ijara haqlari ijara boshidanoq belgilangan bulishi kerak. Agar ijara muddatining keyingi davrlari uchun malum ijara haqqi (miqdor) belgilanmagan bulsa yoki mulk egasi ikhtiyoriga qoldirilgan bulsa, bunday shartnoma kuchda emas (yaroqsiz) deb hisoblanadi.

Birinchi misol: A uz uyini B ga 5 yil muddatga ijaraga berdi. Ijara tulovi birinchi yil uchun oyiga 2000 rupiya deb belgilandi va keyingi yildan har yili uzidan avvalgi yildan kura 10% kup bulishiga kelishildi. Mazkur ijara joiz (shariy, yaroqli) hisoblanadi.

Ikkinchi misol: Yuqoridagi misoldagi kabi A birinchi yil uchun ijara haqqini 2000 rupiya deb belgiladi. Keyingi yillar uchun ijara tulovi miqdori esa belgilanmadi va mulk egasi (A) ikhtiyoriga berildi. Shartnoma yaroqli emas, zero, ijara tulovi miqdori belgilanmagan.

13. Mulk egasi aktivni sotib olish (erishish, qulga kiritish) jarayonida sarflagan umumiy xarajatlariga asoslanib, ijara tulovini belgilashi (odatda moliyaviy lizingda shunday qilinadi), agar ikki taraf ham bunga rozi bulsa, shariat qoidalariga zid emas. Lekin bunda shariatda belgilangan barcha boshqa qoidalarga rioya qilinishi shart.

14. Ijaraga beruvchi ijara tulovi miqdorini bir taraflama oshirib olishi mumkin emas, bunga olib boruvchi barcha shartlar ham joiz emas.

15. Ijara tulovi yoki uning biror qismi ijaraga berilgan aktiv etkazilishidan avval avans sifatida tulanishi mumkin, biroq mulk egasining bu tarzda olgan tulovi unda «keyingi tulovlar hisobiga» qoladi va belgilangan sanadan sung (ijara muddati boshlanganda) ijara tulovi sifatida qabul qilinadi.



16. Ijara muddati ijaraga berilayotgan aktiv ijarachiga topshirilgan paytdan boshlanadi, ijarachi undan foydalanishni boshlagan-boshlamagani ahamiyatsiz.

17. Agar ijaraga olingan aktiv uz funksiyasini (ijarachi uni aynan shu funksiyasi uchun ijaraga olgan) yuqotsa va uni qayta tiklash imkonsiz bulsa, ijara mazkur yuqotish sodir bulgan paytdan tukhtatiladi. Biroq agar bu yuqotish ijarachining notugri foydalanishi yoki etiborsizligi oqibatida ruy bergan bulsa, ijarachi mulk egasiga aktivning qiymatini qoplab berishga masul buladi.

XULOSA

Biroq ijara shartnomalari shariat talablariga to'liq muvofiq ekanligiga ahamiyat qaratish lozim. Shariatga mos ijara shartlari an'anaviy lizing shartlaridan muayyan tarzda farq qiladi. Ushbu farqlar bu mavzu borasida sahifamizda mavjud avvalgi maqolalarda batafsil berilgan bo'lishiga qaramasdan, quyida ularni qisqacha keltirib o'tamiz:

1. Ijaraga berilayotgan mulkda manfaat (uzufrukt) olib kelish imkoni bo'lishi kerak va ijara haqi manfaat ijarachiga o'tgan kelishni boshlagan vaqtdan hisoblanadi;

2. Ijaraga olinadigan mol-mulk tabiatan halol maqsadda ishlatishga mo'ljallangan bo'lishi kerak;

3. Ijaraga berilgan mulkka egalik bo'yicha kelib chiqadigan barcha javobgarlik mulk egasi (ijaraga beruvchi)da bo'ladi;

4. Ijaraning narxi belgilangan bo'lishi va shartnoma tuzilayotgan vaqtda ikkala tarafga ham aniq bo'lishi kerak.

Bu kabi jamg'armalarda menejment, ya'ni boshqaruv sarmoyadorlarning vakili tushunchasi asosida amalga oshirilishi kerak va bu xizmat evaziga ma'lum haq to'lanishi lozim. Boshqaruvchilarning xizmat haqi ikki yo'l bilan belgilanishi mumkin:

- Qat'iy belgilangan qiymatda;
- Ijara tushumidan muayyan ulush ko'rinishida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shayh Muhammad Taqi Usmoniy. Islomiy moliyalashtirishga kirish. 2013 yil

2. Nekrasov Y.I. Shariat qonunlariga binoan bank ishi // Banklar va biznes olami. 2007y.

3. Muzoraba: №13 shariat standarti: ingliz tilidan tarjima/ Islom moliyaviy muassasalari bugalteriya hisobi va audit tashkiloti(AAOIFI); R.I. Baishev va boshqalar umumiy tahriri ostida – Moskva: «Исламская книга» nashriyoti, 2011.



4. «Риски в экономике» L.N.Tepman, professor V.A.Shvandarning redaksiyasi ostida, Moskva-2002 yil.

FOYDALANILGAN SAYTLAR:

1. <https://islommoliyasi.uz/uz/ijara-jamgarmasi-sukuk/>
2. [file:///C:/Users/user2/Downloads/islom-moliyaviy-vositalarining-mazmun-mohiyati-va-islomiy-moliya-institutlari-xizmat-turlarining-tasnifi%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/user2/Downloads/islom-moliyaviy-vositalarining-mazmun-mohiyati-va-islomiy-moliya-institutlari-xizmat-turlarining-tasnifi%20(1).pdf)



PROFILING AS A MODERN LAW ENFORCEMENT TECHNOLOGY TO FIGHT TERRORISM

Ruziev Furqat

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekistonn Milliy universiteti, 2 kurs
magistrantimustaqil tadqiqotchi*

Annotation: *This article discusses the main applications of a special profiling method, which is mainly used in forensic science. It should be noted that there is no single position regarding its role and place in the forensic field; in this regard, the thesis analyzes the emergence, development and current state of "profiling". Based on a comparative analysis, the main approaches are examined in detail, as well as the problems that arise in the implementation of this direction.*

Key words: *profiling, criminal identification, terrorism, criminal profiling, applied psychology, airport control, special practice.*

Threats are increasing in the modern world, including terrorism, which is one of the main risks. The evolution of terrorist organizations is leading to the need for military presence and military action. Profiling technology can become a powerful weapon in the fight against it and in its prevention.

Most sources believe that profiling was first introduced into the activities of one of the Israeli airlines as a method of identifying potentially dangerous subjects, and was further refined by American psychologists. In practice, we can say that these specialists systematized the schools of working with criminals and suspects that existed before them. Based on this, the first profiling portraits were created in England at the end of the last century. Then the method of describing the personality of the criminal and classifying him into a certain type based on the traces left at the scene of the crime, the methods used, and the order of action entered criminology.

It is not possible to effectively identify a potential terrorist or saboteur with the help of screening equipment alone. This does not allow solving many problems, especially in the context of military operations or when communicating with a person who emphasizes his inviolability and high social status. The most effective method is the use of methods that use a person's ability to read and perceive emotional and verbal information, detect deviations in behavior, and detect threats at the level of instinctive manifestations. Modern profiling uses several methods, each of which has an independent meaning. Almost all of them are used in military operations, in particular:

- conducting a survey;



- reading facial expressions and other non-verbal expressions (verbal and non-verbal actions);
- drawing a psychological portrait (characteristics of criminals);
- definition of a lie (proving the fakeness of the lies used);
- behavior prediction;
- quick decision making.

Profiling is one of the most effective tools in the fight against terrorism. The first appearance of profiling on the world stage was associated with the increase in terrorist attacks on air transport. At that time, the method from the arsenal of special services became the basis for creating request scripts to determine the behavior of passengers and indicate possible criminal intent, as well as to determine the presence of possible deviations. After the research conducted by a group of American scientists, profiling is a psychological method for evaluating and predicting human behavior based on appearance characteristics, analyzing the features that best express personal identity, and determining a psychotype based on the dominant emotion. began to represent the collection. In airports, large shopping malls, mass events and other crowded places, it is equally used to identify potentially dangerous subjects. Its use began to prevent illegal interference in the infrastructure. Its capabilities were limited both by the profiler's abilities and by the time required to conduct the survey. Generally, airport regulations allow one and a half to two minutes to avoid departure delays. Nevertheless, the method proved its effectiveness by forcing the potential criminal to abandon his intention.

Scientists introduced the term "practical psychology" to the science, which refers to a set of actions that allow establishing the probable participation of certain individuals who show signs of suspicious behavior in planned terrorist acts. Their training of any public assembly facility security officer can significantly reduce the risk of terrorist acts. The Israeli concept, which operates in most airports around the world and is used in other cases involving terrorist acts, is based on the fact that anyone can easily become a terrorist and any object is potentially dangerous. This creates a level of questioning that no one, regardless of social status, age or race, can escape analysis.

The system allows you to identify a possible presence, a quick decision on future arrest, interrogation or baggage search helps to determine the real presence of a threat.

The security services of American airports and their special services have developed a comprehensive methodology for working with potentially dangerous subjects, including smugglers, drug couriers and terrorists. The search is carried out by passengers, concertgoers, discotheques or crowded



places. At US airports, up to 3,000 law enforcement officers are engaged in rapid profiling to determine the behavior of individuals. At airports, microemotions are considered according to the methodology developed by the American scientist Paul Ekman. They are helped in their work by a technique in which every behavioral, motor, emotional and verbal reaction of the interlocutor is evaluated by a security officer on a special scale. This system is called SPOT - screening of passengers by tracking technique. It was included in the practice of airports in 2006. At the same time, there are other software tools that can help you work with potential terrorists.

According to the program, the main behavioral signs that can be concluded about a potential threat are:

- photographing the main elements of structures, constructions, engineering infrastructure. It is interesting that people pay attention to this in Russian railway stations and airports;

- keeping any records covering the main elements of the security infrastructure;

- clear but hidden interaction within the group;

- any problems related to safety or life support systems of transport infrastructure facilities;

- refusal to use the transit infrastructure of the airport;

- actions designed to determine the boundaries of protected areas;

- refuse visual contact with any representatives of security services;

All these methods are suitable for use in combat conditions, where the terrorist is hiding under the guise of a civilian, and the purpose of which is to destroy infrastructure elements.

Profiling has long been used by services to identify terrorists and subversives, from Smersh to Mossad. As an interesting description of the work of military profiling, we can cite an episode from Vladimir Bogomolov's book "August 44", when a well-trained officer was able to identify a saboteur as part of an interrogation interview. "Grandma's here" may be more evidence of profiling techniques than the classic question of "did you pack your own luggage?"

Analyzing the episode, it can be concluded that profiling methods were used by military intelligence long before they were introduced into the operational practice of aviation security.

Methods in use:

- Conducting research;

- identifying inconsistencies in answers.

- study of documents.

- provocations.



- clarification of important information intended to eliminate incorrect versions and leave correct ones;
- predicting the interlocutor's intended actions;
- making operational decisions.

At the same time, it can be noted that in addition to the recommended methods, the following methods are also used: determining the purpose of the interview, emphasizing that the survey is conducted for the purpose of public necessity. It can be argued that this is intended to mitigate the severity of the situation if the suspect is not associated with terrorist activities. It can be assumed that profiling methods are actively used in the work of intelligence and counterintelligence units, not only for identifying potentially dangerous individuals, but also for recruitment. They allow you to identify a person's core values and feelings and use them to program the person's behavior.

Profiling of potential terrorists, according to scientists, should be done on the basis of creating a typical psychological portrait of representatives of the main terrorist organizations, identifying common signs in their appearance, behavior and gestures. To do this, it is necessary to analyze the identity of all arrested terrorists and saboteurs, describe them and enter them into a common database that can be used for the purposes of many services. This information helps not only to typify individual characters, but also to predict the occurrence of illegal intervention actions.

The use of profiling in warfare and the prevention of terrorist acts is essential to the safety of society. Therefore, the training of specialists should be carried out at a high professional level.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Alison, L., Smith, M. D., Eastman, O., & Rainbow, L. (2003). Toulmin's philosophy of argument and its relevance to offender profiling. *Psychology, Crime & Law*, 9, 173-183.
2. Canter, D. V., Alison, L. J., Alison, E., & Wentink, N. (2004). The organized/disorganized typology of serial murder: Myth or model? *Psychology, Public Policy, and Law*, 10(3), 293-320.
3. Hayitov, A., & Abdurasulova, F. (2022). Methods of effective organizing primary class lessons based on interactive methods. *Science and innovation*, 1(7), 598-604.
4. Salfati, C. G., & Bateman, A. (2005). Serial homicide: An investigation of behavioral consistency (Electronic version). *Journal of Investigative Psychology and Offender Profiling*, 2, 121-144.



5. Канузель А.Е., Степанова Е.Е. // Профайлинг как средство раскрытия и расследования преступлений. Криминалистика: вчера, сегодня, завтра. 2019. № 4 (12). С. 29-32.

6. Khayitov, A. I., Mirkholikova, C. K., Tursunova, M. B., & Baltamuratova, A. P. (2023). Pedagogical-Psychological Characteristics of Development of Reflective Competence of Future Primary Class Teachers. *Journal of Advanced Zoology*, 44(S-2), 1809-1818.

7. Abrorxonova, K., & Murodova, M. (2022). FORMATION OF LINGUISTIC COMPETENCIES BASED ON THE ANALYSIS OF WORD COMBINATIONS. *Science and Innovation*, 1(8), 2082-2088.

8. Hakimov, F. (2024). THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE MANAGEMENT OF GENERAL SECONDARY EDUCATION INSTITUTIONS. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 4(02), 164-168.

9. Abrorxonova, K. A. (2023). INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING O'GZAKI VA YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 31(3), 3-6.

TASAVVUF BOSQICHLARI: SHARIAT, TARIQAT, MA'RIFAT, HAQIQAT

Abdullayeva Robiyaxon

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi

Muhammadjonova Dilyora

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tasavvuf ilmi qanday ilm ekanligi, uning bosqichlari haqida umumiy izohlar, shariat, ma'rifat, tariqat va haqiqat tushunchalarining ma'no va mohiyatiga oid mulohazalar keltirilgan va muhokama qilingan.*

Kalit so'zlar: *tasavvuf, shariat, ma'rifat, tariqat, haqiqat, Ibn Xaldun*

Tasavvuf, sufiylik — islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo'llovchi ta'limot. Tasavvuf so'zining o'zagi va mazmuni haqida olimlar turli fikr va tahminlar bildirishgan. Ular ichida Ibn Xaldunning fikri haqiqatga yaqin deb e'tirof etilgan. U "Muqaddima" asarida Tasavvuf "suvf" — "jun", "po'stin" so'zidan olingan bo'lishi kerak, zero qadimdan tarkidunyo qilgan zohidlar jundan to'qilgan kiyim yoki po'stin kiyib yurishni odat qilganlar, bu bilan ular bashang kiyinib yuruvchi axli dunyolardan farqli hayot tarzini o'zlarida namoyon etganlar, deydi. Tasavvuf bir so'z bilan aytganda insonni poklaydi desak mubolag'a bo'lmaydi. Tasavvuf bu Xaqqa eltuvchi yo'ldir va bunga yetishish uchun dastlab tasavvufning o'zining bosqichlari mavjud, shu bosqichlardan o'tgandan so'ng inson komil insonga aylanadi. Bu yo'lning oliy maqsadi Xaqqa yetish hisoblanadi.

XIX asr boshlariga kelib tasavvufning nazariy bosqichlari ishlab chiqildi, so'fiylarning amaliy, ruhiy- psixologik mashqlari, o'zini-o'zi tarbiyalash va chiniqtirish, tadbir usullari shakllandi, Shariat Tariqat, Ma'rifat, Haqiqat degan tushunchalar yuzaga kelib, tasavvufning shu to'rt qismga oid qarashlar majmuyi tuzildi va tasavvuf alohida ilm sifatida qaror topdi. Aytishimiz mumkinki, bungacha tasavvufga alohida ilm yoki fan sifatida qaralmagan edi.

Aslida, bu shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat degan to'rtta so'zning ma'nosi bir xil va bir narsaning to'rtta tomoni, to'rtta holati, to'rt jihatini bildiradi, xolos. Ya'ni, bitta ishdagi turli darajalarni anglatadi. Ular bitta ishning imon-e'tiqod, zohiriy amal, fiqh tomoni hamda ixlos, ruhiy-botiniy tomoni bilan bog'liq: zohiriy va botiniy, jismoniy va ruhiy tarbiyaga qarab belgilanadigan holatlar hisoblanadi. Ular bitta yo'lning to'rtta bekatidir. Bular aslida to'rtta so'zning bo'lsada ularning olib boruvchi yo'li bittadir.

"Shariat" so'zi lug'atda to'g'ri yo'lni aytiladi, hozirda arablar katta ko'chani "shori" deyishadi. Biror narsaga, biror ishga kirishishini esa "shuru" deyiladi. Qonun so'zining bir ma'nosi hozirda "shar", qonun chiqarishlik va kodeks



tuzishlikni “tashri” , qonun chiqaruvchi, yurist va advokatlarni esa “shore” va “mutasharre” deyilgan. Bu so‘zlarning o‘zagi bir. Demak, umumiy ma’noda diniy qonun-qoidalar majmuasi “shariat” hisoblanadi.

“Tariqat” so‘zi ham lug‘atda yo‘lni bildiradi. Zamonaviy arab tilida usul, metod va vosita ma’nolarida ishlatiladi. O‘zbek tilidagi “taraq-turuq” so‘zi ham shu so‘zning o‘zagidan olingan. Chunki, tekis va to‘g‘ri, toshli va asfalt yo‘lda yurgan odam “taraq-turuq” qilib, ovoz chiqarmay iloji yo‘q.

Tariqat – u Alloh taologa tomon yo‘lga tushganlarning manzillarni bosib o‘tishi va maqomlardan o‘tib borishidagi maxsus yurishdir. Tariqat o‘z ichida maqomlarga bo‘lingan va bularning ko‘plab manbalardagi soni har xil ifodalangan. Bu maqomlarni xuddi qiyinchiliklar va sayqallash desak ham xato bo‘lmaydi, nazarimda, chunki kimki agar shu belgilangan maqomotlar yo‘lini bosib o‘tsa u Haqqa yetishadi.

Keyingi bosqich - haqiqatdir. “Haqiqat” so‘zi lug‘atda o‘zbek tilidagidek bir narsaning to‘g‘riligi, haqqoniyliqi, haqiqiyiligini bildiradi. U chinakam, haqqoniyat, reallik, haq-huquq, adolatli ma’nolarida qo‘llaniladi. Ya’ni, Haqqa yetishmoq haqiqatdir, Allohni haqiqiy ko‘rib turgan kabi bilish va anglash haqiqatdir.

Xulosa qilib aytganda, demak, yuqoridagi to‘rtta holat insonning kamolot bosqichlaridir. Bular shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqat bosqichlaridan iborat bo‘ladi. Demak, ma’rifatli odam shu ma’rifatini aniq bilib-anglagan onda eng barkamol, komil va mukammal insondir! Yanada soddaroq tushuntiradigan bo‘lsak, bular shar’iy amallarni ixlos va xolis bajarishdagi darajalar, amal qilish jarayonida insonni qamrab oladigan ma’naviy his-tuyg‘ular, ruhiy tarbiyalar darajasi miqdoridir. Xulasa qilib aytganda, bu bosqichlarning o‘z birin -ketinlik navbati mavjud va kamolotga yetishib, Allohga yetishish uchun bosqichlardir. Inson har birini bosib o‘tar ekan sayqallanib, o‘z jirkanch va yomon fazilat-u odatlaridan qutulib poklana boradi va asl so‘fiy darajasiga yetadi . Bu bosqichlarning asl maqsadi ham shu, insonni yomon illatlarini yo‘qotib, uni poklashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Najmiddin Komilov Tasavvuf, T., 2009 .
2. Usmon Turar Tasavvuf tarixi, „Istiqlol " nashr, 1999.
3. Sayyid Sharif al-Jurjoniy. Mo‘‘jam at-Ta‘rifot. – Qohira: Dor al-Fazilat, 2000.
4. <https://hidoyat.uz>
5. <https://ahlisunna.uz>.



G'AFUR G'ULOM SHE'RIYATI TAHLILI

Rashidova Shohsanam

Aliyeva Gulsanam

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada G'afur G'ulom she'rlari, ularning tahlili yoritib o'tilgan. Shuningdek, yozuvchining hayot yo'li, ijodi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *badiiy timsol, insonparvarlik, umuminsoniylik, she'riyat, she'riy to'plam, „Vaqt“ she'ri, yozuvchi.*

G'afur G'ulom — O'zbekistonning tanikli yozuvchisi. G'afur G'ulomning she'riyati va nasrida yozgan o'zbek xalqi tarixi o'zining badiiy timsolini topgan. Yozuvchining ijodi rang-barang — she'rlar, qo'shiqlar, dostonlar, qasidalar, hikoyalar, qissalar. G'afur G'ulomning urushdan keyingi davrdagi ijodi o'zbek adabiyoti rivojida beqiyos o'rin tutgan. G'afur G'ulom, shuningdek, Pushkin, Lermontov, Griboyedov, Mayakovskiy, Nozim Hikmet, Rustaveli, Nizomiy, Shekspir, Dante, Bomarshe va boshqalarning asarlarini o'zbek tiliga mohirona tarjimasini bilan mashhur. G'afur G'ulom 1903-yilning 10-may kuni Toshkentda, dehqonlar oilasida tug'ilgan. Uning otasi savodxon bo'lgan. U o'zbek va tojik mumtoz adabiyotini o'qigan, rus tilini bilgan. Uning uyiga Muqimiy, Furqat, Asiriy, Xislat va boshqa shoirlar kelib turgan. 1916-yilning kuzida G'afur o'qishga kiradi. Onasining vafotidan so'ng (otasi avvalroq vafot etgan), u ishlashga majbur bo'lgan. Ko'plab kasblarda o'zini sinab ko'rgach, u nihoyat, matbaaga harf teruvchi bo'lib ishga kiradi, so'ngra, pedagogik kurslarda tahsil oladi. 1919-yildan 1927-yilgacha u o'qituvchi, maktab direktori, Ma'naviyat uyushmasi ishchilari raisi bo'lib ishlaydi, bolalar uyini tashkil etishda faol ishtirok etadi. 1923-yildan G'.G'ulomning adabiy faoliyati boshlanadi. She'rlar, dostonlar, ocherklar, hajviy hikoyalar va qissalari gazeta va jurnallarda chop etila boshlaydi. 1923-yil yozilgan "Feliks farzandlari" she'rida yetim bolalar haqida gapirarkan, unda yozuvchi o'z hayotini ifodalaydi, "Maorif va o'qituvchi" oynomasida esa "Go'zallik qayerda" nomli ikkinchi she'ri nashr qilinadi. Birin-ketin she'riy to'plamlari bosmadan chiqadi: "Dinamo", "Xitoy suratlari", "Biz sizlar bilan tirikmiz", "Jonli qo'shiqlar", "Sizga", "Sovg'a", "Tong qo'shig'i", "Qo'qon" dostoni va boshqalar. "Dinamo" (1931), "Tirik qo'shiqlar" (1932) — yosh shoirning yo'nalishi yorqin namoyon bo'lgan birinchi she'riy to'plamlari. Shoirning boqiy hayot, mangu ko'k daraxt haqidagi "Qish va qor" (1929), "Non" (1931), "Toshkent" (1933), "Qutbda saylovlar" (1937), "Men - Yahudiyman" (1941), "Qish" (1941), "Xotin" (1942), "Afsuski, afsusni qo'shib ko'mmadi" (1945), "Bog" (1934), "Qayg'u" (1942), "Kuz keldi"



(1945), “Kuzgi ko’chatlar” (1948) kabi she’rlarida umuminsoniylik, insonparvarlik mavzulari o’z aksini topdi. Ko’pgina she’rlarida sharq donishmandi - ota timsoli mavjud: “Sen yetim emassan” (1942), “Qayg’u” (1942), “Biri biriga shogird, biri biriga ustod” (1950), “Sizlarga - yoshlar” (1947), “Bahor taronalari” (1948) va boshqalar. G’ofur G’ulom o’zining juda yaxshi she’rlarini bolalar va o’smirlar uchun bag’ishlagan: “Ikki bolalik”, “Bilaman”, “Seni Vatan kutmoqda”. Urush yillarida G’afur G’ulom “Sen yetim emassan”, “Seni kutyapman, o’g’lim!”, “Vaqt”, “Kuzatish”, “Ayol”, “Bizning ko’chada ham bayram bo’lajak” kabi ajoyib she’rlar yaratgan. “Seni kutyapman, o’g’lim!” she’rida shoir front ortida o’zlarining qahramonona mehnatlari orqali dushman ustidan g’alabani yaqinlashtirgan otalarning sabri va kuchini madh etadi. Mushkul kunlarda insonlarning bolalarga bo’lgan muhabbati buyuk ma’no kasb etgan. Bu - ota-onasini yo’qotib, oddiy odamlarning sidqidildan qilgan g’amxo’rliqi haqida so’z boruvchi ajoyib “Sen yetim emassan” she’rida yaqqol seziladi. Shoirning urush yillarida yozilgan “Bahaybat”, “G’alabachilar qo’shig’i”, “Vaqt”, “Xotin” she’rlari yuqori fuqarolik she’riyatining namunalari hisoblanadi. Ular “Sharqdan kelmoqdaman” to’plamidan joy olgan. Urushdan keyingi yillar G’afur G’ulom bir qator she’riy to’plamlarini nashrdan chiqaradi: “Yangi she’rlar”, “O’zbekiston olovlari”, “Onalar”, “O’zbek xalq g’ururi”, “Tong qo’shig’i”, “Yashasin, tinchlik!”, “Bu - sening imzoing”. Ushbu to’plamlardan joy olgan she’rlarda shoir tinchlik davrining muhim savollariga javob topishga, o’zbek xalqining mehnat faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini ko’rsatishga intiladi. Asarlarining qahramonlari — dunyo ishlari va osoyishta mehnat bilan band sobiq askar. G’afur G’ulom — tinchlik, do’stlik va xalq baxtining jo’shqin kurashchisi. Shoir tinchlik uchun kurashga bag’ishlangan to’plam yaratgan. Ulardan eng yaxshilari: “Dunyo minbaridan”, “Yashasin, tinchlik!”, “Bu — sening imzoing” va boshqalar. Mushkul kunlarda insonlarning bolalarga bo’lgan muhabbati buyuk ma’no kasb etgan. Bu - ota-onasini yo’qotib, oddiy odamlarning sidqidildan qilgan g’amxo’rliqi haqida so’z boruvchi ajoyib “Sen yetim emassan” she’rida yaqqol seziladi. G’afur G’ulomning “Vaqt” she’ridan parcha:

G’uncha ochilguncha o’tgan fursatni
Kapalak umriga qiyos etgulik,
Ba’zida bir nafas olg’ulik muddat —
Ming yulduz so’nishi uchun yetgulik.
/-/-/
Yashash soatining oltin kappiri
Har borib kelishi bir olam zamon.
Koinot shu damda o’z kurrasidan
Yasab chiqa olur yangidan jahon.



Lahza nima? Ko'z ochib yumguncha o'tadigan fursat. Go'yo e'tiborga, diqqatga arzimaydi. O'z umrini poyonsiz deb o'ylaydigan aksariyat odamlar uchun lahzaning sariq chaqalik qimmatini bo'lmasligi ham mumkin. Biroq shoir bu she'ri orqali butun insoniyat hayoti - uning quvonch-u tashvishlari, hatto qismati ham mana shu lahzalarga jo ekanini favqulodda misollar bilan isbotlab beradi.

